

**X. S. MUXITDINOVA, Ya. I. AVLAKULOV,  
D. A. NURIDDINOVA**

# *O'zbek tili 7*

**Ta'lim rus va qardosh tillarda olib  
boriladigan maktablarning  
7- sinfi uchun darslik**

2- nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi  
vazirligi tasdiqlagan*



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT — 2017

UO'K: 811.512.133(075)  
KBK 81.2 O'zb(ya72)  
M-93

### Taqrizchilar:

- S. Odilova** — Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, p. f. n.  
**S. Maxsumova** — O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f. f. n.  
**Z. Salisheva** — O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi.  
**M. Akramova** — Toshkent shahridagi 61- maktab o'qituvchisi.  
**Z. Arinova** — Toshkent shahridagi 300- maktab o'qituvchisi.  
**Z. Polvonova** — Toshkent shahridagi 90- maktab o'qituvchisi.

### Shartli belgilar



— Bilib oling!



— Uyga vazifa



— Savollar



— Adabiy o'qish



— Suhbatlashing!

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan ijara uchun chop etildi.**

ISBN 978-9943-22-057-7

© X. S. Muxitdinova va b.  
© „O'qituvchi“ NMIU, 2013  
© „O'qituvchi“ NMIU, 2017, qayta  
ishlangan va to'ldirilgan.

## POYTAXTIM — FAXRIM

(Soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari. Sodda yasama soʻzlar)

### 1- DARS



Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi



Yoshlar ijod saroyi

**1- topshiriq.** Berilgan rasmlarni kuzating va tayanch soʻzlar asosida gaplar tuzing.

Tayanch soʻzlar: *muhtasham saroy, keng koʻcha, zamonaviy va qulay, turar joy binolari, koshona, maʼrifat markazi, elektron kutubxona.*

**1- mashq.** Matni oʻqing va shu mavzuda suhbatlashing.

### Poytaxtdagi yangi inshootlar

Toshkent — mustaqil Oʻzbekiston Respublikasining poytaxti. Keyingi yillarda poytaxtimizning qiyofasi tanib boʻlmas darajada oʻzgarib, kundan kunga chiroyli boʻlib bormoqda. Eski shahar mavzolari, istirohat bogʻlari, oʻnlab bozorlar yangidan qurildi. Shaharning turli tumanlarida muhtasham koʻpriklar, ravon yoʻllar, piyodalar uchun yerosti yoʻlkalari qurildi. Sharqona va milliy uslublarda koʻplab zamonaviy inshootlar barpo etildi. Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining yangi binosi, Bolalar ijodiyoti markazi, Oʻzbek milliy liboslari galereyasi, Xalqaro anjumanlar saroyi, „Bunyodkor“ sport kompleksi, oʻnlab oʻquv yurtlari, oilaviy poliklinikalar, mahalla markazlari qurildi.

(„Oʻzbekiston mustaqil taraqqiyot yoʻli“ fotoalbomidan)

**inshoot** — сооружение  
**yerosti** — подземный  
**ravon** — гладкий

**qiyofa** — лицо, вид  
**yo'lka** — дорожка  
**bezash** — укорачать

### *Bilib oling!*



Soʻzlar tuzilishiga koʻra sodda, qoʻshma va juft boʻladi. Sodda soʻzlar bir oʻzakdan, qoʻshma soʻzlar birdan ortiq oʻzakdan, juft soʻzlar ikki oʻzakdan yasaladi.

#### **Sodda**

shahar  
 bunyodkor  
 oʻynamoq

#### **Qoʻshma**

Oltintepa  
 gulbeor  
 guvohnoma

#### **Juft**

qarindosh-urugʻ  
 uy-joy  
 bordi-keldi

**2- mashq.** Matnni oʻqing. Sodda soʻzlarni aniqlang.

Yozda Oqtosh togʻ yonbagʻridagi „Quyoshli“ oromgohida dam oldim. Oromgoh togʻ bagʻrida, soya-salqinda joylashgan ekan. Togʻ yonbagʻridagi archazorlar, sharqirab oqib turgan soy, baland-baland daraxtlar, toza havo bizga juda yoqdi. Har kuni bolalar bilan futbol, voleybol, shaxmat oʻynadik, qiziqarli kitoblar oʻqidik, sayohatlarga bordik. Oromgohdagi turli toʻgaraklarga aʻzo boʻldik. Sanʼatkorlar, darslik mualliflari, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar ham boʻlib oʻtdi. Dam olish juda maroqli oʻtdi.

**3- mashq.** Berilgan soʻzlardan sodda soʻzlarni ajratib oling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Shahar, poytaxt, maktab, katta-kichik, ilmi, bogʻbon, qoʻlqop, belbogʻ, ota-ona, chiroyli, baland-past, boychechak, etarpishar, asalari, tinchliksevar, kitob, yeryongʻoq, tez-tez.

**2- topshiriq.** Suhbat matnini rollarga boʻlib oʻqing. Sodda soʻzlarning qoʻllanishiga eʼtibor bering.



**Sanjar:** Sen yangi favvoralarni borib koʻrdingmi?

**Anvar:** Qaysi favvoralarni aytyapsan, Toshkentda favvoralar koʻp-ku?!

**Sanjar:** „Ma’rifat markazi“ning yonidagi favvoralarni.

**Anvar:** Ha. Ularning kamalakdek 7 xil rangda harakatlanishi hammani zavqlantiradi.

**Sanjar:** Rostdanmi, dadamlarga aytaman, kechqurun biz ham, albatta, borib ko‘ramiz.

**4- mashq.** Berilgan so‘zlardan gaplar tuzing. So‘ng ularni ketma-ketlikda joylashtirib matn tuzing.

1. Shahar, turar joy, zamonaviy, binolar, qurilmoq, juda ko‘p.
2. Bu yil, sport majmuasi, yangi, bunyod etilmoq, shahar.
3. Biz, juda, o‘z, shahar, yaxshi ko‘rmoq.
4. Ona, men, o‘z, faxrlanmoq, bilan, shahar.
5. Ona, va, shahar, obod, yildan yilga, go‘zal, bo‘lmoq.

**3- topshiriq.** Berilgan javoblarga mos savollar tuzing.

— ... ?

— Toshkentdagi eng katta sport majmuasi „Bunyodkor“ deb nomlanadi.

— ... ?

— „Bunyodkor“ stadioni 34 ming o‘ringa mo‘ljallangan.

— ... ?

— Sport majmuasida bolalar va o‘smirlar futbol maktabi ham ochilgan.

**4- topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing.

### **Toshkentim**

Tinchlik, do‘stlik, shon shahri,  
Toshkent, azizim — onam.  
Ko‘rkam favvoralarga  
Mahliyo butun olam.

Yoshlik, shodlik maskani,  
To abad ko‘rma zavol.  
Tungi ko‘chalar sehrin  
So‘ylab berar majnuntol.

Osmono‘par binolar  
Ochar oydin jamoling.  
Farzandlaring bilimdon,  
Sening ertang, kamoling.

Toshkent shirmoy non shahrim,  
Aziz bolajon shahrim.  
Shaharlarning sarvari,  
Dunyoga doston shahrim.

(Ilyos Yunusov)

**mahliyo** — очарованный  
**oydin** — лунный

**osmono‘par** — высотный  
**maskan** — здесь: место

**majnuntol** — плакучая ива



**Uyga vazifa.** Shahringizda qurilgan yangi inshootlar haqida ma‘lumot bering.

## 2- DARS



**5- mashq.** Matnni o‘qing, ona tilingizga tarjima qiling.

### „CITY MAKON“ madaniy-ma‘rifiy markazi

Poytaxtimizning Beshyog‘och ko‘chasida „CITY MAKON“ madaniy-ma‘rifiy markazi bunyod etilgan. Ushbu markazda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun sport maydonchasi, zamonaviy 3D formatdagi kinozal, bolalar maydonchasi

mavjud. Markazda badiiy fotoko‘rgazmalar, anjumanlar, ochiq darslar o‘tkaziladi. Badiiy ijodiyot to‘garaklarida mahorat saboqlari, ko‘rik-tanlovlar ham o‘tkazib turiladi. „CITY MAKON“ barcha yoshlarga zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘z bilimlarini oshirib borishlari uchun katta imkoniyat beradi.

**badiiy** — художественный  
**mahorat saboqlari** — мастер-класс  
**ko‘rik-tanlov** — конкурс, показ

**zamonaviy** — современный  
**fotoko‘rgazma** — фотогалерея  
**bo‘sh** — свободный

### *Bilib oling!*



Sodda so‘zlar tub yoki yasama bo‘lishi mumkin. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalari bo‘lmagan so‘zlar sodda tub so‘zlar hisoblanadi. Masalan: *anhor, terak, mahalla, ko‘chalar, uyim, bormoq.*

**6- mashq.** Gaplarni o‘qing. Sodda tub so‘zlarni aniqlang.

1. Biz kutubxonachiga yordam berdik. 2. Bog‘bon har bir daraxtni mehr bilan parvarish qiladi. 3. Zarb bilan tepilgan to‘pni darvozabon mohirlik bilan ushlab qoldi. 4. U sovg‘a qilingan gullarni guldonga solib qo‘ydi. 5. Eski shaharda hunarmandlar rastasi joylashgan. 6. Avaz duradgor va temirchi ustalarning ishlarini diqqat bilan kuzatdi.

**5- topshiriq.** Guruhlarga bo‘lining va „Kim ko‘p biladi?“ o‘yinini tashkil qiling. O‘yin topshirig‘iga ko‘ra har bir guruh shahri (qishlog‘i)dagi yangi inshootlar haqida ma‘lumot berishi kerak.



### **Adabiy o‘qish**

#### **Bobo va nabira**

Bobo nabirasini yetaklab shahar aylandi.

— Voybo‘, bobojon, bunday katta uyni birinchi ko‘rishim.

— Bu bino Xalqaro anjumanlar saroyi bo‘lib, unda xalqaro anjumanlar, konferensiyalar o‘tkaziladi. Mana bu Toshkent kurrantlari deb nom olgan egizak binolar esa dunyoda yagona hisoblanadi.



Bobo barpo etilayotgan ko‘rkam binolar bilan nabirasini ta-nishtirar ekan, bunday ezgu ishlarning barchasi inson uchun, yurt ravnaqi, taraqqiyoti uchun ekanligini ta’kidladi.

Alisher bobosining so‘zlarini diqqat bilan tingladi va:

— Mening maktabim ham yap-yangi, bobojon, — dedi.

— Bolajonim, yurtimizning ulug‘ligi, xalqimizning totuvligi dunyoga mashhur. Sen ham shu yurtga munosib farzand bo‘l!

**anjuman** — конференция

**ojiz** — слабый

**xiyobon** — сквер

**ravnaq** — развитие

**ta’kidlamoq** — подчеркивать

**munosib** — достойный

**ta’rif** — описание

**totuv** — дружный

**Topshiriq.** Hikoyani o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.



### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Toshkentda mustaqillik yillarida bunyod etilgan yangi inshootlar haqida so‘zlab bering.
2. Siz qaysi inshootlarni borib ko‘rdingiz? U nimasi bilan boshqalaridan ajralib turadi?



**Uyga vazifa.** 1. Shahringiz (viloyatingiz)dagi tumanlar nomini yozing. 2. Siz yashayotgan tuman qaysi tumanlar bilan chegaradosh? So‘zlab bering.



## MAHALLAM

(Soʻz yasovchi qoʻshimchalarning soʻzga qoʻshilish tartibi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Berilgan savollar asosida oʻz mahallangiz (koʻchangiz) haqida suhbatlashing.

1. Siz qaysi mahallada yashaysiz?
2. Mahallangizni obod qilish uchun nimalar qilinyapti?
3. Mahallangizda qanday tadbirlar oʻtkaziladi?

**2- topshiriq.** Matnni rollarga boʻlib oʻqing. Muomala odobiga oid jummalarni aniqlang.

Biz Abdulla Qodiriy nomli mahallada yashaymiz. Mahallamiz obod va juda ahil. Koʻchalarimiz ozoda, uylarimiz shinam. Dam olish kunlarida mahallamizda tez-tez hashar oʻtkazib turiladi. Bugun ham dadam bilan hasharga chiqdik. Ana, sinfdoshim Aziz dadasi bilan daraxtlarni oqlashyapti.

— Hormanglar, biz ham hasharga keldik, — dedilar dadam.

— Juda yaxshi. Qani, Sherzodjon, sen oʻrtogʻingga qarash.

Biz dadang bilan idoradagi ishlarga yordam beramiz.

Biz tushgacha koʻchadagi barcha daraxtlarni oqlab boʻldik. Dadam bilan Akmal amakim idora hovlisini tozalab qaytishdi.

— Biz ishimizni tugatdik, amaki, yana nima ish bor?

— Boʻldi, qolgan ishlarni biz oʻzimiz bajaramiz.

Har bir hashardan soʻng mahallamiz yanada chiroyli, fayzli boʻlib ketadi. Bizning mahallamizga mehmonga keling!

### ***Bilib oling!***



Oʻzbek tilida yasama soʻzlar tarkibida bir nechta soʻz yasovchi va shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar kelishi mumkin. Ular soʻz asosiga quyidagi tartibda qoʻshiladi:

#### **Asos + soʻz yasovchi + shakl hosil qiluvchi**

olma + **zor** + **lar** + **da**  
mahalla + **dosh** + **lar** + **ga**

**1- mashq.** Berilgan soʻzlarga mos qoʻshimchalarni qoʻshib, yasama soʻzlar yasang va namunadagidek yozing.

**-chi   -soz   -bon   -dosh   -paz   -don   -kor**

gul**chi** soat**soz** bogʻ**bon** sinf**dosh** osh**paz** qalam**don** bunyod**kor**

Tarbiya, suv, bogʻ, sir, darvoza, gul, soat, havas, osh, musobaqa, temir.

**2- mashq.** Matnlarni oʻqing. Sodda yasama soʻzlarni aniqlab, qoʻshimchalarning qoʻshilish tartibini tushuntiring.

1. Hammasi ham mayli-ya, Ravshanning kasalxonaga tushib, musobaqaga qatnasha olmay qolgani yomon boʻldi-da! Barcha sinfdoshlaridan ajralib qoladigan boʻldi. Endi keyingi yil u musobaqaga kimlar bilan boradi-yu, qachon boshqalarga yetib oladi? Hali bir yil bor-a!

2. Shifokor Doniyorning tomogʻini katta ochib koʻrdi-da, dedi:  
— Oʻgʻlim, muzqaymoqni koʻp yeb qoʻyibsang-ku! Doniyor oyisiga qaradi-yu, qizarib ketdi. Axir u oyisiga aytmay, muzlatkichdan muzqaymoq olib yegan edi-da!

**3- mashq.** Gaplarni oʻqing. Yasama soʻzlarni aniqlab, qoʻshimchalarning qoʻshilish tartibini tushuntiring.

**N a m u n a:** kun + **lar** + **im** + **da**

1. Bolalik kunlarimda, uyqusiz tunlarimda ... 2. Kitob — bilim manbai. 3. Men serquyosh Oʻzbekiston farzandiman. 4. Dur-

dona ruchka va chizg'ichini qalamdoniga soldi. 5. Maqtanchoq bolani hech kim yoqtirmaydi. 6. Shahrimizdagi yangi bunyod etilgan oromgohni borib ko'rdik.

**4- mashq.** Matnni o'qing. Sodda, qo'shma, juft so'zlarni aniqlab, guruhlarga bo'lib yozing.

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda mahallaning roli va ta'siri xususida to'xtalish albatta o'rinlidir. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelgan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, to'y-tomosh, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida joy egallagani bejiz emas. Biz „Mahalla — ham ota, ham ona“ degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz.

*(Islom Karimov. „Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch“ asaridan)*

**3- topshiriq.** She'rni ifodali o'qing, mazmunini tushuntiring.

### Dastyor qiz

Suv sepaman, supuraman,  
Uy, hovlimiz top-toza.  
Barcha yaxshi ishlarimdan  
Ukam olar andaza.  
Supurgini Nargiza  
Qo'lidan qo'ymas sira.

Bolalar so'rashadi,  
Atrofin o'rashadi:  
— Bu yerni kim supurdi,  
Xuddi chinni gul qildi.  
Indamadi Nargiza,  
U-chi, maqtanmas sira.

*(Yunus Tolipov)*



**Uyga vazifa.** She'rni yod oling. Uyda qanday yumushlarni bajarishingiz haqida so'zlab bering.

## 2- DARS

**4- topshiriq.** Matnni o‘qing. Mazmunini qo‘shimcha ma’lumotlar bilan gapirib bering.

### Navoiy ko‘chasi

Bu ko‘chada Toshkent davlat sirki, O‘zbek milliy akademik drama teatri, O‘zbekiston televideniyesi, Turkiston saroyi, Ma’rifat markazi kabi juda katta inshootlar, ko‘plab tashkilotlar, muassasalar bor. Mashhur Ko‘kaldosh madrasasi, Chorsu bozori ham shu ko‘chada joylashgan. Zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan yangi turar joy binolari ham mavjud.

### Bilib oling!



O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalar, asosan, asosdan keyin, sifat yasovchi **no-**, **ser-**, **ba-**, **be-** qo‘shimchalari esa asosdan oldin qo‘shiladi. Masalan:

#### Asosdan keyin

mahalladosh  
hunarmand  
bog‘bon

#### Asosdan oldin

noto‘g‘ri  
serjahl  
badavlat

**5- mashq.** Berilgan so‘zlarni qo‘shimchalarning qo‘shilish o‘rniga ko‘ra 2 guruhga bo‘lib ko‘chiring. So‘z yasovchi qo‘shimchalarni ajratib ko‘rsating.

N a m u n a : 1. Hosildor, ...  
2. Serhosil, ...

Hosildor, serhosil, beaql, aqlsiz, hashamdor, serhasham, jahldor, serjahl, guldor, sergul, beodob, odobsiz, betartib, tartibsiz.

**6- mashq.** Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Maktabimizda yozuv... bilan uchrashuv o‘tkazildi. 2. Masalani ...to‘g‘ri yechib qo‘yibsanku! 3. Bir taraf bug‘doy..., ikkinchi taraf paxta... edi. 4. Olimjon doskaga mavzuni chiroy...

qilib yozdi. 5. Osmon ...g'ubor, quyosh charaqlab turibdi. 6. Bog'dan sayra... qushlarning ovozi eshitiladi. 7. Maktab devor... gazetasiga maqolalar yozib turadi.



### Adabiy o'qish

#### Obod mahallam bo'ylab

Bizning mahalla va ko'y,  
Har bir xonadon va uy  
Mehrlarga to'lmoqda,  
Shundan obod bo'lmoqda.

Unda har bekat, guzar  
Insonlar bilan go'zal.  
Gullarga to'lgan rasta  
Tutar sizga guldasta.

Mana do'stlik so'qmog'i,  
Yana mehr bulog'i.  
Zargarlar va chevarlar  
Sizni juda sevarlar.

Novvoylar tutar shirmoy,  
Do'kon shirinlikka boy.  
Etik tiksa, etikdo'z,  
Etigiga yo'qdir so'z.

Bizda doim qaynar ish,  
Har soatda o'zgarish.  
Unda bilim o'chog'i,  
Quvnoq maktab dargohi.

Mahalla bolalari  
Tarqalib turli yoqqa,  
O'ynashar ko'zboylog'ich,  
Bekinmashoq va soqqa.

Mahallam ajib ko'rkam,  
U ham bir kichik o'lkam.

*(Kavsar Turdiyeva)*



#### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabingizda qanday tadbirlar o'tkaziladi?
2. So'z yasovchi qo'shimchalarning asosga qo'shilishi haqida ma'lumot bering.
3. Mahallangiz (ko'changiz) haqida so'zlab bering.
4. Ko'chada yurish qoidalarini bilasizmi?



**Uyga vazifa.** She'rni o'qing. Mazmunini so'zlab bering. Undagi qo'shma va juft so'zlarni aniqlang.

## USTOZLAR

(Qo'shma so'zlar, ularning yasalishi va imlosi)

### 1- DARS

O'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. Yurtimizda har yili 1- oktabr sanasini O'qituvchilar va murabbiylar kuni sifatida umumxalq bayrami deb e'lon qilinganligi xalqimizning ustozlarga azaliy hurmat-eh-tiromining yaqqol namunasidir.

(*Islom Karimov*)



**1- topshiriq.** Berilgan tayanch so'zlar asosida ustozlaringizni ta'riflang. Qaysi ustozingizni nima uchun yaxshi ko'rishingizni ayting.

Tayanch so'zlar: *mehribon, aqlli, shirinso'z; o'qish, yozish, rasm chizish; tartibli, ahil, do'st, maslahat; o'rgatmoq, bermoq.*

**2- topshiriq.** Matnni o'qing. Birinchi o'qituvchingiz haqida so'zlab bering.

### Birinchi o'qituvchim

Har bir insonning ilk ustozini uning birinchi o'qituvchisi bo'ladi. Hammamiz ham qo'limizga birinchi marta qalam tutqazib, yozishni, o'qishni o'rgatgan o'qituvchimizni hech qachon unutmaymiz. O'qituvchilar bizga bilim beribgina qolmay, tarbiya ham berishadi. Shuning uchun odobli bolalarga kattalar

„Ustozingga rahmat!“ deyishadi. Bu o‘quvchilarga ustozlarning ta’siri nihoyatda kuchliligidan. Xalqda „Ustoz — otangdan ulug‘“ deyilishining sababi ham shundadir.

**1- mashq.** Berilgan so‘zlar va birikmalarni to‘g‘ri joylashtirib gaplar tuzing.

1. Biz, yig‘ilmoq, ertalab, bino oldi, maktab, bilan, onalar.
2. Men, esdan chiqarmoq, o‘qituvchim, sira, birinchi.
3. Edi, ustoz, kamtar, nihoyatda, inson, birinchi.
4. Kelgan, maktab, kun, birinchi, esdan chiqarmoq, men, hech qachon.
5. Sinf, parta, o‘qituvchi, ikkitadan, o‘tqazmoq.
6. Ushlamoq, ruchka va qalam, yozmoq, o‘rgatmoq.

### **Bilib oling!**



Qo‘shma so‘zlar bir tushunchani bildiruvchi kamida ikki qismdan iborat so‘zlardir. Ular qo‘shib yoki ajratib yozilishi mumkin. Masalan: *belbog‘, yeryong‘oq, gultojxo‘roz, rahmdil, xushmuomala, havorang.*

*Markaziy Osiyo, tarjima qilmoq, shu vaqt, borib kelmoq* kabilar.

**2- mashq.** Berilgan so‘zlar ishtirokida qo‘shma so‘zlar hosil qiling va qaysi so‘z turkumidan yasalganini izohlang.

**N a m u n a :** Oq + **tepa**; sifat + ot — Oqtepa (joy nomi), ....

Gul, yog‘och, besh, chehra, gul, oyoq, ming, atir.

**3- mashq.** Berilgan so‘zlarni qaysi so‘roqqa javob berishiga ko‘ra guruhlarga ajratib yozing.

Ustoz, o‘quvchi, maktab, kelmoq, samimiy, birinchi, talabchan, guldasta, g‘amxo‘r, qarshilamoq, bilimli, sinfdosh, qadrdon, bahramand bo‘lmoq.

<b>Kim?</b>	<b>Nima?</b>	<b>Qanday?</b>	<b>Necha?</b>	<b>Nima qilmoq?</b>

**3- topshiriq.** Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

### Ustozlarning ustози



Siz birinchi „Alifbo“ darsligini kim yozganini bilasizmi? Bu — ulug‘ ma’rifatparvar bobimiz Abdulla Avloniydir. U 1879- yilda Toshkentda tug‘ilgan. Abdulla Avloniy o‘zi maktab ochib, ko‘p darsliklar yozgan. Bolalar uning „Birinchi muallim“ kitobidan ilk bor harf tanishgan. „Ikkinchi muallim“dan esa she’r va hikoyalar o‘qishni o‘rganishgan. Uning 1909 — 1917- yillarda bosilgan to‘plamlari o‘qish kitobi vazifasini bajargan. Shuning uchun Abdulla Avloniy barcha ustozlarning ustози deb hisoblaydilar. Biz ham birinchi bor qo‘limizga qalam tutqazib, o‘qish va yozishni o‘rgatgan ustozimizni hamisha hurmat bilan yodda tutamiz.

*Ayting-chi, nima uchun Abdulla Avloniy barcha ustozlarning ustози deb hisoblaydilar?*

**4- topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing.

### Birinchi muallimim

Oftobimsiz, oyimsiz,  
So‘zlari muloyimsiz,  
Omon bo‘ling, doim siz,  
Birinchi muallimim.

Darsda shovqin solmaymiz,  
Yomon baho olmaymiz,  
Biz sizni ardoqlaymiz,  
Birinchi muallimim.

Biz bo‘lsak ahil, inoq,  
A‘lochi, kamtar, quvnoq  
Sochingizga tushmas oq,  
Birinchi muallimim.

Etolmasak sizni shod,  
Ko‘ngil uyingiz obod  
Qarzdormiz umrbod,  
Birinchi muallimim.

*(Olqor Damir)*

**qarzdor** — должник, обязанный  
**shovqin** — шум

**ardoqlamoq** — дорожить  
**muloyim** — вежливый



**Uyga vazifa.** She’rni yod oling.



## 2- DARS

**4- mashq.** Matnni o‘qing. Yozuvchining eng ulug‘ ustozga bergan ta’rifini daftaringizga ko‘chiring.

### Eng ulug‘ ustoz

Meni tez-tez o‘quvchilar bilan uchrashuvlarga taklif qilishadi. Shunda ko‘pincha o‘quvchilar „Sizning birinchi ustozingiz kim?“ — deb savol berishadi. Men ularga shunday javob beraman:

— Mening qo‘limga ilk marta qalam-daftar tutqazgan, menga o‘qish-yozishni o‘rgatgan o‘qituvchilarimdan doimo minnatdorman. Ammo, kitobni eng ulug‘ ustozim degim keladi. Bolaligimda kitobni qo‘limdan hech qo‘ymas, unga boqib to‘ymas edim. Kitob so‘zining asl ma’nosini otalardan so‘rab, aniq bilib oldim. Kitob so‘zi *kel, top, bilim ol* ma’nolarini bildirar ekan. Kitob eng ulug‘ ustoz va qadrdon do‘stdir.

(*Quddus Muhammadiy*)

**taklif qilmoq** — пригласить  
**ko‘pincha** — часто

**faxr bilan** — с гордостью  
**minnatdorchilik** — благодарность

**5- topshiriq.** Berilgan savollar asosida suhbatlashing.

1. Siz birinchi ustozingizni eslaysizmi?
2. Ustozingizning qaysi fazilatlarini ko‘proq yoqtirar edingiz?
3. Maktabga birinchi kelgan kuningiz to‘g‘risida so‘zlab bering.

### Bilib oling!



O‘zbek tilida quyidagi qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi:

1. **Xona, noma, bop, xush, ham, rang, kam** kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar: *qabulxona, tabriknoma, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, kulrang, kamquvvat*.

2. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo‘ljallanganligini bildiruvchi qo‘shma otlar: *ko‘zoynak, tokqaychi, kirsovun*.

Ikkinchi qismi turdosh ot yoki **obod** so‘zi bilan ifodalangan joy nomlari: *Sirdaryo, To‘rtko‘l, Yangiobod*.

**5- mashq.** Berilgan qo'shma so'zlarning qo'shib yozilish sababini izohlang.

Taklifnoma, oliyjanob, mehnatsevar, kamgap, to'g'riso'z, rostgo'y, rahmdil, xushmuomala, havorang, guldasta, beshik-tervatar, gulbeor, bolabop, kamquvvat, hamxona.

**6- mashq.** Juftlab berilgan so'zlar orasidan so'z birikmalari va qo'shma otlarni ajratib, namuna asosida 2 guruhga ajratib yozing.

Namuna:	<b>qo'shma so'zlar</b>	<b>so'z birikmasi</b>
	<i>Yangiyo'l</i>	<i>katta yo'l</i>

Yangi/yo'l, katta/yo'l, osmon/o'par, moviy/osmon, Uch/qo'rg'on, uch/daha, tosh/baqa, tosh/yo'l, qimmat/baho, a'lo/baho, och/ko'z, qo'y/ko'z.

**7- mashq.** Matnni o'qing. Matn tarkibidagi qo'shma va juft so'zlarni aniqlab, yozilishini tushuntiring.

### Ota-onang — ilk ustozing

Inson uchun birinchi ustoz ota-ona hisoblanadi. Ota-onani hurmat qilish, ularni e'zozlab, xizmatlarini qilish har bir farzandning vazifasi. Ota-onangizni ranjitadigan so'zlar aytishdan doimo saqlaning. Ularni izzat-hurmat qilishga, duolarini olishga harakat qiling. Ularga yomon muomala qilishdan, achchiqlanib qarashdan o'zingizni saqlang. Har bir o'g'il-qiz buva-buvisi, ota-onasining nasihatlariga doimo amal qilishi kerak.

**hurmat qilmoq** — уважать

**vazifa** — долг, задача

**ranjitmoq** — обижать, огорчать

**saqlanmoq** — остерегаться

**xizmatda bo'lmoq** — служить

**izzat-hurmat** — уважение

**duo** — благословение

**nasihat** — добрый совет

**6- topshiriq.** Guruhlarga bo'lining va „Eng, eng, eng...“ o'yinini tashkil eting. Eng birinchi ustozingiz, eng yaxshi fan, eng yaxshi kitob, eng yaxshi she'r haqidagi fikringizni ayting.



**Uyga vazifa.** Ustozlaringizdan biri haqida so'zlab bering.

### 3- DARS



**7- topshiriq.** Berilgan rasm asosida suhbatlashing.

**8- mashq.** Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Maktabga birinchi kelgan kunimni tez-tez eslayman. O'qituvchimiz bizni kutib olib, bir qator qilib sinfga olib kirganlar. Keyin bo'yimizga qarab, partaga ikkitadan o'tqazganlar. Ular qo'llarimizni parta ustiga qo'yib o'tirishga, yonimizda o'tirgan do'stimizga **xalaqit bermaslikka** o'rgatganlar. Dars vaqtida orqadagi va oldingi partalarda o'tirganlar bilan gaplashishga sira **ruxsat bermas edilar**. Papkalarimiz parta tagida, kitob-daftarimiz parta ustida turar edi. Shu tartib-intizomga hali-hali **rioya qilaman**.

#### *Bilib oling!*



O'zbek tilida qo'shma so'zlar quyidagi hollarda ajratib yoziladi:

1. Ikkinchi qismi atoqli otdan iborat qo'shma so'zlar: *Quyil Chirchiq, Markaziy Osiyo.*
2. Ikki fe'ldan yasalgan qo'shma fe'llar: *chiqarib olmoq, borib kelmoq.*
3. Fe'l bo'lmagan so'zga fe'lning qo'shilishidan yasalgan qo'shma fe'llar: *yod olmoq, kasal bo'lmoq.*

**9- mashq.** Berilgan qo'shma so'zlarni qo'shib yoki ajratib yozilishiga ko'ra 2 guruhga ajratib yozing.

Sirdaryo, boshyalang, hamma vaqt, har kim, umumxalq, xushfe'l, ommabop, kamhosil, makkajo'xori, tinchliksevar.

**10- mashq.** Gapnlarni o'qing. Qo'shma so'zlarni aniqlang va yozilishini izohlang.

1. O'zbekiston bayrog'idagi havorang musaffo osmon va barqaror tinchlik ramzidir. 2. Respublikamizda har kim bilim olish huquqiga ega. 3. Xalqimiz tinchliksevar va mehnatsevar xalq. 4. Mehmondo'st o'zbek xalqi hamisha millatlararo totuvlikni ulug'laydi. 5. Maktabimiz Yunusobod tumanida joylashgan. 6. O'zbekiston tog'larida shifobaxsh o'simliklar juda ko'p.

**11- mashq.** Matnni o'qing, qo'shma so'zlarning yozilishini tushuntiring.

Mening birinchi ustozim quyidagi so'zlarni takror-takror aytar edilar: „Takrorlash — bilimlarning onasi. Chiroyli yozish uchun qayta-qayta yozib mashq qilish kerak. She'r yodlashda ham shunday. She'r satrlarini bir necha marta o'qib, so'ng yoddan qayta-qayta takrorlash kerak. Kimki bunday mashq qilishga erinsa, hech narsani o'rgana olmaydi“.

*Siz ham ustozingiz, ota-onangiz takror va takror aytadigan o'gitlarini esingizda tutasizmi?*



## Adabiy o'qish

### Mirzo Ulug'bekning ustози

Rivoyat qilishlaricha, Mirzo Ulug'bek bolalik paytida Amir Temur Rumdan chaqirib keltirgan bir donishmanddan saboq olgan. Donishmandning bir odati bo'lib, saboq berish vaqtida boshini engashtirib, yerga qarab o'tirar ekan. Agar shogirdi biror jumlanı yanglish o'qisa, unga qarab qo'yar ekan.

Bir kuni Mirzo Ulug'bek kitob o'qiyotgan edi. U: „Uddasidan chiqmagan narsangizni nega va'da qilasiz?“ degan jumlanı o'qigach, ustozı unga bir qarab qo'yibdi. Mirzo Ulug'bek: „Ehti-

mol, yanglish o‘qigan bo‘lsam kerak“, deb jumlani diqqat bilan qaytadan o‘qibdi. Ammo ustoz bu gal ham boshini ko‘tarib, unga qarab qo‘yibdi.

Mirzo Ulug‘bek saboqdan keyin bobosi yoniga kelib:

— Bobojon, ustozimga biror narsa va‘da qilgan bo‘lsangiz, darhol va‘dangizga vafo qiling, — deb bo‘lgan voqeani aytib beribdi. Amir Temur nabirasining hikoyasini eshitib:

— Ustozing mendan Rumda qolib ketgan kutubxonasini olib kelishga odam yuborishimni iltimos qilgan edi. Men va‘da qilgan edim, ammo yodimdan ko‘tarilib ketibdi, — debdi. So‘ng shu zahotiy oq rumlik donishmandga bergan va‘dasini bajo keltirish uchun farmon beribdi.

**Topshiriq:** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

**zakovatli** — сообразительный

**yanglish** — ошибочно, неправильно

**donishmand** — мудрец, знающий

**saboq** — урок

**farmon** — указ

**jumla** — предложение

**shogird** — ученик

**hikoya** — рассказ

**va‘da qilmoq** — обещать

**shu zahotiy oq** — в тот же момент



### *Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:*

1. Birinchi ustozingiz kim edi? Ularning qaysi o‘g‘itlari xotirangizda saqlanib qolgan?
2. „Inson uchun birinchi ustoz ota-ona hisoblanadi“ degan gapning mazmunini tushuntirib bering.
3. Sodda, qo‘shma, juft so‘zlarga misollar keltiring.
4. Maktabingizda Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan qanday tadbirlar o‘tkaziladi?



**Uyga vazifa.** Hafta ichida o‘qigan kitobingiz haqida so‘zlab bering.

## TIL BILGAN — EL BILADI

(Juft va takroriy soʻzlar, ularning yasalishi va imlosi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Rasmni kuzating. Berilgan tayanch soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing va til bayrami taassurotlari haqida oʻzaro suhbatlashing.

Tayanch soʻz va birikmalar: *katta zal, bezatilgan sahna, bayramona kiyingan oʻquvchilar, Navoiy portreti, til bayrami.*

**1- mashq.** Matnni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan gaplarni koʻchiring.

**Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili oʻzbek tilidir. 1989-yil 21- oktabrda „Davlat tili toʻgʻrisida“gi Qonun qabul qilindi.** Ushbu qonun milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlar berdi. **Oʻzbek tili mustaqil davlatimizning bayrogʻi, gerbi, madhiyasi qatorida turadigan, qonun yoʻli bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.** Oʻtgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi oʻrni va taʼsirini kuchaytirish yoʻlida gʻoyat ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlol yillarida oʻzbek tilining qoʻllanish doirasi nihoyatda kengaygani, uning xalqaro miqyosda ham muloqot vositasiga aylanib borayotgani juda quvonarlidir. **Tilga eʼtibor — elga eʼtibor, deydilar.**

(*Islom Karimov. „Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch“ asaridan*)

**2- topshiriq.** Savollarga javob bering va shu mavzuda suhbatni davom ettiring.

1. „Davlat tili to‘g‘risida“gi Qonun qachon qabul qilingan?
2. „Tilga e‘tibor — elga e‘tibor“ maqoli nimani anglatadi?
3. „Til — el boyligi“ maqoli-chi?

**qadriyat** — ценность

**davr** — время

**himoya qilinmoq** — защищаться

**mobaynida** — в течение

**doira** — круг

**muqaddas** — священный

### *Bilib oling!*



Juft so‘zlar ikki so‘zning qo‘shilishidan tashkil topib, chiziqcha bilan yoziladi. Ular quyidagicha tuziladi:

**Har ikki qismi  
mustaqil qo‘llanadi**

opa-singil  
kecha-kunduz  
orzu-havas

**Bir yoki ikkala qismi  
mustaqil qo‘llana olmaydi**

bo‘sh-bayov  
alg‘ov-dalg‘ov  
apil-tapil

**2- mashq.** Berilgan so‘zlarni qismlari mustaqil qo‘llanadigan va mustaqil qo‘llanmaydigan juft so‘zlarga ajratib yozing.

Katta-kichik, aytdi-qo‘ydi, baland-past, mol-hol, uy-joy, g‘adir-budur, bordi-keldi, kalta-kulta, jiz-biz, qand-qurs, o‘tdi-ketdi, to‘s-to‘polon, hol-ahvol, opa-singil, qarindosh-urug‘, sog‘-salomat, baxt-saodat, keldi-ketdi, erta-kech, o‘t-o‘lan.

**3- mashq.** Berilgan gaplardan juft so‘zlarni toping. Ularning tuzilishi va yozilishini tushuntiring.

1. Mahalladagi tadbirda qo‘ni-qo‘shni, katta-kichik hammasi qatnashdi. 2. Issiq kunlar tugab, kuzgi-qishki ishlar boshlandi. 3. Eson-omon yuribsanmi, bolam? 4. Bahrom qo‘rqa-pisa eshikni ochib kirib keldi. 5. Ular yuzma-yuz hamma gapni gapirib olishdi. 6. Gulnora idish-tovoqlarni yig‘ishtirib qo‘ydi. 7. Opa-singil

hamma ishlarni birpasda bajarib qo'yishdi. 8. Hammayoq jimjit. Tevarak-atrofdan hech kim ko'rinmasdi.

**4- mashq.** Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

### Til bayramida

Har yili 21- oktabrda respublikamizda til bayrami o'tkaziladi. Shu kuni maktabimizda barcha o'quvchilar katta zalga yig'iladilar. Sahna chiroyli gullar bilan bezatiladi. Sahnaning to'riga buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning katta portreti qo'yiladi. Devorlarga tilga bag'ishlangan devoriy gazetalar osiladi. Biz bayramda o'zbek tili darslarida va darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida o'rgangan she'rlarimizni aytib beramiz, milliy liboslarda raqsga tushamiz, turli tillarda qo'shiqlar, sahna ko'rinishlarini ijro etamiz. Bayram sermazmun va qiziqarli o'tadi.

**3- topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.



**Azamat:** Sen kecha til bayramida ishtirok etdingmi?

**Denis:** Ha, bizning sinfimiz bayramga atab sahna ko'rinishi tayyorladi.

**Azamat:** Sen-chi, sen o'zing ham qatnashdingmi?

**Denis:** Albatta, men o'zbek tilida she'r o'qib berdim.

**Azamat:** Sahna ko'rinishini tayyorlashga kim yordam berdi?

**Denis:** O'zbek tili o'qituvchimiz ...

Savol: *Ayting-chi, bayram tadbirini yana qanday ko'rinishda o'tkazish mumkin?*

**4- topshiriq.** She'rni ifodali o'qing, mazmunini so'zlab bering.

### Til — millatning borlig'i

Til millatning borlig'i

Tarixiga yorlig'i.

Kim qadriga yetmasa,

Budir uning xorligi.

Tilga qilsang e'tibor —

El tilida noming bor.

O'z tilingni yo'qotsang,

Senga yo'qdir iftixor.



Tilimizni asraylik,  
Qalb to'rida saqlaylik.  
O'rganib uni obdan,  
Biyron bo'lib so'zlaylik.

Ko'zning mehr nurlari,  
So'zning sehr durlari  
Sochilib tursin mudom,  
Balqsin hayot gullari!

(Mannop Toji)

**biyron** — разговорчивый  
**yorliq** — удостоверение  
**himoya qilmoq** — защищать

**iftixor** — гордость  
**mudom** — постоянно, вечно  
**balqimoq** — расцветать



*Uyga vazifa.* She'rni yod oling.

## 2- DARS

**5- topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing. So'ngra sinfdoshlaringiz bilan suhbatni davom ettiring.



**Aziza:** Hozir darsimiz qaysi xonada bo'ladi?

**Shoira:** Hozir o'zbek tili darsi. Dars o'zbek tili xonasida bo'ladi.

**Aziza:** Menga o'zbek tili xonasi juda yoqadi. U yerda juda ko'p kitoblar bor. To'garak mashg'ulotlari ham shu xonada o'tadi.

**Shoira:** To'garak mashg'ulotlarida nimalarni o'rganasiz?

**Aziza:** To'garak mashg'ulotlarida biz ...

## **Bilib oling!**



Soʻzlar bir asosning aynan takror qoʻllanishi orqali ham yasalishi mumkin. Bunday soʻzlar takroriy soʻzlar deyiladi. Takroriy soʻzlar maʼnoni kuchaytirib berish vazifasini bajaradi. Masalan: *katta-katta, baland-baland, tez-tez, qayta-qayta* kabi.

**5- mashq.** Gapnlarni oʻqing. Juft va takroriy soʻzlarning maʼnolaridagi farqni tushuntiring.

1. Izzat-hurmatni ham, obroʻ-eʼtiborni ham inson til orqali topadi. 2. Doʻstim, yaxshi-yaxshi gaplardan gapiring. 3. Opasigillarning feʼli bir-biriga umuman oʻxshamaydi. 4. Bilim bitmas-tuganmas boylikdir. 5. Ota-onalar birin-ketin zalga kirib kelishdi. 6. Shahrimizda baland-baland turar joy binolari qurib bitkazildi. 7. Mehmonlarga sovgʻa-salom tarqatildi.

**6- mashq.** Berilgan soʻz oʻzaklaridan juft va takroriy soʻzlar hosil qiling va namunadagidek 2 ustunga ajratib yozing.

Namuna:	<b>Juft soʻzlar</b> <i>erta-indin</i>	<b>Takroriy soʻzlar</b> <i>asta-asta</i>
---------	--	---

Erta-..., mayda-..., kecha-..., ota-..., aka-..., sekin-..., uzoq-..., asta-..., katta-..., past-..., qadim-..., oʻgʻil-..., uzoq-..., qancha-..., shirin-..., baxt-..., yaxshi-..., tez-...

**6- topshiriq.** Alisher Navoiyning hikmatlarini oʻqing va mazmunini tushuntiring.

Insonni til ayladi judo hayvondin,  
Bilki, guhari sharifroq yoʻq ondin.

Tilga ixtiyorsiz — elga eʼtiborsiz.

Bilmaganin soʻrab oʻrgangan olim,  
Orlanib soʻramagan oʻziga zolim.

Tiling birla koʻnglingni bir tut.



**Uyga vazifa.** „Til bilgan — el biladi“ maqolining mazmunini tushuntirib bering.

### 3- DARS

**7- topshiriq.** Matnni o‘qing, savollarga javob bering.

Til barcha asrlarda xalqlar o‘rtasidagi eng asosiy muloqot vositasi bo‘lgan. Kimki boshqa millat va xalqlar tilini bilsa, u shu xalqning dilini ham tushunadi. Xalqlar o‘rtasidagi birlik, ahillik, mehr-oqibat va hurmat til bilishdan boshlanadi. O‘zbek xalq shoiri G‘afur G‘ulom ko‘p til bilishning xosiyati haqida shunday deb yozgan edi: „Hayotda ko‘p tilni bilish chuqur bilim olmoqchi bo‘lgan yoshlar uchun juda zarur. Ingliz, nemis, fransuz yoki italyan tillarini bilish dunyo madaniyati xazinasiga yo‘l ochadi. Shekspirni, Bayronni, Shillerni, Gyugoni, Gyoteni, Danteni asl nusxasida o‘qiy olish katta fazilat-ku!“



#### Savollar:

- Boshqa tillarni bilishning qanday foydasi bor?
- G‘afur G‘ulom ko‘p til bilish haqida nima degan?
- Siz qaysi tillarni o‘rganyapsiz?

#### Bilib oling!



Juft so‘zlar **-u(-yu)** yuklamasi bilan bog‘langanda, so‘zlar orasiga chiziqcha qo‘yilmaydi. Masalan: *ona-bola* — *ona-yu bola*, *bog‘-bo‘ston* — *bog‘-u bo‘ston* kabi.

**7- mashq.** Berilgan juft so‘zlarni **-u(-yu)** yuklamasi bilan bog‘lab gaplar tuzing.

Gul-lola, kecha-kunduz, yoz-qish, yosh-qari, katta-kichik, uzun-qisqa, past-baland.

**8- mashq.** Berilgan gaplardan juft so‘zlarni toping va ma‘nosini tushuntiring.

1. U boshini egganicha, lom-mim demay o‘tirardi. 2. Bobom ko‘rgan-kechirganlarini gapirib berar edilar. 3. U to‘ppa-to‘g‘ri do‘stining yoniga bordi. 4. Onam supur-sidirdan bo‘shamay qoldi.

5. Qad-qomati kelishgan, ko‘z-qoshi qora qiz edi. 6. Daftar-kitoblarimni yig‘ishtirib qo‘ydim.

**8- topshiriq.** Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

### Davlat tili

Mamlakat qonunchiligida, rasmiy ish yuritishda, sud jarayonida, o‘quv faoliyatida qo‘llaniladigan asosiy til o‘zbek (davlat) tilidir. O‘zbek tili — jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biri. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir (4- modda). O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi maxsus qonun bilan ham belgilangan. Konstitutsiya va qonunda o‘zbek tilining davlat tili deb belgilanishi boshqa har qanday tillarning muomalada bo‘lishini rad etmaydi. Boshqa tillardan ham kundalik hayotda, turmushda keng foydalanish imkoniyati yaratiladi.

(„Ma’naviyat — qalb quyoshi“ ma’lumotnomasidan)



### Adabiy o‘qish

#### Ona tilim

Alla bo‘lib jaranglagan  
Ona tilim — jon-u dilim.  
Unga, axir, payvastadir  
Qadr-u qimmat, mehr, bilim.

Buyuk Temur jahon bo‘ylab  
Dovrug‘ini solgan tilim.  
Mir Alisher bobomlardan  
Meros bo‘lib qolgan tilim.

Bobur Mirzo she’rlaridan  
Rang va ohang olgan tilim.  
Shunday tildan tonar bo‘lsam,  
Qiyma-qiyma bo‘lsin tilim.

(Tursunboy Adashboyev)

## Til bilgan — el biladi

Nutq eng ulug‘ boylikdir. Inson gapira olishi, nutqi bilan ulug‘dir. Barcha asrlarda xalqlarni bir-biriga bog‘laydigan, yaqinlashtiradigan asosiy vosita til bo‘lgan. Ayrim tillar hatto xalqlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tagan. Shuning uchun „Til bilgan — dil biladi“ deydilar.

Hikoya qilishlaricha, kunlardan bir kun ulug‘ vazir va shoir Alisher Navoiy Samarqand shahrida bir-biri bilan tortishib savdo qilayotgan ikki insonga duch kelib qolibdi. Ular bir-biriga baqirar, biri „Se“ desa, ikkinchisi „Uch“ derdi. Atrofdagi odamlar esa „Narxini tushirma“ deb, ularni yanada urishtirar edilar. Navoiy ularning yoniga yaqin keldi va har ikkoviga o‘z tilida gapirib tushuntirdi. „Ey, odamlar! Axir ikkovingiz ham bir xil narxni aytyapsiz-ku. Tojik tilidagi „se“ o‘zbek tilidagi „uch“ degani-ku!“ Barcha odamlar xaxolab kulib yuborishibdi. Shuning uchun ham odamlar hamisha bir-birini yaxshi tushunish, ahil va inoq yashash uchun bir-birlarining tillarini o‘rganishga harakat qilib keladilar.



### *Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:*

1. „Davlat tili to‘g‘risida“gi Qonun qachon qabul qilingan?
2. Boshqa millatlar va xalqlar bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatishda tilning o‘rni qanday?
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘zbek tili haqida nimalar deyilgan?



**Uyga vazifa.** Ayting-chi, nima uchun o‘zbek tilini o‘rganish zarur? Munosabatingizni bildiring.

## INSONIY FAZILATLAR

(Sifatlarning yasalishi. Sifat yasovchi qo‘shimchalarning qo‘llanishi va imlosi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Berilgan rasmlar asosida suhbatlashing. Har biriga o‘z munosabatingizni bildiring.

**1- mashq.** Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni zid ma‘noli so‘zlar bilan juftlab yozing va ularga ta‘rif bering.

### Insoniy fazilatlar

**To‘g‘riso‘zlik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, kamtarlik, rahmdillik, bilimdonlik, halollik, saxiylik** kabi xislatlar yuksak insoniy fazilatlar hisoblanadi. Bunday fazilatlarga ega insonlar jamiyatda hurmat qozonadi, boshqalar oldida e‘tiborga ega bo‘ladi. Komil inson bo‘lish uchun kishi o‘zida yoshlikdan ushbu fazilatlarni tarbiyalab borishi kerak. **Maqtanchoqlik, yolg‘onchilik, hasadgo‘ylik, o‘zgalarni mensimaslik** insonni obro‘sizlantiradi. Shuning uchun hamisha **to‘g‘riso‘z, g‘amxo‘r va kamtar** bo‘ling. „Kamtarga kamol, manmanga zavol“, deydi dono xalqimiz.

### *Bilib oling!*



Sifatlar tub va yasama bo‘ladi. Yasama sifatlar ot va fe‘l asoslariga so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish orqali yasaladi.

### Tub sifatlar

katta  
yashil  
shirin  
toza

### Yasama sifatlar

aqlli  
chiroyli  
serhosil  
baquvvat

### Otdan sifat yasovchi qo‘shimchalar

<b>-li</b>	<b>-siz</b>	<b>-chan</b>	<b>-choq</b>	<b>-qoq</b>	<b>-dor</b>
odobli	tuzsiz	ishchan	tortinchoq	urishqoq	hosildor

**2- mashq.** Berilgan so‘zlardan tub va yasama sifatlarni ajratib yozing.

Ko‘rkam, sezgir, ozg‘in, yangi, to‘g‘ri, katta, shirin, chiroyli, ziyrak, past, toza, rostgo‘y, ulkan, jasur, tiniq, keng, qotma, baxil, baxtli, chaqqon, qizg‘anchiq, saxiy, erinchoq, mug‘ambir, intizomli, samimiy.

**3- mashq.** Berilgan otlarga mos qo‘shimchalarni qo‘shib, sifatlar yasang.

Ish, harakat, baxt, hosil, tartib, mazmun, daraxt, gul, chiroy, aql.

**4- mashq.** Berilgan so‘zlarga darajalarni bildiruvchi so‘zlarni qo‘shib, namunadagidek darajalab yozing.

N a m u n a: *Qurilishlar — ulkan qurilishlar, g‘oyat ulkan qurilishlar.*

Bayram, taassurotlar, ko‘prik, liboslar, shahar, mahalla, inson, bola, ustoz, o‘quvchi, maslahat, daraxt.

**5- mashq.** Matnni o‘qing. Sifatlarni aniqlab, ma‘nosini tushuntiring.

### Farosatlilik va farosatsizlik

Farosatlilik va farosatsizlikni ko‘chada ham, kattalar bilan muomalada ham, o‘qishga, ishga munosabatda ham, kiyinish, yurish-turishda ham uchratish mumkin. Farosatli kishilar hushyor, ziyrak, atrofdagilarga e‘tiborli, xushmuomala bo‘ladilar. Ular birovning dilini og‘ritmaydilar. Farosatsiz insonlar esa be-

fahmlik bilan ish yuritadilar. Katta va kichikni farqlamaydilar. Farosatlilik kishilarda hurmat-eh-tirom, mehr-oqibat, iliqlik, yaxshi kayfiyat, ishonch kabi tuygʻularni uygʻotadi. Farosatsizlik esa boshqalarga nisbatan gʻazab-nafrat, shubha-gumon paydo qiladi.

**shubha-gumon** — сомнение  
**farosatli** — сообразительный  
**xushmuomala** — вежливый  
**mehr-oqibat** — милосердие  
**kayfiyat** — настроение

**bahs-munozara** — спор, дискуссия

**farosatsizlik** — несообразительность

**hurmat-eh-tirom** — уважение  
**tuygʻu** — чувство  
**munosabat** — отношение  
**iliqlik** — теплота  
**ishonch** — доверие

**6- mashq.** Matndan avval yaxshi xulqqa oid fazilatlar-ni, soʻngra yomon xulqqa oid odatlarni koʻchirib yozing.

### Yaxshi xulq — yaxshi husn

Yaxshilikning katta-kichigi boʻlmaydi. Bir odamga ochiq chehra bilan muomala qilish, keksalarni koʻchaning narigi betiga oʻtkazib qoʻyish, jamoat transportlarida ularga joy boʻshatib berish ham insoniy fazilatlaridir. Bir ogʻiz shirin soʻz kishiga qanchalik xursandchilik bagʻishlasa, nooʻrin aytilgan sovuq gap odamning dilini shunchalik vayron qiladi. Kishi qaysi kasb egasi yoki qanday yoshda boʻlishidan qatʻi nazar, odamlar bilan yaxshi munosabatda boʻla olmasa, u kasbini ham, qadrini ham yoʻqotadi. Odam samimiyligi bilan obroʻ topadi. Oʻylamasdan aytilgan soʻzlar, quruq vaʼdalar kishi obroʻsini ketkizadi. Xushmuomala boʻlish madaniyatlilik belgisidir.

(Shukrullo)

**2- topshiriq.** Matnlarni oʻqing. Har biriga oʻz munosabatingizni bildirgan holda berilgan savollarga javob bering.

1. Nozima avtobusda oʻtirib ketayotgan edi. Bekatdan bir kishi avtobusga chiqdi. Nozima u kishiga joy berdi va oʻzi oʻrtogʻi Munisaning yoniga borib turdi. Shunda Munisa sekingina Nozimadan soʻradi: „Nega joy berding, oʻqituvchingmi?“

*Ayting-chi, Munisa kimlarga joy berish kerak deb oʻylar ekan?*



2. Bahrom sirk binosi oldiga kelgandagina chiptani uyda unutib qoldirganini bildi. U shosha-pisha yana iziga qaytdi. Avval metroga, so'ng avtobusga chiqib, uyiga borib keldi. Ayting-chi, bu parixonxotirlik Bahromga qanchaga tushdi?

*Sizningcha, parixonxotirlik nimaning oqibati?*



**Uyga vazifa.** Insoniy fazilatlarga misollar keltiring.

## 2- DARS

**7- mashq.** Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning tuzilishiga va imlosiga e'tibor bering.

### Kamtarlik

Kamtarlik insonga xos eng go'zal fazilatlardan biridir. Kamtar deganda ko'z oldimizda **mehnatsevar, xushmuomala, xushfe'l, kamgap, shirinso'z, rostgo'y** kishi namoyon bo'ladi. Kamtar inson katta-kichikni doimo hurmat qiladi. U oddiy va ozoda kiyinadi, ortiqcha pardoz-andozlarga berilmaydi. Kamtar kishi **odobli, yaxshi xulqli** bo'ladi. Ota-onasi, qarindosh-urug'lari, do'st-birodarlari bilan suhbatlashganda, bahs-munozaralarda hech qachon qo'pollik qilmaydi. Shuning uchun xalq orasida doimo obro'-e'tiborga ega bo'ladi.

**8- mashq.** Berilgan so'zlarni ijobiy fazilatlar va salbiy odatlarni ifodalovchi 2 guruhga ajrating va namunadagidek darajalab yozing.

Namuna: **Ijobiy fazilatlar**

*mehribon — juda mehribon*

**Salbiy odatlar**

*xasis — o'ta xasis*

Farosatli, dangasa, yolg'onchi, xushmuomala, loqayd, ti-rishqoq, maqtanchoq, mehnatsevar, qo'rqoq, rostgo'y.

### Bilib oling!



**ser-, no-, be-, ba-** qo'shimchalari asosdan oldin qo'shilib keladi. Ular ko'pincha **-li, -siz, -dor** qo'shimchalariga ma'nodosh va zid ma'nolarni ifodalab keladi.

### Ma'nodosh

berahm — rahmsiz  
gulli — guldor

### Zid ma'noli

xabardor — bexabar  
odobli — beodob

**9- mashq.** Berilgan sifatlarni qo'shimchalarning qo'shilish o'rniga ko'ra 2 guruhga ajratib yozing.

Serunum, xushmuomala, bemaza, sergap, ma'noli, mevali, baquvvat, shirali, basavlat, xushmanzara, tartibsiz, serharakat, bexabar, noqulay, suvsiz, serhosil, noto'g'ri, noma'lum, xush-xabar, xushovoz, beg'ubor, badavlat, sersuv, xabardor, quv-vatsiz.

**10- mashq.** Berilgan so'zlarni tub va yasama sifatlarga ajrating. So'ngra ularning zid ma'nolisini topib, namunadagidek juftlab yozing.

Namuna: **1. Tub sifatlar:** yaxshi-yomon, ... .  
**2. Yasama sifatlar:** ma'noli-ma'nosiz, ... .

Aqlli, yoqimli, odobli, shirin, yengil, kuchli, yaxshi, oq, katta, erta, yosh, baland, yolg'onchi, novcha, maqtanchoq, mehnatkash, yangi, uzun, semiz, egri, mazali, yumshoq, oz, mayda, issiq, do'st, saxiy.

**3- topshiriq.** Matnlarni o'qing va munosabatingizni bildiring.

1. Yo'lda opa-uka — Lola va Anvar borishardi. Ulardan oldinda esa bir kampir borardi. Kampir yo'lda karmonchasini tushirib qo'ydi. Anvar buni ko'rib qoldi va engashib karmonni oldi-da, kampirga olib bordi:

— Buvi, karmonchangizni oling, — dedi.

Kampir karmonni olib cho'ntagiga soldi va yo'lida davom etdi. Anvar orqasiga qaytib opasiga: „Nega u rahmat demadi?“ — dedi.

*O'ylab ko'ring-chi, nima uchun kampir Anvarga rahmat demadi?*

2. Saxiy bir podshoh bor edi. Uning bir quli bor bo'lib, u podshohga sidqidildan xizmat qilar edi. Bir kuni podshoh bazm

beribdi. Ovqat tortish vaqtida xizmatchi toshga qoqilib ketibdi va issiq ovqatni podshohning boshiga to‘kib yuboribdi. Odamlar: „Podshoh endi uni o‘ldiradi. U og‘ir gunoh qildi“, deb o‘ylashibdi.

Podshoh esa shunday ish tutibdi:

1. *Siznigcha, podshoh qanday yo‘l tutgan?*
2. *Siz nima qilgan bo‘lar edingiz?*

**4- topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

### Yaxshilikni o‘rgating

Yomonlik qanday bo‘lar,  
Bobo, menga taniting.  
Istayman, qariganda  
Bu badbaxtni unuting.

Sheryurak ajdodlarim  
Qilichin olib qo‘lga,  
Yomonlikni bir yo‘la  
Qilayin tilka-tilka.

Yaxshilik qanday bo‘lar,  
Bobo, menga ko‘rsating.  
Ezgu ishlar qilishni  
Bir boshidan o‘rgating.

Ezguliklar urug‘in  
Yuraklarda ko‘kartsam,  
Odamlarning baxtiga  
Yaxshilikni ko‘paytsam.

(*Qambar Ota*)



**Uyga vazifa.** She’rni yod oling.

### 3- DARS

**5- topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing.

— Durдона, kecha menga dadam „Donolar bisotidan“ kitobini olib keldilar. Menga bu kitob juda yoqdi.

— Kitobda maqollar berilgan bo‘lsa kerak?

— Bu kitobda maqollardan tashqari, donolarning fikrlari, buyuk allomalar hayotidan ibratli hikoyalar ham bor ekan. Insho yozishda shu fikrlardan foydalansa bo‘ladi.

— Maktabimizda Alisher Navoiyning tavallud kuniga ba-

g'ishlab o'tkaziladigan mushoirada shu kitobingdan foydalansa bo'ladimi?

— Yaxshi eslatding, men ertaga kitobimni olib kelaman. Hammamiz birgalikda ko'rib chiqamiz.

### ***Bilib oling!***



**-ma, -choq, -q, -iq, -qoq, -gir, -kir** qo'shimchalari fe'ldan sifat yasaydi. Masalan: *qaynatma, tortinchoq, qaynoq, siniq, urishqoq, sezgir, o'tkir*.

**11- mashq.** Avval otdan yasalgan, so'ngra fe'ldan yasalgan sifatlarni ko'chirib yozing, sifat yasovchi qo'shimchalarni ko'rsating.

Aqli, dongdor, chiroyli, mazali, sezgir, mazmunli, qochoq, talabchan, gulsiz, ishchan, qo'rqqoq, yaltiroq, saxovatli.

**12- mashq.** Nuqtalar o'rniga asosga mos sifat yasovchi qo'shimchalarni qo'shib gaplarni ko'chiring.

1. Odob... bola elga manzur. 2. Reja... ish samara... bo'ladi. 3. Do'st... boshim, tuz... oshim. 4. Anvar juda harakat..., tirish... bola. 5. Maktabga gul... kiyimlar kiyib borilmaydi. 6. Yo'ning ikki tomoniga meva... va manzara... daraxtlar ekilgan. 7. Gazetalarda foyda... maslahatlar berib boriladi. 8. Usti yaltiro..., ichi qaltiro....

**13- mashq.** Birinchi ustundagi maqollarning davomini ikkinchi ustundan topib yozing.

To'g'ri bo'lsang,	kulfat seni chetlab o'tadi.
Boshqalarga yordam bersang,	olam seniki.
Yaxshi so'z eshitmoqchi bo'lsang,	o'sib borib gul bo'lasan.
Egri bo'lsang,	hech kimga dushmanlik qilma.
Olim bo'lsang,	yomon gap aytma.
Agar do'stim ko'p bo'lsin desang,	o'sib borib kul bo'lasan.

**6- topshiriq.** Berilgan birikmalardan foydalanib, savollarga javob bering.

1. Qanday inson xalq orasida obro‘ga ega bo‘ladi?

- yolg‘on gapirmaydigan;
- kamtar bo‘lgan;
- bergan va‘dasining ustidan chiqadigan;
- qo‘pol va manman bo‘lmagan.

2. Yaxshi o‘quvchi qanday bo‘ladi?

- kattalarni hurmat qiladigan;
- bilim olishga qiziqadigan;
- topshiriqlarni vaqtida bajaradigan;
- o‘rtoqlariga yordam beradigan.

*Siz bular qatoriga yana nimalarni qo‘shgan bo‘lar edingiz?*



### Adabiy o‘qish

### Shirin qanday qiz?

Shirin maktabdan keldi. Qarasa, uyda hech kim yo‘q. Dadasi ishda. Oyisi ham hali ishdan kelmabdi. U xonaga kirib, kiyimlarini almashtirib chiqdi.

„Nima ish qilsam ekan-a?“ dedi o‘ziga o‘zi. Hamma yoqda ukasining o‘yinchoqlari sochilib yotardi.

„Uylarni yig‘ishtirib, tozalab chiqsammikan?“ — xayolidan o‘tkazdi Shirin. Ammo shu payt qorni ochib qolganini payqadi. Oshxonaga kirib, nonga saryog‘ surtib yeya boshladi. Termosdagi issiq choydan piyolaga quyib, murabbo bilan ichar ekan, yuvuqsiz idish-tovoqlarga ko‘zi tushdi. Ertalab o‘zi choy ichgach, „Maktabga kech qolaman“, deb yuvmasdan qoldirib ketgan edi. — „Hozir choyimni ichib bo‘lgach, oshxonani tartibga keltirib qo‘yaman“, deb o‘yladi.

„Yoki yaxshisi, biror ovqat qilib tursammikan-a?“ — dedi birozdan keyin ikkilanib, — „onam ham ishdan kelib, rosa sevinardilar“.

„Yo‘q, avval idish-tovoqlarni yuvib, uylarni tozalab, keyin ovqatga unnayman“, degan qarorga keldi. U choyini ichib bo‘lgach, qorni to‘yib, erinibgina o‘rnidan turdi. Endi unga uy tozalash ham, idish-tovoqlarni yuvish ham yoqmay qolgandi.

„Ee, — dedi yana o‘ziga o‘zi. — Ovqat qachon pishadi? Onam o‘zlari kelsalar, tezroq va shirinroq qiladilar. O‘shanda yuvarman idishlarni ham“, deb o‘yladi.

Shirin nima qilishini bilmay, mehmonxonaga kirdi. Shu payt ko‘zi televizorga tushdi. „Topdim, — dedi sevinib. — Yaxshisi, multfilm ko‘rib turaman“.

U televizorning tugmasini bosib, uning ro‘parasidagi kresloga o‘zini tashladi.

(Yoqutxon Rahimova)

**xayol** — представление

**payqamoq** — заметить

**erinmoq** — лениться

**murabbo** — варенье

**sevinmoq** — радоваться

**qorni ochib qolmoq** — стать голодным

**ovqatga unnamoq** — приступать к приготовлению пищи

**qaror** — решение

**yuvuqsiz** — немыйтый

**yoyilib yotmoq** — разбросать

**kech qolmoq** — опоздать

**ro‘para** — напротив



### *Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:*

1. Insoniy fazilatlarga qanday xislatlarni kiritish mumkin?
2. Do‘stingizdagi yaxshi fazilatlarni aytib, uni ta’riflang.
3. „Kamtarga kamol, manmanga zavol“ ma’qolining mazmunini tushuntiring.



**Uyga vazifa.** Shirin to‘g‘ri ish qildimi? Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lardingiz? O‘z munosabat-ingizni bildiring.

## O‘ZBEKISTON TOG‘LARI

(O‘rin va payt ma’nosini bildiruvchi sifatlar, ularning yasalishi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Berilgan rasm va savollar asosida O‘zbekiston tabiati haqida suhbatlashing.

- O‘zbekistonda qanday tog‘lar bor?
- Tog‘larda qanday o‘simliklar o‘sadi?
- Tog‘oldi mintaqalarida qanday o‘simliklar o‘sadi?
- O‘simliklardan qanday maqsadlarda foydalaniladi?

**1- mashq.** Matnni o‘qing va so‘zlab bering.

### O‘zbekiston tog‘lari

O‘zbekiston hududida g‘arbiy Tyanshan va Pomir-Oloy tog‘ tizmalari joylashgan. Bular Ugom, Piskom, Chatqol, Qurama tog‘lari hamda Zarafshon, Hisor, Boysun, Nurota tog‘lari bo‘lib, ular respublikamiz hududining beshdan bir qismini tashkil etadi. Tog‘larning balandligi har xil, yonbag‘irlari tik, tog‘lardagi eng baland cho‘qqi — 4643 metr. Tog‘ oldilarida keng adirlar, xushmanzara daralar bor. Tog‘lar oraliqida katta va keng vodiylar ham yuzaga kelgan bo‘lib, bular orasida Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg‘ona vodiylari alohida ajralib turadi. Tog‘ yonbag‘irlarida archa, do‘lana, bodom, tog‘olcha kabi daraxtlar,

shifobaxsh o‘simliklar o‘sadi. Zomin, Chimyon, Chatqol, Boy-sun tog‘larida tog‘ echkilari, bo‘ri, ayiq kabi yovvoyi hayvonlar yashaydi. Bu hayvonlarni asrash uchun maxsus qo‘riqxonalar ham tashkil etilgan.

### ***Bilib oling!***



**-lik, -iy, -viy** qo‘shimchalari o‘rin-joy va payt ma’nosini, **-gi, -ki** qo‘shimchalari payt ma’nosini bildiruvchi sifatlarni yasaydi. Masalan:

#### **O‘rin ma’nosini bildiruvchi sifatlari**

tog‘**lik** yigit  
qish**ki** ta‘til

#### **Payt ma’nosini bildiruvchi sifatlari**

kuz**gi** hosil  
bugun**gi** voqea

**2- mashq.** Berilgan sifatlarni o‘rin va payt ma’nosini ifodalashiga ko‘ra 2 guruhga ajratib yozing.

1. Men „Tog‘lik kuyov“ filmini sevib tomosha qilaman.
2. Til bayrami devoriy gazetada yoritildi.
3. Anjumanda olimlar ilmiy ma‘ruzalari bilan qatnashdilar.
4. Kuzgi ta‘tilda olimpiadalar boshlanadi.
5. Forumda chet ellik mehmonlar ishtirok etishdi.
6. Tarixiy asarlarni o‘qishni yoqtiraman.

**3- mashq.** **-gi, -ki, -lik, -iy, -viy** sifati yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘shib, sifatlarni yasang va namunadagidek yozing.

Namuna: *yoz — yozgi.*

shahar, ilm, tarbiya, qish, omma.

**2- topshiriq.** O‘qing. Matnda nomlari keltirilgan o‘simliklar qayerlarda o‘shishini ayting.

### **Zomin taassurotlari**

Bu yil yozgi ta‘til vaqtida kursdoshlarimiz bilan dam olgani Zominga bordik. Daryo yoqalab sharshara tomon ko‘tarilar ekanmiz, dorivor o‘tlarni terib yurgan bolalarni uchratdik.



- Nima teryapsizlar? — deb so‘radik ulardan.
- Mana bu — momaqaymoq bo‘ladi, — dedi bolalarning biri.
- Bu esa qora o‘t, — dedi ikkinchisi.
- Ular nimaga ishlatiladi? — deb so‘radim.
- Bosh og‘rig‘iga, yara-chaqa, ko‘z og‘rig‘iga, — deya ishlarini davom ettirishdi bolalar.

Bolalarning ishlarini biroz kuzatib turdik. Ular har bir g‘iyohni avaylab, mehr bilan ushlab, barglarini ehtiyotkorlik bilan terar va paketlarga joylar edilar.

Yalanglikda tog‘rayhon, yalpiz va boshqa o‘simliklarning hidlari gurkirab turardi. Go‘yo tabiat bizga o‘zining sirli dunyosidan bir parchasini ko‘rsatib, „Siz hali meni yaxshi bilmaysiz“, deyayotgandek tuyildi.

(O. Nizomova. „Xotiralar“dan)



**Uyga vazifa.** O‘zbekistondagi tog‘lar haqida ma‘lumot to‘plang.

## 2- DARS

**4- mashq.** Matnni o‘qing. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering va savollarga javob bering.

### O‘zbekistonning hayvonot dunyosi

XIX asrning ikkinchi yarmida G‘arbiy Tyanshan tog‘larida, O‘zbekiston janubidagi Bobotog‘, Ko‘hitang, Boysun, Hisor tog‘lari etaklarida hozir deyarli yo‘q bo‘lib ketgan **qoplon, yo‘lbars, tog‘ qo‘yi, qizil bo‘ri, Tyanshan oq tirnoqli ayig‘i, Qizilqum qo‘ylari** va boshqa ko‘p hayvon turlari bor edi. Ekologiya-ning yomonlashuvi va insonning tabiatga qo‘pol munosabati oqibatida ularning turi va soni keskin kamaydi. **Turon yo‘lbarsi, qizil tulki** va boshqa noyob hayvonlar butunlay yo‘qolib ketdi. O‘rta Osiyo va G‘arbiy Osiyoda yashovchi **qoplon, olachipor bo‘g‘ma ilon, qora laylak, ko‘zoynakli ilon (kobra), uzun dumli burgut, oq-qush** va boshqalar yo‘qolish arafasidadir. Bulardan tashqari, **Ust-**

**yurt qo‘chqori, burama shoxli qo‘y, suvsar, olachipor kaltakesak** va boshqa ayrim hayvonlarning ham yo‘qolib ketish xavfi bor.

(„O‘zbekiston Respublikasi“ ensiklopedik ma’lumotnomasidan)



### Savollar:

1. Ushbu noyob hayvonlar yo‘qolib ketmasligi uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rilyapti?
2. Sizningcha, hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun yana nimalar qilish kerak?

### Bilib oling!



Sifatlar birikmali bo‘lishi ham mumkin. Masalan: *oq tirnoqli ayiq, ko‘zoynakli ilon, burama shoxli qo‘y, ikki o‘rkachli tuya.*

**5- mashq.** Savollarga javob bergan holda matnni davom ettiring.

Biz do‘lana tergani tog‘ yonbag‘ridan yuqoriga ko‘tarila boshladik. Do‘lana pishig‘ida tog‘da bo‘lganmisiz? Tog‘ xalqi do‘lana pishig‘ini kutadi. Do‘lana tog‘ning eng baland cho‘qqisiga birinchi qor tushgandan so‘ng pishadi. Ana shu paytda tog‘liklar do‘lana tergani tog‘ga chiqadilar. ...

1. Siz do‘lanani yoqtirasizmi?
2. Do‘lananing ko‘rinishi, maza-ta‘mi qanday?
3. Do‘lana qayerda o‘sar ekan?
4. U nimalarga davo bo‘ladi?

**6- mashq.** Berilgan sifatlar ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.

Foydali, saxovatli, bexabar, ishchan, kumushsimon, shifobaxsh, sezgir, salobatli, tortinchoq, ko‘chma, tonggi.

**3- topshiriq.** Berilgan matnlardan foydalanib, jadvalni to‘ldiring.

O'zbekistondagi tog'larning nomlari	O'zbekiston hududidagi mavjud hayvonlar	O'zbekiston hududidagi mavjud qushlar



**Uyga vazifa.** O'zbekistonning hayvonot dunyosi haqida so'zlab bering.

### 3- DARS

**4- topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing. Tog'da yashaydigan hayvonlar haqida so'zlab bering.



**Bahrom:** Do'stim, sen Zominga borganmisan?

**Sarvar:** Ha, yozda oilamiz bilan u yerda dam oldik.

**Bahrom:** Zominda archalar ko'pmi?

**Sarvar:** „Zomin“ sihatgohining atrofi baland tog'lar va archazor o'rmonlardan iborat. Aytishlaricha, Zominda dunyoda mavjud archalarning 70 foizi bor ekan.

**Bahrom:** Eshitishimcha, Zominda ayiqlar bor emish. Shu gap rostmi?

**Sarvar:** Ha. Biz turgan sihatgohda ham, yo'llarda ham „O'rmonga kirmang, ayiqlar bor“, degan yozuvni ko'p uchratdim. Lekin o'zim ayiqni ko'rmadim. Ammo burgutlar va lochinlarni, tog' echkilarini, ot va eshaklarni ko'p uchratdim.

**Bahrom:** Men ham yovvoyi tabiatni o'z ko'zim bilan ko'rishni juda-juda istayman.

**7- mashq.** Matnni o'qing. O'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozing va ma'nolarini tushuntiring.

Ugom tog' tizmalarida Oqtosh tog'i alohida o'rin tutadi. Bu yerda „Oqtosh“ sihatgohi, „Oqtosh-shabada“ dam olish maskani, „Quyoshli“ bolalar oromgohi joylashgan. Oromgohlarda dam oluvchilar har kuni erta tongda tog' yonbag'riga chiqib, quyoshning chiqishini tomosha qiladilar. Tonggi tog' havosidan

to‘yib-to‘yib nafas oladilar. Saharda esadigan shabada tog‘ tizmalarida o‘sadigan archalar, turli giyohlarning hidini dimog‘ga olib keladi. Aynan shu hidlarning nafas yo‘li kasalligi bilan og‘rigan ko‘pchilik bemorlarga shifobaxsh ta‘siri katta. Shuning uchun Oqtoshga bir yil chiqib dam olganlar keyingi yil ham, albatta, keladilar. Oqtosh — oilaviy sihatgoh hisoblanadi.

**5- topshiriq.** Berilgan so‘zlarni namunadagidek 2 guruhga ajratib yozing.

N a m u n a : **Tog‘ o‘simliklari**

*do‘lana*

**Tog‘ hayvonlari**

*ayiq*

Archa, do‘lana, echki, ayiq, olma, bodom, kiyik, zira, xandonpista, shoxdor qo‘y.

**8- mashq.** Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan sifatlardan mosini qo‘ying va gaplarni mantiqiy bog‘lab matnga aylantiring.

1. Tog‘larda o‘sadigan ... giyohlar, ... o‘simliklardan dori-darmonlar tayyorlanadi. 2. Yozda dam olish uchun ... hududlarga bordik. 3. Tog‘lar ... yolg‘izoyoq yo‘llardan faqat ... echkilargina yura oladi. 4. ... giyohlardan tayyorlangan dorilar inson organizmi uchun ... hisoblanadi. 5. Tog‘ aholisi ... o‘simliklar nimaga shifo bo‘lishini yaxshi biladi. 6. Tog‘da yashovchilar ... giyohlarni terib olib keladilar. 7. Uzoqdan ... tog‘lar uchidagi ... qorlar yaltirab ko‘rinib turardi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *tog‘li, dorivor, shifobaxsh, oppoq, turli yovvoyi, bezarar, orasidagi, baland.*



**Adabiy o‘qish**

## Qushlar shohi

Qushlar shohi — burgut to‘g‘risida xalqimizda ko‘p rivoyatlar bor. Kuz kunlarining birida Qashqadaryoning Miroqi tog‘i etaklarida o‘lib yotgan burgutni ko‘rdik. Yaqinroq borib qarasak,

burgutning zo‘riqib chaqchaygan ko‘zlari nursiz, bo‘yniga esa ilon chirmashib yotibdi. Toshga kelib urilganidan bo‘lsa kerak, bir qanoti ezilgan. Ilonning boshi ham majaqlanib ketibdi. Hayron qoldik. Nahotki, burgut ilondan ojizlik qilib halok bo‘lgan bo‘lsa?

Hamrohimiz bu haqda quyidagilarni so‘zlab berdi:

— Burgutlar ilonga o‘ch bo‘lishadi. Burgut ilonni changaliga olib ko‘kka parvoz qilgan paytda, ilon asta-sekin uning bo‘yniga chirmashib, burgutni bo‘g‘a boshlar ekan. Holsizlangan qush bekorga o‘lib ketishni istamay, o‘zini zarb bilan qoyaga yoki toshga urib, o‘zini ham, raqibini ham halok qilargan ekan.

**Topshiriq:** Hikoyani so‘zlab bering.



**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbekistonda qanday tog‘lar mavjud?
2. Tog‘li mintaqalarda qanday dorivor o‘simliklar o‘sadi?
3. O‘rin va payt ma‘nosini bildiruvchi sifatlar qanday qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
4. Siz oilangiz bilan qaysi oromgohlarda dam olgansiz?



**Uyga vazifa.** Matnlarda keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanib, kataklarni to‘ldiring.



## SHIFOBAXSH O‘SIMLIKLAR

(Qo‘shma, juft va takroriy sifatlarning yasalishi va imlosi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Rasmlarda tasvirlangan o‘simliklar haqida suhbatlashing.

**1- mashq.** Matnni o‘qing. Shifobaxsh o‘simliklar nomlarini va ular qayerda o‘shishini daftaringizga yozib oling.

### O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari

Zomin, Oqtosh, Chimyon tog‘ yonbag‘irlarida dorivor o‘simliklar ko‘p. Ular orasida archa, kiyiko‘t, rovoch, shovul shifobaxsh efir moyli o‘simliklar hisoblanadi. Tog‘ yonbag‘irlarida do‘lanazor, pistazor, olchazor, olmazor, jiydazorlar ko‘p. Bobotog‘da pistazorlar, G‘arbiy Tyanshanda qayinzorlar bor. Chirchiq daryosi bo‘ylarida dorivor hisoblanuvchi Piskom piyozi o‘sadi. Jiydazorlar, asosan, Hisor tog‘lari etaklarida uchraydi. Hozirgi paytda archazorlarning asosiy qismi Zomin tog‘larida saqlanib qolgan. Shveysariyaning jahondagi eng go‘zal va sog‘liq uchun foydali dam olish maskanlarida archalarning 28 turi mavjud bo‘lib, ularning teng yarmi, ya‘ni 14 xili Zomin tog‘larida ham o‘sadi.

(„O‘zbekiston Respublikasi“ ensiklopedik ma‘lumotnomasidan)

## **Bilib oling!**



Sifatlar tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma bo‘ladi.  
Masalan:

### **Sodda sifatlar**

katta  
chiroyli  
tortinchoq  
intizomli

### **Qo‘shma sifatlar**

havorang  
qimmatbaho  
tinchliksevar  
jonkuyar

**2- mashq.** Maqollarni o‘qing, sifatlarni aniqlab, ma’nosini tushuntiring.

1. Yaxshi-yomon so‘zning boshi — til. 2. Yaxshi topib gapirar, yomon qopib. 3. To‘g‘ri — o‘zar, egri — to‘zar. 4. Shirin yolg‘ondan achchiq haqiqat yaxshi. 5. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz — do‘stini. 6. Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka — izzatda. 7. Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘.

**3- mashq.** Avval sodda sifatlarni, so‘ng qo‘shma sifatlarni ajratib yozing. So‘ngra qo‘shma sifatlar ishtirokida 5 ta gap tuzing.

### **Sodda sifatlar:**

### **Qo‘shma sifatlar:**

Sofdil, aqlli, shifobaxsh, ishchan, foydali, mayin, ertapishar, tezoqar, havorang, ishyoqmas, harakatchan, baland.

**4- mashq.** She‘rlarni o‘qing. Har bir o‘simlikning shifobaxsh xususiyatlarini daftaringizga namunadagi kabi raqamlab yozib chiqing.

Namuna: *Ismaloq quyidagilarga davo bo‘ladi:*

1. *Qorinni dam qilmaydi.* 2. ...

### **Ismaloq**

Hakimlar so‘zidan, aytay, ismaloq  
Qorinni damlatmas undan yegan chog‘.  
O‘pka, yurak undan kuch-quvvat olar,  
Halqum, o‘pka yo‘li qurisa agar.



Bel og‘riqqa agar sabab bo‘lsa qon,  
Birinchi o‘rinda ho‘l sovuq bo‘lar.  
Foydadir, ichni ham yumshatar har on,  
Yog‘ bilan yeyilsa, uni yo‘qotar.

### Sarimsoq



Sarimsoqman, sarimsoq,  
Doim mening tanim sog‘.  
Sal hidi bor demasang,  
Ko‘p emas, oz-oz yesang,  
Go‘yoki suv, havoman,  
Ming bir dardga davoman.

(Eson Rahimov)



**Uyga vazifa.** O‘zbekistondagi shifobaxsh o‘simliklarning nomlarini yozing va ular haqida ma‘lumot bering.

## 2- DARS

**5- mashq.** Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

Vodiyda shifobaxsh o‘simliklar juda ko‘p. Ulardan hamma sohada — sanoatda, tabobatda foydalaniladi. Mutaxassis olimlarning fikricha, o‘simliklardan olinadigan dori-darmonlar, oziq moddalar sun‘iylariga qaraganda katta afzalliklarga ega. Ona zaminda o‘sadigan **mevali**, manzarali **daraxtlar**, o‘simliklar hayot uchun, **inson salomatligi** uchun nihoyatda zarur. Ilgari odamlar tabiat in‘omi bo‘lgan **mevalarni**, **giyohlarni** shundayligicha iste‘mol qilganlar. Keyinchalik esa shifobaxsh o‘simliklar astoydil o‘rganildi. Ular turlarga ajratildi, o‘zgartirildi, qayta-qayta tiklandi. Hozirgi kunda giyohlar va oddiy daraxtlar guli, bargi, ildizidan turli-tuman dori-darmonlar tayyorlanadi.

### Bilib oling!



Sifatlar ham tuzilishiga ko‘ra juft va takroriy bo‘ladi. Ular chiziqcha bilan yoziladi.



### Juft sifatlar

baland-past  
oq-qora  
qing'ir-qiyshiq

### Takroriy sifatlar

shirin-shirin  
issiq-issiq  
baland-baland

**6- mashq.** Berilgan so'zlarni imlo qoidalari asosida yozing.

Xush/surat, baland/past, mehnat/sevar, shirin/shirin, ach-chiq/chuchuk, xush/muomala, soya/salqin, kam/ko'st, kam/gap, to'la/to'kis, kul/rang, qimmat/baho, ish/yoqmas, dori/vor, yo'l/yo'l, sog'/salomat.

**7- mashq.** Berilgan juft va takroriy sifatlar ishtirokida so'z birikmalari tuzing va ma'nolarini izohlang.

Baland-past, mayda-chuyda, uzun-qisqa, pishiq-puxta, katta-kichik, shirin-shakar.

Shirin-shirin, yirik-yirik, uzun-uzun, katta-katta, baland-baland, mayda-mayda.

**2- topshiriq.** Topishmoqlarga rasmlar to'g'ri qo'yilganmi?

Bargin uzma, sut oqar,  
Pishsa ta'mi xush yoqar.  
Qora, sariq, noksimon  
Qaysi meva top, Omon?



Ildizi qoziq,  
Hosili oziq.  
Bargi ko'p bo'lar,  
Pishsa to'p bo'lar.



Qaysi meva may oyida  
Gulga kirar, Sojida?  
To'ni qizil, ichi un,  
Totli meva, bu — ... .



Qizil, sariq, qoziqlarim,  
Ular mening oziqlarim.

Tig‘ tegsa qon chiqadi,  
Po‘choq ketsa don chiqadi.



**Uyga vazifa.** Shifobaxsh o‘simliklar haqidagi ma’lumotlardan foydalanib, quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Shifobaxsh o‘simlik nomi	Rasmi	Qaysi kasallikka davobo‘ladi?

### 3- DARS

**3- topshiriq.** O‘qing. O‘simliklar haqidagi foydali ma’lumotlarni bilib oling.

Tutatilgan isiriq hidi zararli mikroblarni o‘ldirish xususiyatiga ega. U gripp va boshqa yuqumli kasalliklarning oldini oladi.

Bir tup qora qayin 1 soatda 1 kg 700 gramm kislorod ishlab chiqaradi. Bu 64 kishining kislorodga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi.

Jiyda oziqa manbayi hamda o‘tkir hidli dorivor o‘simlikdir. Jiydasiz bog‘lardagi daraxtlar turli kasalliklarga chalinib nobud bo‘ladi. Shuning uchun jiydani sanitar daraxt deyishadi.

**8- mashq.** Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan sifatlardan mosini qo‘yib yozing.

1. ... tog‘larni ko‘rsang, bahri diling ochiladi. 2. Tog‘lardagi ... so‘qmoq yo‘llardan yurish oson emas. 3. ... hududlarda do‘lana, pista, bodom kabi daraxtlar o‘sadi. 4. Keksalar tog‘lardagi ... o‘simliklardan ... dori tayyorlashni bilishadi. 5. Men ... hikoyalar yozib turaman. 6. Ilgarigi ... ko‘chalar o‘rniga ... ko‘chalar, ... ko‘priklar barpo etildi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *tog‘li, mustahkam, kichik-kichik, qing‘ir-qiyshiq, shifobaxsh, baland-baland, turli-tuman, egri-bugri, keng.*

**9- mashq.** Matnni o‘qing. Matnda ajratib ko‘rsatilgan o‘simliklar nomlarini daftaringizga ko‘chiring.

### O‘zbekistonning o‘simlik dunyosi

Respublikamiz hududida o‘simliklarning 3700 dan ziyod turi o‘sadi. Ulardan 20 foizi mahalliy o‘simliklar bo‘lib, boshqa joylarda uchramaydi. O‘simliklarning ko‘p qismi tog‘larda o‘sadi. Dasht, cho‘l o‘simliklari orasida butalar, daryolarning bo‘ylaridagi vodiylarda esa daraxtzor ko‘p bo‘ladi. Tog‘oldi tekisliklarida o‘t o‘simliklar ko‘proq bo‘lib, lola, rovoch, gulsapsar, boychechak, momaqaymoq, kiyiko‘t, yovvoyi piyozning har xil turlari o‘sadi. Butasimon o‘simliklardan qiziltikan, kiyikpanja, zirk, na‘matak kabilar ko‘p bo‘ladi. Tog‘ yonbag‘irlarida archa, bodom, pista, yong‘oq, tog‘olcha, yovvoyi olma daraxtlari o‘sadi.

**buta** — кустарник, ро́ща  
**rovoch** — ре́вень  
**boychechak** — подснежник  
**momaqaymoq** — одуванчик

**mahalliy** — местный  
**bodom** — миндаль  
**tog‘olcha** — алыча  
**dasht** — степь

**10- mashq.** Mashqlarda berilgan matnlardan foydalanib, jadvalni to‘ldiring.

Tog‘larda o‘sadigan o‘simliklar	Cho‘llarda o‘sadigan o‘simliklar	Vodiylarda o‘sadigan o‘simliklar



### Adabiy o‘qish

#### Nozimaning guli

Nozimaga tug‘ilgan kunida tuvakda gul sovg‘a qilishdi. U gulni avaylab parvarishladi. Tuvakdagi gul kundan kunga bo‘y cho‘zib o‘sdi, lekin gullashidan darak bo‘lmadi.

— Uni tashlab yuborish kerak, — dedi onasi, — na chiroyi, na foydasi bor.

Nozima gulini tashlab yuborgisi kelmadi. Kunlarning birida Nozima kasal bo‘lib qoldi. Nozimani bir qancha shifokorlarga

ko'rsatishsa ham tuzalib ketmadi. Bir kuni shifokorlardan biri Nozimani tekshirib ko'rib shunday dedi:

— Qizingizga bir o'simlik davo bo'lishi mumkin. Lekin uni topish juda mushkul. Bu gulning barglari ko'rimsiz bo'lib, tikanlar bilan qoplangan.

— Oyijon! — dedi Nozima, — axir u mening gulim-ku! Shifokor gulni ko'rib:

— Men ana shu gulni aytayotgan edim. Uning barglarini qaynatib, qizingizga ichirasiz. U tez kunda tuzalib ketadi, — dedi.

— Men esa uni xunuk deb tashlab yubormoqchi edim, — dedi onasi.

Oradan bir necha kun o'tibdi. Gul bargidan tayyorlangan shifobaxsh damlamani ichgan Nozima batamom tuzalib ketibdi.

— Men gulimni nobud bo'lishidan asragandim, u ham menga kasallikdan shifo topishimda yordam berdi, — debdi Nozima.

Shundan keyin onasi ham Nozima bilan birga ushbu shifobaxsh gulni parvarishlab, uni ko'paytirishibdi.

(„Onamning hikoyalari“ kitobidan)

**Topshiriq:** Hikoyani o'qing, mazmunini so'zlab bering.

**parvarishlamoq** — ухаживать

**tekshirmoq** — проверить

**mushkul** — трудный

**nobud bo'lmoq** — здесь: пропадать зря

**bo'y cho'zmoq** — здесь: расти

**ko'rimsiz** — неприятный на вид

**qaynatmoq** — кипятить

**ko'paytirmoq** — умножить

**damlama** — настой



### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Qaysi o'simliklar shifobaxsh o'simliklar hisoblanadi?
2. O'zbekiston hududida qanday shifobaxsh o'simliklar o'sadi?
3. Nima uchun dorivor o'simliklar boshqa dori-darmonlarga qaraganda afzalliklarga ega?
4. Qo'shma va juft sifatlarga misollar keltiring.



**Uyga vazifa.** O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari haqida kichik taqdimot qiling.

## VATANGA SADOQAT

(Ravishlarning yasalishi. Ravish yasovchi qo‘shimchalar imlosi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Rasmni kuzating va tayanch so‘zlar asosida gaplar tuzing.

Tayanch so‘zlar: *O‘zbekiston bayrog‘i, Vatan himoyachilari, jasur va mard, iftixor tuyg‘usi, Vatanga sadoqat.*

**1- mashq.** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

### Vatan tuyg‘usi

Vatan — bu tug‘ilib o‘sgan yurtimiz, tariximiz, madaniyatimiz va elimizdir. Qalbida Vatan tuyg‘usi bor inson Vatanini sevadi. Vatanparvarlik o‘z Vatanini himoya qilish, uni asrab-avaylash yo‘lidagi fidoyilikdir. Vatanparvarlik tuyg‘usini yoshlikdan har bir insonga singdirib borish kerak. Vatan faqat beqiyos boyliklari, go‘zal tabiati va qulay shart-sharoitlari uchun-gina sevilmaydi. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy bu haqda shunday deganlar: „Biz o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq sevganimiz kabi, arablar qumlik, issiq cho‘llarini, eskimoslar

shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda sevarlar. Agar sevmasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z Vatanlarini tashlab ketar edilar“.

### ***Bilib oling!***



Ravishlar fe'lga bog'lanib kelib, uning belgisini bildiradigan so'zlardir. Ravishlar tub va yasama bo'ladi. Masalan:

**tub ravishlar:** *avval, tez, juda, darhol, to'satdan.*

**yasama ravishlar:** *mardona, qahramonlarcha, navbatsiz, yaxshilab.*

**2- mashq.** Berilgan ravishlarni tub va yasama ravishlarga ajratib ko'chiring.

Piyoda, ataylab, ohista, kechqurun, birdan, sekin, do'stona, indin, hozir, taxminan, tiriklayin, qardoshlarcha, tez.

**3- mashq.** Nuqtalar o'rniga harakatning holatini bildiruvchi ravishlarni qo'yib ko'chiring.

1. Biz bu yerga ... keldik. 2. Nozima bu chorakda barcha fanlardan ... harakat qildi. 3. Bobomlar non ushoqlarini ... terib oldilar. 4. Askar eshikni ... ochdi. 5. O'qituvchimiz uyga berilgan vazifani ... so'radi. 6. Bulutlar ham ... pasaya boshladi. 7. Raketa Oyga ... qo'ndirildi.

**4- mashq.** Nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib, matnni ko'chiring.

Har bir inson o'z Vatanini ... sevishi kerak. Vatan ... boshlanadi, degan naql bor. Ularni qadrlamoq ... ham qarz, ham farzdir. Ana shu moddiy ne'matlarni ... asramoq, ularning gullab yashnashi uchun ... xizmat qilish bizning burchimiz. ... sevmoq imondandir.

Foydalanish uchun so'zlar: *chin yurakdan, ostonadan, avaylamoq, Vatanni, biz uchun, fidokorona.*

**2- topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.



**O‘qituvchi:** Vatan deganda nimani tushunasiz?

**Aziz:** Men Vatan deganda o‘z uyimni, oilamni, do‘stlarimni tushunaman.

**Sevara:** Biz tug‘ilgan yurt, uning har bir qarich yeri men uchun Vatan.

**O‘qituvchi:** Vatan oldidagi burch deganda nimani tushunasiz?

**Sardor:** Vatanni sevish, uni asrab-avaylash, unga xizmat qilishni.

**O‘qituvchi:** Vatanga sadoqat, vatanparvarlik nimalarda aks etadi?

— ... .

**3- topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing.

### Farzand bo‘lay munosib

Vatan, mening onamsan,  
Mehring qalbim yo‘rgagi.  
Sen-la hamnafas, hamdam  
Urar jajji yuragim.

Yer-u ko‘k ham mahliyo  
Qalbdagi quyoshingga.  
Qo‘nibdi Humo qushi,  
Yurtim, aziz boshingga.

Baxtli bolaligim bor,  
Deb ayturman jahonga.  
Farzand bo‘lay munosib  
Ozod O‘zbekistonga.

*(Ma’mura Madrahimova)*



**Uyga vazifa.** „Vatanga sadoqat“, „Vatanimga xizmat qilaman“ mavzularidan biriga shior tuzing.

## 2- DARS

**4- topshiriq.** Matnni o‘qing va unga munosabat bildiring.

### „Vatanga qasamyod“ haykali

2010- yil 12- yanvarda Toshkent shahrida „Vatanga qasamyod“ haykali ochildi. U Qurolli kuchlar muzeyi oldidagi „Jasorat“ bog‘ida barpo etilgan. Haykalning balandligi 12 metr bo‘lib, unda egilgan holda Vatanga sodiqligi haqida qasamyod qilayotgan askar siymosi aks etgan. Bu haykal avlodlarga mardlik va matonat ruhini bag‘ishlaydi. Bu haykal chuqur ma’noga ega. Undagi askar xalqini mardlarcha qo‘riqlaydigan sodiq farzand timsolidir.

Mazkur majmua Vatanga sadoqat, mardlik va jasorat madhiyasi hamda el-yurt himoyachisi bo‘lgan fidoyi insonlarga hurmat va ehtirom ramzidir.

(„Ma’naviyat — qalb quyoshi“ ma’lumotnomasidan)

### Bilib oling!



**-larcha, -ona, -an, -cha, -lab** qo‘shimchalari bilan yasalgan ravishlar harakat-holatning qay tarzda bajarilishini bildiradi va **qanday? qay holda?** so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan: *qahramonlarcha, qardoshlarcha, mardona, do‘stona, tasodifan, taxminan, qisqacha, yangicha.*

**5- mashq.** Berilgan so‘zlarga **-larcha, -ona, -an, -cha, -lab** qo‘shimchalaridan mosini qo‘shib yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Harf, vijdon, eski, o‘zbek, fidokor, sharq, oy, bola, daftar, mard, fidokor.

**6- mashq.** Gaplarni ko‘chiring. Tub, yasama ravishlarni ajratib ko‘rsating.

1. Ko‘p tingla, oz so‘zla. 2. Sizga do‘stona maslahatim shuki, kechirimli bo‘ling. 3. O‘zbek milliy akademik drama teatrida „O‘zbekcha raqs“ spektaklini tomosha qildik. 4. To‘satdan harbiy



xizmatdagi akam kirib keldi. 5. Otam fidokorona mehnati uchun munosib taqdirlandi. 6. Tanlovda qatnashish uchun ko‘p kitoblar o‘qib chiqdim. 7. Ko‘chada tasodifan do‘stimni uchratib qoldim. 8. Ko‘p o‘qigan — ko‘p bilar.

**7- mashq.** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### Vatan himoyasi

Yurt himoyasi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk bobolarimizning jasorati biz uchun ibratdir. Jumladan, xorazmlik ulug‘ alloma Najmiddin Kubroning Vatan himoyasi yo‘lidagi qahramonligi xalqimiz xotirasida abadiy yashab kelmoqda. Rivoyat qilishlaricha, Chingizxonga qarshi jangda avliyo bobomiz bayroqni shu qadar mahkam ushlagan ekanlarki, uning o‘limidan keyin shogirdlari hatto kuch bilan ham bayroqni ustozining qo‘lidan ajratib ololmagan ekanlar. Bu Najmiddin Kubro bobomizning qalbidagi Vatanga bo‘lgan mustahkam e‘tiqod belgisi edi. Bu e‘tiqodni hatto o‘lim ham yenga olmadi. Bu e‘tiqod bugungi va kelajak avlodlar uchun chinakam ibratdir.

**5- topshiriq.** Matndan foydalangan holda savollarga javob bering.

1. Biz kimlardan ibrat olishimiz kerak?
2. Xalq qahramoni Najmiddin Kubro kimga qarshi kurashgan?
3. Najmiddin Kubro haqida yana nimalarni bilasiz?



**Uyga vazifa.** Internet materiallaridan foydalanib, xalq qahramonlari haqidagi ma‘lumotlarni yozing.

### 3- DARS

**6- topshiriq.** Matnni rollarga bo‘lib o‘qing va unga munosabat bildiring.

### Jon-u jahonimsan, Vatan!

**Bobom:** „Vatan — qahramonlik va jasorat tufayli mangu barqaror bo‘ladi, ilm va ma‘naviyat bilan kamolga yetadi“, deb qayta-qayta o‘rgatganlar.

**Otam:** „Vatan — botir, yengilmas o‘g‘lonlarni sevadi, haqiqatparvar fuqarolari bilan mag‘rurlik kasb etadi“, deb takror-takror aytganlar.

**Buvim:** „Vatan — mehr-muhabbatda, yaxshilik va imonda. Vatanga xiyonat qilganlar xor bo‘ladilar“, deb har doim ogohlantirganlar.

**Onam:** „Vatan — tinchlik va ahillik tufayli ulug‘vor, bahodir o‘g‘lonlari bilan yengilmasdir“, deya duo qilganlar.

**Do‘stim:** „Vatan — sen bilan mening imonimiz butunligi, yelkadoshligimiz tufayli yanada yuksaladi. Mustaqilligimiz umr-boqiyliigi birdam bo‘lishimizda“, deya da‘vat etadi.

Shuni yana chuqur anglab yetdimki, Vatan mening jonimda ekan. Jondagi Vatan — bu mustaqil O‘zbekiston!

(„Maysalar uyg‘ongan tong“ kitobidan)

### Bilib oling!



Nutqimizda *qasddan, ataylab, atayin, jo‘rttaga* so‘zlari maqsad ma‘nosini, *noiloj, noilojlikdan, chorasizlikdan* so‘zlari esa sabab ma‘nosini ifodalaydi. Ular **nimaga? nima sababdan?** so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan: *Azamat bu ishni atayin bajarmaganini aytdi.* (maqsad) *Aziza noiloj kelishga rozi bo‘ldi.* (sabab)

**8- mashq.** Berilgan gaplarga sabab yoki maqsad ravishlaridan mosini qo‘yib yozing.

1. Bu xabarni ... (ataylab, noiloj) sizga aytmagan edim. 2. U ... (noiloj, jo‘rttaga) uyga qaytishga majbur bo‘ldi. 3. Men bunga ... (qiynalib, chorasizlikdan) rozi bo‘lganman. 4. Dushman ... (qiynalganidan, noiloj) aybiga iqror bo‘ldi. 5. Aziz bu ishni (bekordan bekorga, jo‘rttaga) bajarmadi.

**9- mashq.** Savollarga javob bergan holda gaplarni davom ettiring.

Yeriga, eliga, Vataniga loqayd munosabatda bo‘lish (qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?)

Agar milliy ma‘naviy qadriyatlarimizni ham unutsak, bu (qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?)

Agar biz chegaralarimizni mustahkam qo‘riqlamasak, (natijada nima bo‘lishi mumkin?)



## Adabiy o‘qish

### Vatan

Vatan, sensiz netardim men?

Devonaday ketardim men.

Gulzoridan ayro bulbul

Kabi faryod etardim men.

Onam, dedim, bolang bo‘ldim,

Ko‘ksingda oh, nolang bo‘ldim.

Muhabbating tuyib jondan

Bu dunyoda odam bo‘ldim.

Ko‘z ochib ko‘rganim sensan,

Qizg‘onib yurganim sensan.

Vujudim yo‘q bo‘lib ketar,

Jonim sensan, jonim sensan.

O‘zbekiston, O‘zbekiston,

Baxtinga bo‘l doim omon.

Doim ozod, doim obod

Ko‘rsin seni jumla jahon.

Vatan, sensiz netardim men?

Devonaday ketardim men.

Gulzoridan ayro bulbul

Kabi faryod etardim men.

(Shukur Qurbon)



### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Vatan tuyg‘usi nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Nima uchun Vatanni „Ona-Vatan“ deb ataymiz?
3. Vatan himoyasi yo‘lida jasorat ko‘rsatgan qaysi qahramonlarni bilasiz?



**Uyga vazifa.** She’rni yod oling.

## VATAN SARHADLARI

(Qo'shma va juft ravishlarning yasalishi va imlosi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** O'zbekiston xaritasi asosida suhbatlashing.

**1- mashq.** Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

### O'zbekiston sarhadlari

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoning markaziy qismida, asosan, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi keng maydonni egallagan. O'zbekiston beshta qo'shni davlat — shimoli sharqda Qirg'iziston, shimolda va shimoli g'arbda Qozog'iston, janubi g'arbda Turkmaniston, janubi sharqda Tojikiston, janubda ozroq masofada Afg'oniston bilan chegaradosh. Chegaralarimizning umumiy uzunligi 6221 km. Mamlakatning eng chekka joylari: shimolda — Ustyurt va Orol dengizining g'arbiy qirg'og'i, janubda — Termiz shahri, sharqda — Farg'ona vodiysi. Respublika hududi janubi sharqdan shimoli g'arbiga cho'zilgan va Orol dengizi tomon nishablashib borgan.

(„O'zbekiston Respublikasi“ ensiklopedik ma'lumotnomasidan)

**2- topshiriq.** Savollarga javob bering.

1. O‘zbekiston qayerda joylashgan?
2. Qadimda Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i qanday atalgan?
3. Mamlakatimiz hududida qanday daryolar, cho‘llar va tog‘lar bor?
4. Respublikamizda nechta viloyat va qanday vodiylar bor?

**Bilib oling!**



Ravishlar birdan ortiq asosdan tuzilib, qo‘shma, juft va takroriy bo‘lishi mumkin. Qo‘shma ravishlar, asosan, ikki so‘zdan yasaladi va qo‘shib yoki ajratib yoziladi.

**Qo‘shib yoziladigan ravishlar**

allaqachon  
biryo‘la  
qaytarzda

**Ajratib yoziladigan ravishlar**

har doim  
hamma yoq  
o‘sha yer

**2- mashq.** Berilgan ravishlarni qo‘shib yoki ajratib yozilishiga ko‘ra guruhlariga bo‘lib ko‘chiring.

**Qo‘shib yoziladigan ravishlar:**

**Ajratib yoziladigan ravishlar:**

Bugun, mardona, qo‘qqisdan, bu yoqqa, ertalab, nihoyatda, qahramonlarcha, o‘sha joy, ozgina, hamma yoq, ertaga, ohista, ataylab, o‘tgan yili, birdaniga, uzoq, keyin, piyoda, yuqorida.

**3- mashq.** Birinchi qatorda berilgan so‘zlarga ikkinchi qatordagi so‘zlardan mosini qo‘shib, qo‘shma ravishlar hosil qiling.

1. alla, o‘sha, hamma, bir, bir, hech, shu, har.
2. yoqda, pas, kuni, yerda, qachon, darajada, doim, oz.

**4- mashq.** Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan ravishlardan mosini qo‘ying va imlo qoidalari asosida yozing.

1. Feruza ... ozoda yuradi. 2. Qish keldi, ... oppoq qorga burkandi. 3. ...ni qilma orzu, ...da bor tosh-u tarozi. 4 . Do'stlarim bilan ... uchrashishga kelishib oldik. 5. Maktabda ... darslar boshlangan. 6. ... qushning sayrog'i eshitiladi. 7. ... ozoda, saranjom-sarishta. 8. Kelishingda ... yuklaringni ham olib kel. 9. ... musiqa sadolari eshitiladi.

Foydalanish uchun so'zlar: *allaqachon, hamma yer, shu joy, allaqayerdan, har yoqdan, hamma vaqt, hamma yoq, biryo'la, har yer.*



### Adabiy o'qish

## Movarounnahr

Dunyodagi hamma mamlakat, o'lkaning o'tmishda boshqacha nomi bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan ularning nomlari o'zgarib bugungi holiga kelgan. Lekin xalqlarning yodida yurtning eski nomlari o'chmas iz qoldirgan. Asosan Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan yurtimiz — O'zbekistonning nomi 1924-yildan ma'lum. Ungacha u turli nomlarda atalgan. Shulardan biri arabcha „Movarounnahr“ atamasi bo'lib, u „daryoning narigi tomoni“ ma'nosini bildiradi. Bu yerda daryo deganda Amudaryo nazarda tutilgan. Uning o'ng qirg'og'idagi yerlar o'rta asrlarda shu nom bilan atalgan. Olimlarning fikricha, Movarounnahr, asosan, Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'idagi yerlar bo'lib, shimolda Orol dengizigacha, janubda Pomir tog' etaklarigacha yo'yilgan. Movarounnahrda Samarqand, Buxoro, Termiz va boshqa qadimiy shaharlar joylashgan.

*(Bolalar ensiklopediyasidan)*



**Uyga vazifa.** Vatan haqidagi maqollardan 3 tasini yozing, ma'nosini tushuntiring.

## 2- DARS

**5- mashq.** Maqollarning ikkinchi qismini topib yozing.

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. Oz bo'lsa ham soz. Izzat tilasang, kam de. Olim so'zi oz. Oz-oz o'rganib dono bo'lur. O'ylab gapir. Sihat tilasang, kam ye. O'ynab gapirsang ham.

### *Bilib oling!*



Ravishlar ko'p hollarda juft va takror holda qo'llanadi. Juft ravishlar ikki so'zdan, takroriy ravishlar esa bir asosning takrorlanishidan yasaladi va chiziqcha (-) bilan yoziladi. Masalan:

#### **Juft ravishlar**

asta-sekin  
qishin-yozin  
eson-omon

#### **Takroriy ravishlar**

tez-tez  
zo'rg'a-zo'rg'a  
oz-oz

**6- mashq.** Avval juft ravishlarni, so'ngra takroriy ravishlarni ko'chiring.

Namuna: **Juft ravishlar:** *eson-omon*, ...

**Takroriy ravishlar:** *tez-tez*, ...

Eson-omon, yonma-yon, ba'zi-ba'zida, tez-tez, asta-sekin, kecha-kunduz, u yoq-bu yoqqa, qayta-qayta, sal-pal, kamdan kam, hamma yoq, bugun-erta, asta-asta, uncha-muncha, qishin-yozin, zo'rg'a-zo'rg'a, onda-sonda.

**7- mashq.** Berilgan gaplardan juft va takroriy ravishlarni aniqlang, qo'llanishidagi farqlarni tushuntiring.

1. Bu yo'ldan mashinalar tez-tez o'tadi. 2. Akam naridan beri nonushta qilib, ishga shoshib ketdi. 3. Asta-sekin tong ham ota boshladi. 4. O'quvchilar birin-ketin sinfga kirishdi. 5. Tanlovning natijasi erta-indin ma'lum bo'lib qolsa kerak. 6. Nodir jahl bilan u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.



## Adabiy o‘qish

### Chegaradan maktub

Akam chegarada xizmat qiladilar. Akam har xatlarida shu gaplarni yozadilar: „Ukajon, o‘qishlaring yaxshimi, katta bo‘lsang sen ham chegarachi bo‘l. Chunki chegarada xizmat qilishning zavqi o‘zgacha. Go‘yo sen chegarani emas, butun ona-Vatanni qo‘riqlayotgandek bo‘lasan...“

Qani endi tezroq katta bo‘lsam-u, akamdek xizmatga chiqirilib, chegarachi bo‘lsam. Chegarada turib, josusni ushlasam. Bir safar xatimda akamdan shu haqda so‘radim: „Akajon, bordi-yu men ham chegarachi bo‘lsam-u, josus ushlaymay xizmatdan qaytsam, chegarachi hisoblanamanmi?“

Akam xatimga shunday javob qildilar: „Ukajonim, shuni bilki, chegaramiz juda mustahkam. Undan pashsha ham o‘tolmaydi. Agar sen postda hushyor turib, o‘z vazifangni sergaklik bilan ado etsang, haqiqiy chegarachi bo‘lasan.“

(Q. Abdullayev)

**chegara** — граница  
**chegarachi** — пограничник  
**qo‘riqlamoq** — защищать  
**josus** — резидент, шпион

**mustahkam** — прочный  
**hushyor** — зоркий  
**sergak** — бдительный  
**ado etmoq** — выполнять

**Topshiriq:** Maktubni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.



**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Vatanga sadoqat, vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?
2. O‘z Vatani uchun jonini fido qilgan xalq qahramonlaridan kimlarni bilasiz?
3. Ravishlarning yasalishi va imlosi haqida so‘zlab bering.



**Uyga vazifa.** Maktub namunasidan foydalanib, askarlik burchini o‘tayotgan akangiz yoki tanishingizga xat yozing.



## ALISHER NAVOIY

(Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sodda yasama fe'llar)

### 1- DARS

#### Haykal

Toshkentning keng ko'chasiga,  
Gavjum yo'lining chekkasiga  
Qo'yilgandir baland haykal,  
Bu — Navoiy, shoir bobom.  
Atrof go'zal, keng xiyobon.  
She'r bog'ida go'yo bog'bon.  
Qo'llarida qalin devon,  
Bu — Navoiy, shoir bobom.

(Po'lat Mo'min)



**1- topshiriq.** She'rni o'qing. Rasm va she'r asosida suhbatlashing.

**1- mashq.** Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan gap mazmunini tushuntiring.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri bu Alisher Navoiy bobomizdir. Alisher Navoiy milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Olamda turkiy yoki forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. **Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.**

(Islom Karimov,  
„Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch“ )

**namoyanda** — деятель

**sha'n** — честь

**e'tiqod** — вера

**g'urur** — гордость

**avliyo** — святой

**tarannum qilmoq** — воспевать

### *Bilib oling!*



Ish-harakat va holatni bildirib, **nima qildi? nima qiladi? nima qilmoqchi?** so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar fe'l deyiladi. Fe'llarning bosh shakli **-moq** qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. Masalan:

#### **sodda**

tiniqlashmoq

o'qimoq

#### **qo'shma**

borib kelmoq

tarjima qilmoq

#### **juft**

aytdi-qo'ydi

yozdi-oldi

**2- mashq.** Berilgan fe'llardan foydalanib, fe'llarning bosh shaklini hosil qiling.

N a m u n a : *Yarat — yaratmoq, ...*

Ayt, o'yla, tushun, yod ol, yarat, tarqat, ishla, tik, bunyod et, ixtiro qil, g'olib bo'l, qur, aytib ber, dam ol, tozala.

**3- mashq.** 2- mashqdagi fe'llarni sodda va qo'shma fe'llarga ajratgan holda 2 guruhga bo'lib ko'chiring.

N a m u n a : **Sodda fe'llar:** *aytmoq, ...*

**Qo'shma fe'llar:** *dovrug' taratmoq, ...*

**2- topshiriq.** Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

### **Buyuk mutafakkir**

O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy 1441- yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Alisherning otasi G'iyosiddin ilm-fanni juda qadrlagan va o'g'lining tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Alisher bolaligidan juda aqlli bo'lgan va adabiyotni sevib o'rgangan. U 10 — 11 yoshlarida Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ („Qush tili“) dostonini mustaqil o'rganib, yodlab olgan. 14 — 15 yoshlarida o'zi g'azallar yoza boshlagan. Alisher

Navoiy birinchi bo‘lib turkiy tilda ijod qilgan va o‘zbek adabiy tilining rivojlanishida katta xizmat qilgan. Shuning uchun u o‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi. Alisher Navoiy minglab g‘azallari, ruboiylari, „Xamsa“, „Muhokamat ul-lug‘atayn“, „Xazoyin ul-maoniy“ kabi asarlari bilan so‘z mulkingning sultoni degan nomga sazovor bo‘lgan. U 1501- yil 3- yanvarda Hirot shahrida vafot etgan.

**ahamiyat** — значение

**ijodkor** — творец

**asoschi** — основатель

**sazovor bo‘lmoq** — удостоиться

**qadrlamoq** — дорожить, ценить



**Uyga vazifa.** Axborot vositalaridan Alisher Navoiy haqida qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plang.

## 2- DARS

**4- mashq.** Berilgan qo‘shma fe‘llarning birinchi qismi qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting. Ular ishtirokida 3 ta gap tuzing.

Imzo qo‘ymoq, javob bermoq, hayron qolmoq, paydo bo‘lmoq, himoya qilmoq, xursand bo‘lmoq, xafa qilmoq, milt-milt qilmoq, hurmat qilmoq, qaror qilmoq, hikoya qilmoq, rozi bo‘lmoq, tashkil etmoq, bunyod etmoq, ijod qilmoq, yomon ko‘rmoq, kasal bo‘lmoq.

**5- mashq.** Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan fe‘llardan mosini qo‘yib yozing.

Alisherning otasi G‘iyosiddin badiiy adabiyotni ... va uyida tez-tez she‘rxonlik kechalarini ... . Bu Alisherning yetuk shoir va katta olim bo‘lishiga ... . Ko‘p o‘tmay Alisher ham she‘rlar ... . Uning iste‘dodi Lutfiy, Sharafuddin Ali Yazdiy kabi mashhur insonlarning e‘tiborini ... . Alisher ilm olishni o‘zining asosiy mashg‘uloti deb ... . Bolaligida Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ asarini ... . Oradan yarim asrlik muddat o‘tgach, o‘zining „Lison ut-tayr“ dostonini ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *sevgan, o‘tkazib turgan, sabab bo‘lgan, yoza boshlagan, qozongan, bilgan, sevib o‘qigan, yaratgan.*



## Adabiy o'qish

### Buyuk tarixchi bilan uchrashuv

Xonaqoh hujralaridan birining oldidagi supachaga to'shalgan gilamcha ustida nuroniy bir mo'ysafid o'tiribdi. Uning oldidagi xontaxtada choynak-piyola, ikki-uch kitob turibdi. U piyoladagi choydan bir-ikki ho'plab, tizzasidagi kitobni o'qishga tutindi. Ko'chada bolalarning shovqini eshitildi. Mo'ysafid ko'zlarini kitobdan uzib, ko'chaga boqdi va bolalarni yoniga chaqirdi:

— Qani bolalarim, bu yoqqa kelinglar-chi!

Bolalar mo'ysafidning ovozini eshitib qochib ketishdi. Faqat birgina besh-olti yoshlardagi bola qoldi. Uning boshida oq sallacha, egnida yupqa, ixcham kamzul, oyog'ida etikcha. U chopqillab kelib qo'lchalarini ko'ksiga qo'yganicha salom berdi.

— O'g'lim, oting nedur? — deb so'radi mo'ysafid.

— Alisher, — dedi bola.

— Maktabga qatnaysanmi?

— Qatnayman.

Bolaning o'zini tutishi, odobi mo'ysafidga juda yoqdi.

— Men chaqirganimda o'rtoqlaring qochib ketdi. Sen esa huzurimga kelding. So'roqlaringga yaxshi javob qilding. Shuning uchun senga rahmat. Umring uzoq, boshing omon bo'lsin. Fozil bo'lib yaxshi obro'ga erishgaysan.

Shu payt Alisherning otasi G'iyosiddin yetib keldi. U mo'ysafid bilan salomlashdi. Mo'ysafid Alisherni ko'p maqtab, duo qildi. Ota-bola mo'ysafid bilan xayrlashib, karvonsaroy tomon yo'l oldilar. Yo'lda Alisher otasidan bu mo'ysafid kimligini so'radi.

— Bu kishi mashhur olim, tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy bo'ladi! — deya javob berdi otasi. U o'g'liga olimning xizmatlari, martabasi haqida so'zlab berdi.

Bu uchrashuv 1447-yili Taft shahrida bo'lgan edi.

(Aziz Qayumov)

**Topshiriq:** Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

**nuroniyl, mo'ysafid** — старик  
**ravona bo'lmoq** — направляться

**shovqin-suron** — шум  
**obro'** — авторитет



**Uyga vazifa.** Matnga munosabatingizni bildiring.

### 3- DARS

**3- topshiriq.** Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.



**O'qituvchi:** Bobomiz Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq qanday joylarni bilasiz?

**Kamola:** Navoiy shahri. U respublikamizdagi eng katta sanoat shaharlaridan biri.

**Aziz:** Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti bor.

**Iroda:** Poytaxtimizda yana Navoiy nomi bilan ataluvchi teatr, kutubxona, ko'cha, adabiyot va san'at muzeyi, ...

**O'qituvchi:** Respublikamizning qaysi shaharlarida bobomizga haykal o'rnatilgan?

— ...

### Bilib oling!



Sodda fe'llar tub va yasama bo'ladi: *o'qimoq* — tub fe'l, *ishlamoq* — yasama fe'l. Yasama fe'llar asosga **-la**, **-a**, **-sira**, **-ay**, **-lan**, **-lash** kabi qo'shimchalarni qo'shish orqali yasaladi. Masalan: *anglamoq*, *sanamoq*, *yotsiramoq*, *faxrlanmoq*, *ko'paymoq*, *suhbatlashmoq* kabi.

**6- mashq.** Berilgan so'zlarni jadvalga to'g'ri joylashtiring.

Bosh, bahs, ko'z, qo'l, faxr, bog', yog', shod, ikki, gul, kuy, to'da, tez, tuz, moy, muz, qish.

So'zlar	-la	-lan	-lash
bosh	boshlamoq	boshlanmoq	—
bahs	—	—	bahslashmoq

**7- mashq.** Gaplardagi fe'l yasovchi qo'shimchalarni ko'rsating.

1. Avval o'yla, keyin so'zla. 2. Bug'doyni xas-xashaklardan yaxshilab tozala. 3. Uzoq safarga ketayotgan yigitlarga rizqi o'z uyida qolsin deb non tishlatishadi. 4. Tandirdan uzilgan issiq nonlarni oyim suvladilar. 5. Darsda nonning foydali tomonlari haqida bahslashdik.

**8- mashq.** Alisher Navoiy hikmatli so'zlarining ikkinchi qismini topib yozing.

Bilmaganin so'rab o'rgangan olim,	Qarilik chog'i xarj qilg'il ani.
Yigitlikda yig' ilmning mahzani,	Olib tuproqqamu ketgumdir oxir.
Sihat tilasang, kam ye,	Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.
Hunarni asrabon netgumdir oxir,	Izzat tilasang, kam de.



### Adabiy o'qish

#### Alisherning onasi

Bilmam, qanday ayol bo'lgan  
Alisherning onasi?  
Balki uning aqliga ham  
Lol qolgan zamonasi,  
Balki uning ko'zlarida  
Bo'lgan og'ir bir xayol,  
Balki g'amgin bir zotdir u,  
Balki sho'xchan bir ayol.

Balki buyuk farzandiga  
Terib bergan chechaklar.  
Balki tunlar unga bedor  
Aytib bergan ertaklar.  
Mayliga, u kim bo'lmasin,  
Yolg'iz bir so'z ma'nosi:  
Alisherning onasi u,  
Navoiyning onasi.

*(Abdulla Oripov)*



#### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy qaysi asarlari bilan jahonga dovrug' taratgan?
2. Alisher Navoiyning hikmatlarini o'qing va mazmunini tushuntirib bering.



**Uyga vazifa.** She'rni yod oling.

## ADABIYOT MUZEYIDA

(Fe'l yasovchi qo'shimchalarning qo'llanishi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Berilgan rasm asosida suhbatlashing.

**1- mashq.** Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan gaplarga e'tibor bering.

### Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi

Toshkent shahrida 1870- yilda Toshkent ommaviy kutubxonasiga asos solingan. **1948- yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan kutubxonaga shoir nomi berilgan.** U 2002- yildan boshlab Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi deb faoliyat yuritib kelmoqda. **Unda 15 mingdan ortiq nodir kitoblar saqlanadi. Kutubxona fondida O'rta Osiyoning XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixi, etnografiyasi, geografiyasi va madaniyatiga oid 594 jildan iborat noyob ensiklopediya to'plamlari bor.**

2010- yilda ushbu kutubxonaning tashkil etilganiga 140 yil to'ldi.

(„Ma'naviyat qalb quyoshi“ ma'lumotnomasidan)

### Bilib oling!



Son, ong so'zlariga **-a**, **-la** fe'l yasovchi qo'shimchalari qo'shilganida, asosdagi **o** tovushi **a** tovu-

shiga aylanadi va shunday yoziladi: *ong — angla, son — sana* kabi.

**2- mashq.** Gaplarni o‘qing. Yasama fe’llarni toping va ular tarkibida sodir bo‘lgan tovush o‘zgarishlarini tushuntiring.

1. G‘iyosiddin Kichkina o‘z o‘g‘lini Alisher deb atadi. 2. Yosh Alisherni atrofda sodir bo‘layotgan adolatsizliklar qiynaydi. 3. O‘rtoqlari bilan o‘ynab yurgan Alisherning ko‘zi beixtiyor tarixchi olim Sharafuddin Ali Yazdiyga tushdi. 4. Hazrat Navoiy bir umr xalq manfaatini o‘ylab yashadi. 5. Men shoirning hikmatli so‘zlarida chuqur ma’no borligini qalbdan angladim.

**2- topshiriq.** Berilgan ma’lumotlarni o‘qing va shu ma’lumotlar asosida o‘zaro suhbatlashing.

— „Xamsa“ („Beshlik“) asari Alisher Navoiy ijodining eng cho‘qqisi hisoblanadi.

— „Xamsa“ turkiy tilda yaratilgan bo‘lib, beshta dostonidan iborat.

— 1985- yilda „Xamsa“ning 500 yilligi nishonlangan.

— Navoiy asarlari lug‘ati 1972- yilda G‘afur G‘ulom nomi-dagi adabiyot va san‘at nashriyoti tomonidan chop etilgan.

— Alisher Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostoni 1968- yilda Boku shahrida ozarbayjon tilida (Hamid Orasli) nashr etilgan.

— Moskva shahrida 2006- yil bo‘lib o‘tgan „Kitob san‘ati“ uchinchi xalqaro tanlovida „Boqiy satrlar“ turkumida chop etilgan besh kitobdan iborat Navoiyning „Xamsa“ asari nashri oltin medalga sazovor bo‘ldi.

— Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy xotirasiga muhtasham haykallar o‘rnatilgan.

**cho‘qqi** — вершина

**muhtasham** — роскошный

**doston** — эпос, поэма

**xotira** — память



**Uyga vazifa.** „Alisher Navoiy“ spektakli yoki filmini ko‘ring va taassurotlaringizni so‘zlab bering.



## 2- DARS

**3- mashq.** Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan fe’llarga e’tibor bering.

### Navoiy ko‘chasi

Navoiy ko‘chasi poytaxtimizning markaziy shoh ko‘chalari-dan biri **hisoblanadi**. Navoiy ko‘chasida Toshkent davlat sirki, O‘zbek milliy akademik drama teatri, O‘zbekiston televideniyesi, Turkiston saroyi, Ma’rifat markazi kabi katta inshootlar, ko‘plab tashkilotlar, muassasalar binolari bor. Mashhur Ko‘kaldosh madrasasi, Chorsu bozori ham shu ko‘chada **joylashgan**. Keyingi yillarda Navoiy ko‘chasi yanada **kengaytirildi**. Bu yerda zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan yangi turar joy binolari **qurildi**. Favvoralar soni bir nechtaga **ko‘paydi**. Avvallari jarlik bo‘lgan bu joyda bunyod **qilingan** bu muhtasham uylar obod turmush va taraqqiyot timsolidir.

**3- topshiriq.** Matndan Navoiy ko‘chasida joylashgan inshootlar va tashkilotlarni yozing.

### Bilib oling!



**-a** fe’l yasovchi qo‘shimchasi *o‘yin*, *qiyin* kabi so‘zlarga qo‘shilganda, bu so‘zlardagi **i** unlisi tushib qoladi: *o‘yin + a — o‘yna*, *qiyin + a — qiyna*.

**-illa** fe’l yasovchi qo‘shimchasi tarkibida **u** unlisi bo‘lgan bir bo‘g‘inli so‘zlar qo‘shilganda qo‘shimcha tarkibidagi **i** tovushi **u** tovushiga aylanadi: *guvullamoq*, *gurullamoq*.

**4- mashq.** Ikkinchi ustunda berilgan fe’llarga ma’nodosh so‘zlarni topib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

gapirmoq	quvonmoq
xafa bo‘lmoq	duch kelmoq
yo‘liqmoq	so‘zlamoq
xursand bo‘lmoq	yig‘lamoq

**5- mashq.** Berilgan fe'llarning ma'nodoshini topib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

gapirmoq, xursand bo'lmoq, duch kelmoq, xafa bo'lmoq, so'zlamoq, yo'liqmoq, quvonmoq, yig'lamoq.

**4- topshiriq.** Alisher Navoiy nomini abadiylashtirish bo'yicha berilgan ma'lumotlarni bilib oling.

Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi dastlab 1940- yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan ko'rgazma tariqasida tashkil etilgan. 1967- yildan unga Alisher Navoiy nomi berilgan.

Respublikamizda 1982- yilda Navoiy viloyati tashkil etildi.

Toshkent shahrining eng katta markaziy ko'chasiga Alisher Navoiy nomi berilgan.

Istiqloldan so'ng O'zbekiston milliy bog'i Alisher Navoiy nomi bilan atala boshladi.

Toshkent metrosining bekatlaridan biri Alisher Navoiy nomi bilan ataladi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti, Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi ta'sis etilgan.

Respublika opera va balet akademik Katta teatri, Samarqand davlat universiteti Alisher Navoiy nomi bilan ataladi.

2016- yil 13- mayda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ochildi.



### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haqida nimalarni bilasiz?
2. Navoiy haqida yozilgan qanday asarlarni o'qigansiz, qaysi filmlarni ko'rgansiz?



**Uyga vazifa.** „Navoiy bobom“ mavzusida matn yarating.

## ONA — ULUG‘ ZOT

(Yordamchi fe‘llar, ularning fe‘l yasashdagi ishtiroki)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** She‘rni ifodali o‘qing.

### Onamga ta‘zim

Kun chiqsa olamga  
yorug‘lik sochib,  
Oy chiqsa osmonga  
chiroyin ochib.  
Oftobdan chiroyli,  
oydan ham ma‘sum,  
Aziz onajonimga  
qilaman ta‘zim.

Bizlarga hayotni  
baxsh etgan ham u.  
Mehri daryo, yuragi  
ulkan quyosh-ku!  
Uning poyiga  
gullarni sochib,  
Mehribon onamga  
qilaman ta‘zim!

(Shahlo Norova)

**1- mashq.** Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Ajratib ko‘rsatilgan gaplarga e‘tibor qarating.

### Ona — xonadon chirog‘i

Onani xonadon chirog‘i deydilar. Oilani onasiz tasavvur etolmaymiz. Ona oilasi, farzandlariga doimo parvona bo‘ladi. Biz uygga kirishimiz bilan eng avval onamizni so‘raymiz. Onamiz har

doim bizni kulib qarshi oladilar. Ular o‘qishimiz, dam olishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib, bizga g‘amxo‘rlik qiladilar. Ba‘zan bilib-bilmay onamizni xafa qilib qo‘yamiz. **Bizni dunyoga keltirib, kichikligimizdan katta qilib, o‘stirib voyaga yetkazgan onalarimizga hamisha ta‘zim qilishimiz kerak. Dunyoda onadan ulug‘ zot yo‘q.**

**ardoqlamoq** — оберегать  
**g‘amxo‘rlik qilmoq** — чрезмерно заботится  
**parvona bo‘lmoq** — ухаживать

### *Bilib oling!*



Yordamchi fe‘llar ot va sifatlarga qo‘shilib, qo‘shma fe‘llarni yasaydi. Masalan: *dam olmoq, savol bermoq, suhbat qurmoq, xursand qilmoq* kabi.

**2- mashq.** Fe‘l bo‘lmagan so‘z bilan fe‘ldan yasalgan qo‘shma fe‘llarni bosh shaklda ko‘chirib yozing.

1. Ona o‘z bolasi bilan bog‘da sayr qilmoqda. 2. Biz onamizni xursand qilish uchun astoydil harakat qilamiz. 3. Aziza uy ishlarida oyisiga yordam berdi. 4. Badiiy adabiyot mutolaasiga qiziqishimga onam kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. 5. Men onamning ko‘zlaridagi mehrni his qildim. 6. Akam matnni o‘zbek tiliga tarjima qildi. 7. Biz ustozlarimizga hamisha ta‘zim qilamiz.

**3- mashq.** Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan qo‘shma fe‘llardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Firdavs ertalab turib onasiga ... . 2. Biz ..., onamiz bo-shimizda parvona bo‘ladi. 3. Aziza buvisini ... . 4. Buvijonim mening sochlarimni silab erkalab ... . 5. Onamning allalarini eshitib ... . 6. Bolalar onalari haqida yozgan she‘rlarini ingliz tiliga ... . 7. Buvim mening barcha savollarimga erinmay ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *tarjima qilmoq, javob bermoq, kasal bo‘lmoq, qarshi olmoq, yordam bermoq, orom olmoq, xursand qilmoq.*

**2- topshiriq.** Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

### Onajonlar bayrami

Bugun 8- mart — Onajonlar bayrami. Bu bayramda hamma dam oladi. Ertalab onam bilan dadam buvijonimni tabriklagani ketishdi. Ukam bilan ikkimiz ular kelgunlaricha, uyimizdagi barcha xonalarni yig‘ishtirdik. Stolga oq dasturxon solib, mevalarni qo‘yib, chiroyli qilib bezatdik. Stol o‘rtasiga guldon qo‘yib, unga bir dasta gul solib qo‘ydik. So‘ngra onajonimizga tabriknoma yozdik:

*Aziz onajon!*

*Biz sizni 8- mart bayrami bilan chin qalbdan tabriklaymiz!  
Sizga uzoq umr, sog‘liq va quvonch tilaymiz. Baxtimizga  
hamisha sog‘ bo‘ling!*

*Farzandlaringiz.*

Onajonim buni ko‘rib juda xursand bo‘ldilar. Dadam esa: „Barakalla, aqlli ish qilibsizlar“, deb bizni maqtadilar.



**Uyga vazifa.** 2- topshirqda berilgan tabriknomadan foydalanib, buvingiz, onangiz, opa-singillaringizga tabriknoma yozing.

## 2- DARS

**4- mashq.** Matnni o‘qing va unga munosabat bildiring. Ajratib ko‘rsatilgan fe‘llarga e‘tibor bering.

Saida darslari tugab, uyga vaqtliroq qaytdi. U yo‘l-yo‘lakay onasiga gul sotib oldi. Saida uyga kelganida uyda hech kim yo‘q edi. U darrov kiyimlarini almashtirdi va tezgina ovqatlandi. Avval uy ichini yig‘ishtirdi, so‘ng hovlini suv sepib supurdi. Onasi ishdan kelib qizidan **xursand bo‘ldi**. „Dastyor qiz bo‘lib qolibsanku, qizim, — deya maqtadi. — Shu ishlarni har kuni erinmay qilib tursang, hamma seni **hurmat qiladi**“.

*Ayting-chi, Saidaning oyisi nima uchun bu gapni aytdi?  
Siz onajonlar bayramiga qanday sovg'a tayyorladingiz?*

**3- topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.



**Anvar:** Onajonlar bayramiga sovg'a oldingmi?

**Rustam:** Shuni o'ylab turibman, nima olsam ekan?  
O'zing-chi?

**Anvar:** Men onam uchun „Mohir qo'llar“ to'garagida  
naqshli quticha yasadim.

**Rustam:** Men ham onamning suratlarini chizsammi-  
kan-a?! Agar o'xshata olmasam-chi?

**Anvar:** ... .

### **Bilib oling!**



Fe'l bo'lmagan so'zga fe'llarning qo'shilishidan yasalgan qo'shma fe'llar doimo ajratib yoziladi. Ma-  
salan: *dam olmoq, harakat qilmoq.*

**5- mashq.** Birinchi qatorda berilgan so'zlarga ikkinchi qatordagi fe'llardan mosini qo'shib qo'shma fe'llar hosil qiling.

Yordam, suhbat, imzo, sovg'a, harakat, qarshi, taklif, javob.

Bermoq, qurmoq, chekmoq, olmoq, qilmoq, etmoq, qaytarmoq.

**6- mashq.** Gaplardagi fe'llarni tuzilishiga ko'ra tahlil qiling.

1. Nabirasining erishgan yutug'i buvisining ko'nglini ravshan qildi. 2. Mushtariy gulni onasiga sovg'a qildi. 3. Onamga kelgusi rejalarim haqida gapirdim. 4. O'quvchilar o'z onalarini bayram kechasiga taklif etishdi. 5. U onasiga yaxshi o'qishga va'da berdi. 6. Biz yaqinda oila a'zolarimiz bilan Samarqandga bordik. 7. Ona bolalarini quvonib qarshi oldi.

**4- topshiriq.** Berilgan hikmatlarni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Ona — Quyosh, uning mehri hech qachon sovimaydi.

Ona bilan olam munavvar.

Onaning dili og‘risa, yer ham titraydi.

Bahorga ham, tongga ham onalar go‘zallik ulashganlar.

Saxiylik bobida, hatto quyosh ham onalar oldida xijolatda qoladi.

Farzand uchun ona bag‘ridan yaxshiroq, yoqimli va sevimliroq joy yo‘q.



**Adabiy o‘qish**

### Buvijonim

O‘zlari juda qari, turmaydilar bekor hech,

Ko‘zga taqib oynakni bichib, tikib erta-kech.

— Buvijonim, ne zarur, qo‘ying endi ishpechni,

Oyoq-qo‘lni uzatib, dam oling kunduz-kechin.

Nimadan kamingiz bor, osh-nonongiz taxt bo‘lsa,

Farzandlar, nabiralar xizmatga tayyor tursa?

Desam, buvim deydilar:

— Rahmat, o‘g‘lim, ming rahmat!

Hech narsadan kamim yo‘q,

Davlatim, baxtim sizlar, zarra armon, g‘amim yo‘q.

To‘qsonimda to‘qqiz yosh nabiramdek ko‘nglim shod,

El-yurtning onasiman, ro‘zg‘orim to‘kis, obod.

Lekin o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas, bolam,

Mehnat bilan ulg‘ayib chiniqqan jonim, tanam.

Shu sababdan hamisha birgaman mehnat bilan,

Unga vafo qilaman toabad hurmat bilan!

(*Mirtemir*)

**Topshiriq.** She‘rni ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.



**Uyga vazifa.** Onangiz yoki buvingizni ta‘riflab matn tuzing.

### 3- DARS

**7- mashq.** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Ona — insonni dunyoga keltiruvchi zot. Ona borki, hayot davom etadi. Ona borki, oila chirog‘i o‘chmaydi. Ona borki, olam charog‘on. Onalarimiz bizni dunyoga keltirib, parvarishlab katta qiladilar. Doimo bizga parvona bo‘ladilar. Buning sababi nimada? Nima uchun onalar farzandiga bu qadar parvona bo‘ladilar? Kerak bo‘lsa, farzandi uchun jonini fido qilishga ham tayyor turishining sababi nimada? Buning javobi bitta: bu — onalik mehri. Onaning farzandiga bo‘lgan mehri tog‘larni qulatgudek kuchli bo‘ladi.

**8- mashq.** Quyidagi fe‘llar oldidan foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib qo‘shma fe‘l yasang. So‘ng ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: *Bo‘lmoq: xursand bo‘lmoq.*

Bo‘lmoq:

Qilmoq:

**9- mashq.** Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan fe‘llardan mosini qo‘yib yozing.

1. Biz dam olish kuni bog‘da ... 2. O‘qituvchining savollariga to‘liq ... 3. Sinfdoshlarimiz sport musobaqasida ... 4. Ko‘cha harakati qoidalari bo‘yicha ... 5. Bu voqea menga ... 6. Do‘stim hammani ... 7. Bu matnni men ham ... 8. Biz ularni bayramga ...

Foydalanish uchun so‘zlar: *ishtirok etmoq, savol bermoq, tarjima qilmoq, taklif qilmoq, ta’sir qilmoq, dam olmoq, hurmat qilmoq, javob bermoq.*



**5- topshiriq.** She'rni rollarga bo'lib o'qing.


### Ona mehri

- Sendan yuksak nima bor, yulduz?
- Onalar mehri.
- Sendan keskir nima bor, olmos?
- Onalar qahri.
- Qaydan olding otashni, quyosh?
- Ona qalbidan.
- Po'lat, qaydan senda zo'r bardosh?
- Ona sabridan.
- Senmi, ko'klam, hayotbaxsh fasl?
- Yo'q, ona izi.
- Senmi totli, shifobaxsh asal?
- Yo'q, ona so'zi.
- Dengiz, nedir kenglikda tanho?
- Ona og'ushi.
- Sendan shaffof ne, tonggi ziyo?
- Ona boqishi.
- Yaratuvchi senmi, tabiat?
- Yo'q, yo'q, onalar.
- Baxt beruvchi senmi, hayot?
- Yo'q, yo'q, onalar.



*(Samandar Vohidov)*

**6- topshiriq.** Ona haqidagi matnlar va she'r mazmunidan foydalanib, berilgan kataklarni to'ldiring.





## Adabiy o‘qish

### Onaizor

Bir juft chumchuq erta bahordan boshlab yangi in qurish harakatiga tushdi. Oradan ko‘p o‘tmay ona chumchuq tuxum bosdi. Kunlar ketidan kunlar o‘tdi. Mana, nihoyat, ona chumchuq bolalarini uchirma qildi. Ular baland terak daraxti tepasida shoxdan shoxga uchib o‘tishni o‘rganishardi. Palaponlarini mehr bilan katta qilgan onasi sevinchini ichiga sig‘dirolmay bolalarining atrofida parvona bo‘lardi. Ularni yer-u ko‘kka ishonmaydi.

Ana, palaponning bittasi holdan ketib, yerga qulab tushdi. Onasi o‘zini o‘qdek otib, bolasiga ko‘makka keldi. Lekin, ne ko‘z bilan ko‘rsinki, mushuk darhol hid olib qayoqdandir paydo bo‘ldi-yu, yovuz niyatini amalga oshirishga oshiqdi. Ona chumchuq mushukning ko‘zini mo‘ljalga olib o‘zini tashladi. Uning harakati bekor ketmadi, bolasi o‘limdan qutuldi. Yana „pirr“ etib, terak shoxiga chiqib oldi. Ammo onasi qanotini sindirib, bir umrga majruh bo‘lib qoldi...

(Meli Normatov)

**palapon** — детеныш птицы  
**holdan ketmoq** — терять силу  
**o‘qdek otilmoq** — кидаться  
**yovuz niyat** — злой замысел

**sig‘dirolmay** — втискнув  
**majruh** — инвалид  
**mo‘ljalga olmoq** — взять на прищем



### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Siz onaga hurmat-ehtiromni qanday tushunasiz?
2. „Onaizor“ matniga o‘z munosabatingizni bildiring.
3. O‘tilgan mavzu bo‘yicha fikrlaringizni BBB jadvali asosida tushuntiring.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilishni istayman



**Uyga vazifa.** „Mening onam“ mavzusida matn tuzing.

## MILLIY URF-ODATLARIMIZ

(To‘liqsiz fe‘llar, ularning shakllari)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Berilgan rasm va Navro‘z tantanalarida ko‘rganlaringiz asosida o‘zaro suhbatlashing.

**1- mashq.** Matni o‘qing va berilgan savollarga javob bering.

### Navro‘z bayrami

Milliy urf-odatlarimizning qadimiylaridan biri Navro‘zdir. Sharq xalqlarida Navro‘z yangi yilning boshlanishi hisoblanadi. Navro‘z so‘zining tarjimasi ham „yangi kun“ degan ma‘noni bildiradi. Har yili 21- martda tun bilan kun tenglashadi. Shu kundan boshlab kunlar uzayib, tunlar qisqara boshlaydi. Kunlar isib, qorlar erib, bahor o‘z o‘rnini to‘liq egallaydi. Dehqonlar va bog‘bonlar dala va bog‘larda ekin ekish va daraxtlarni parvarishlashni boshlab yuboradilar. Butun tabiat qaytadan uyg‘onadi va yangi hayot boshlanadi. Shuning uchun Navro‘zni bahor va mehnat bayrami deb ham ataydilar.



### Savollar:

1. Navro‘z so‘zi qanday ma‘noni bildiradi?
2. Nima uchun Navro‘z bahor va mehnat bayrami deb ataladi?

### *Bilib oling!*



O‘zbek tilida **edi, ekan, emish, emas** to‘liqsiz fe’llari mavjud. Ular, ko‘pincha, fe’llardan keyin keladi.

To‘liqsiz fe’llar	Misollar	Ma’nosi
<b>edi</b>	Buvim ko‘k somsani yaxshi tayyorlar edilar.	aniq
<b>ekan</b>	Doniyor bayramga atab tabiat manzarasini chizgan ekan.	noaniq
<b>emish</b>	Aytishlaricha, ertaga yomg‘ir yog‘ar emish.	noaniq
<b>emas</b>	U sumalakni tayyorlash jarayonini ko‘rgan emas.	inkor

**2- mashq.** Gaplarni o‘qing. To‘liqsiz fe’llarning qo‘llanishi va ma’nolarini tushuntiring.

1. Navro‘z ilgari bunday keng nishonlanmas edi. 2. Aytishlaricha, sumalak azaldan suv, bug‘doy va undan tayyorlangan ekan. 3. Ustozimiz bizni lola sayliga taklif etgan edi. 4. Uyimizga tez borishim kerak, mehmon kelar emish. 5. Azizbek ukasini doim o‘zi bilan olib yurar ekan. 6. Ertaga bobomni ko‘rgani borar ekanmiz.

**3- mashq.** Nuqtalar o‘rniga *edi, ekan, emish, emas* to‘liqsiz fe’llaridan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Zargar yosh, iste’dodli yigit ... . 2. Usta ancha keksayib qolgan bo‘lsa ham, hali ancha baquvvat ... . 3. Maktabimizning binosi eskiroq, biroq yaxshi ta’mirlangan ... . 4. Binolar juda qadimiy, biroq hali ham o‘z tarovatini yo‘qotmagan ... . 5. Dadam har yili Navro‘zda ko‘chat ekar ... . 6. Ertaga maktabimizda hashar bo‘lar ... . 7. Navro‘zda sumalakni to‘yib yeganlar yil bo‘yi kasal bo‘lmas ... .

**2- topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.



**Ravshan:** Navro‘z tarixi haqida eshitganmisan?

**Sanjar:** Ha, Navro‘z sharq xalqlarining qadimiy bayrami.

**Ravshan:** Nima uchun Navro‘z qadimda „Yilboshi“ deb atalgan?

**Sanjar:** Chunki tabiat uyg‘onadi, urug‘ ekiladi, daraxtlar yangi kurtak chiqaradi.

**Ravshan:** ... .

**3- topshiriq.** Guruhlarga bo‘lining. Har bir guruh berilgan mavzular bo‘yicha so‘zlab bering.

1- guruh: sumalak pishirish haqida; 2- guruh: bayram tantanalari haqida; 3- guruh: hashar haqida.



**Adabiy o‘qish**

## Yilboshi

Sharq xalqlarida Navro‘zning nishonlanishi bilan bog‘liq urf-odatlar bor. Bu bayram bahor faslida ekin ekish ishlarining boshlanishi oldidan o‘tkazilgan va xalq orasida „Yilboshi“ deb ham atalgan. Istiqoldan so‘ng Navro‘z umumxalq bayrami sifatida har bir shahar, tuman, qishloqda, o‘quv yurtlarida, mahallalarda juda keng nishonlana boshlandi. Bayram tantanalari markaziy maydondan boshlanib, xalq sayillari, mehmondorchiликlar bilan davom etadi. Navro‘zda tayyorlanadigan maxsus taomlar — sumalak va halimlar pishiriladi. Yangi unib chiqqan ko‘katlardan ko‘k somsa va ko‘k chuchvaralar tayyorlanadi. Darmondorilarga boy bo‘lgan ushbu taomlar odamlarga kuch-quvvat bag‘ishlab, ularni yil bo‘yi sog‘lom va yaxshi kayfiyatda yurishlariga yordam beradi.

**Topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

**urf-odat** — обычаи  
**xalq sayillari** — народные гуляния

**yilboshi** — начало года  
**yarashmoq** — примириться, мириться



**Uyga vazifa.** „Navro‘z taassurotlari“ haqida so‘zlab bering.

## 2- DARS

**4- topshiriq.** Matnni o‘qing va savolga javob bergan holda davom ettiring.

### Salomlashish — odob belgisi

Salomlashish — qadimiy odatlardan biri hisoblanadi. Dunyodagi barcha madaniyatli xalqlar o‘zaro muomala-munosabatni salomdan boshlashadi. O‘zbeklar bir-birlari bilan „Assalomu alaykum“ deya, qo‘l olishib ko‘rishadilar. Bizda hamisha kichik yoshdagilar o‘zidan kattalarga salom berishadi. O‘zbeklarda kattalarga salom bermaslik odobsizlik hisoblanadi. Salomni ochiq chehra va xushmuomalalik bilan to‘liq aytish kerak.

Savol: *Nima uchun „Odobning boshi salomdan boshlanadi“ deydilar?*

### Bilib oling!



**Edi, ekan, emish, emas** to‘liqsiz fe’llari fe’l bo‘lmagan so‘zlarga ham qo‘shilishi mumkin: *bola edi, chiroyli ekan, yettita emish, meniki emas.*

**4- mashq.** Berilgan fe’llarga *edi* to‘liqsiz fe’lini qo‘shib, 3 ta shaxsda tuslab yozing.

Bormoq, yozmoq, hikoya qilmoq, gapirib bermoq.

N a m u n a :

**I shaxsda**

*ko‘rgan edim*

**II shaxsda**

*ko‘rgan eding*

**III shaxsda**

*ko‘rgan edilar*

**5- mashq.** Berilgan gaplarni o‘qing. *Edi* to‘liqsiz fe’lining qo‘llanishini tushuntiring.

1. Bu ertakni buvijonim aytib bergan edilar. 2. Ustozimiz bizni hech qachon urishmas edi. 3. Har yili ta'tilda qishloqqa, bobonnikiga borar edik. 4. Chet ellik mehmon urf-odatlarimizdan xabardor edi. 5. Ba'zi bolalar kattalarga salom bermas ekan. 6. Bir kalima shirin so'z qilichni qiniga kiritar ekan. 7. O'tgan yili Navro'zda maktabimizda sumalak pishirgan edik. 8. Opamni maqtashsa uyalib ketar edi.

**5-topshiriq.** Odob-axloq qoidalarini o'qing, mazmunini tushuntiring.

### Odob-axloq qoidalari

Uyqudan turib, yuz-qo'lini yuvmasdan salom berilmaydi.

Kishilar suhbatlashayotganda xalaqit bermay, odob saqlab turish kerak.

O'zingizdan kattalarga doimo hurmat ko'rsating. Ularga birinchi bo'lib salom bering, yo'l transportida ketayotganingizda o'rningizdan turib joy bering, ko'chadan o'tishlariga yordam bering.

Yoshi kattalarga „Siz“ deb murojaat qilish kerak.

O'zingizdan kattalarning gaplarini bo'lmang, ularning fikrlarini oxirigacha eshitishga o'rganing.

**6-topshiriq.** Odob-axloq qoidalari asosida jadvalni to'ldiring.

<b>Yaxshi odatlar</b>	<b>Yomon odatlar</b>
Ota-onani xafa qilmaslik	Ota-onani xafa qilish
Xushmuomala bo'lish	Qo'pol so'zlashish

**7-topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.



**Sinf rahbari:** Maktabimizda o'tkaziladigan Navro'z bayramida biz nimalar bilan ishtirok etishimizni rejalashtirib olaylik.

**Sinf sardori:** Komila bilan Jasur boshlovchilik qilishmoqchi, Ra'no Navro'zoy bo'lmoqchi. Zebo dugonalari bilan „Bahor valsi“ raqsini tayyorlamoqchi. Muxlisa o'zi yozgan she'rini o'qib bermoqchi.

**Sinf rahbari:** Yana qanday takliflaringiz bor?

**Ozoda:** Sevara ko'k chuchvara pishirmoqchi, men ko'k somsa tayyorlab kelay.

**Shoira:** Ustoz, biznikida sumalak pishiraylik. Buvim bizga bosh bo'ladilar.

**Qizlar:** Sumalakka biz ham qarashaylik.

**Javlon:** Keyin varrak uchirish musobaqasini ham o'tkazaylik. Bu ham Navro'z o'yinlaridan biri-ku.

**Sinf rahbari:** Juda yaxshi. Endi tayyorgarlikni boshlayvering. Musobaqalarda g'olib chiqishga harakat qilaylik.

**6- mashq.** Navro'z bayrami udumlarini tartib bilan yozib chiqing.

- yangi kiyimlar kiyadilar;
- qir-adirlarga sayillarga chiqadilar.
- bemorlarni, keksalarni borib ko'radilar;
- xonadonlarni, ko'cha-hovlilarni tozalaydilar;
- jamoa bo'lib Navro'z taomlarini pishiradilar;
- daraxtlarni oqlaydilar, ko'chatlar ekadilar, ariqlarni tozalaydilar;
- Navro'zga atab she'r-qo'shiqlar o'rganadilar;
- tantanalarda, sport musobaqalarida ishtirok etadilar;
- hasharga chiqadilar;
- bayram tantanalariga, do'st-u yorlarinikiga mehmonga boradilar.



### Adabiy o'qish

### Navro'z udumlari

Sharq xalqlarida Navro'z bilan bog'liq juda ko'p udumlar bor. Navro'z kuni tug'ilgan bolaning ismini Navro'zbek yoki Navro'zoy deb qo'yishgan. Qadimdan Navro'z oldidan ko'chalar, maydonlar, ariqlar tozalanadi, hovli-bog'lar tartibga keltiriladi. Mahallalarda, tashkilotlarda, maktablarda umumxalq ha-



shari o'tkaziladi. Navro'zda yoshlar qir-adirlarga lola sayliga chiqadilar, buvilarimiz bilan birga ko'k chuchvara, ko'k somsa, qatlama, sumalak, halim va shu kabi milliy taomlar pishiradilar.

Sumalak Navro'zning asosiy taomi hisoblanadi.



**Uyga vazifa.** O'z millatingizga oid urf-odatlarini sanab bering.

### 3- DARS

**7- mashq.** Matnni o'qing va shu mavzuda suhbatlashing. *Emas* to'liqsiz fe'lining qo'llanishiga e'tibor bering.

#### Xushmuomalalik nima?

Xushmuomalalik — eng avvalo shirinso'zlikdir. „Shirin so'z shakardan shirin“, „Shirin oshing bo'lmasa ham, shirin so'zing bo'lsin“, deydi dono xalqimiz.


Shirinso'zlikda birovga murojaat qilganda, gap: „Marhamat qilib, ...“, „Agar malol kelmasa ...“ kabi iboralar bilan boshlanadi. Bu bilan murojaat qilinayotgan kishiga hurmat ko'rsatiladi. Katta-kichikni sizlab gapirish, qariyalarga „Otaxon ...“, do'st-birodarlarga yoshiga qarab „Aka, opa, Axrorjon ..., Lobarxon ...“ deb murojaat qilish ham shirinso'zlik belgisi.

Senlab gapirish odatimizga xos emas. Tanish-notanish odamlarga senlab murojaat qilish yaxshi emas.

#### Bilib oling!



*Edi* to'liqsiz fe'li **-r(-ar)**, **-gan** qo'shimchali fe'l-larga qo'shilib kelganda, birlik va ko'plik sondagi 3 ta shaxs shaklida tuslanib keladi. Masalan:



**8- mashq.** Berilgan fe'llarga **-gan** qo'shimchasi va *emas* to'liqsiz fe'lini qo'shib, inkor shaklini hosil qiling.

Ko'rmq, xabar olmoq, so'ramoq, ko'rsatmoq, eshitmoq, hurmat qilmoq, yordamlashmoq, aytmoq, unutmok.

**9- mashq.** Gapnlarni o'qing, *emas* to'liqsiz fe'lining qo'llanishini tushuntirib bering.

1. Nodir darsga hech qachon kech qolgan emas. 2. Bu yerda uni ko'rgan emasman. 3. Biz hech kimdan kam emasmiz. 4. „Sen yetim emassan“ she'rini G'afur G'ulom yozgan. 5. Birovlarning xatini o'qish mumkin emas. 6. Kitobni yotib o'qish yaxshi emas. 7. Egilgan boshni qilich kesmas. 8. Botirlar qo'rquvni bilgan emas.

**8- topshiriq.** Matnlarni o'qing va ularga o'z munosabatingizni bildiring.

1. Asadbek shoshib turgan edi. Avtobus to'xtashi bilan hech kimga qaramay tezgina chiqib oldi. Haydovchining orqasida bo'sh joy bor ekan. Darrov o'tirib ham oldi va derazadan atrofni tomosha qilib ketdi.

2. Javohir bekatda avtobusni kutib turar edi. Avtobus kelgach, avval atrofga qaradi. Orqasida bolali ayol turganini ko'rib, ularga yo'l berdi. Keyingi bekatda tushishga qiynalayotgan keksa odamga yordam berdi.

*Bolalar, ayting-chi, kim to'g'ri ish qildi? Bunday vaziyatlarda siz nima qilgan bo'lar edingiz?*

**9- topshiriq.** Transportda o'zini tutish qoidalarini bilib oling va nima mumkin, nima mumkin emasligini jadval asosida yozing.

Transportga chiqqan zahotingiz yo'l haqini to'lab chipta oling.

Telefonda baland ovozda gaplashmang.

Haydovchining oldiga borib, uni gapga solmang.

Keksalar, katta yoshlilar, bolali ayollarga joy bering.

Telefonda musiqa va qo‘shiqni baland ovozda qo‘yib eshit-mang.

O‘rtoqlaringiz bilan baland ovozda gaplashmang.

Mumkin	Mumkin emas



## Adabiy o‘qish

### Qarz

(Rivoyat)

Qadim zamonlarda Hasan degan bir o‘tinchi bor ekan. U dala-dashtlardan o‘tin yig‘ib kelar, har kuni shu o‘tinlarni sotar va sotgan puliga 9 dona non sotib olar ekan. Novvoyning shogirdlari bundan juda ajablanib ustozlariga:

— Ustoz, shu kishi har kuni 9 dona non sotib oladi, bitta ko‘p ham emas, kam ham emas. Shuning sababini bilib bersangiz, — deb iltimos qilishibdi. Novvoy rozi bo‘libdi. O‘tinchi ertasiga non olgani kelganida novvoy:

— Hamma nonni sotib bo‘ldim, faqat 5 ta non qoldi, — debdi. Hasan:

— Beshta non menga yetmaydi, — deb nonlarni olmabdi.

O‘tinchi ertasiga non olgani kelganida, novvoy unga 10 ta non beribdi. Biroq u:

— Bu ko‘p, isrof bo‘ladi, — deb bitta nonni qaytarib beribdi.

Hasan keyingi kun kelganida novvoy:

— Nonlarni sotib bo‘ldim. Afsuski, senga non qolmadi, lekin nima uchun har kuni 9 ta non sotib olishingning sababini aytib bersang, o‘zim uchun olib qolgan nonlarni senga beraman, — debdi. Shunda o‘tinchi novvoyga:

— To‘qqizta nonning 2 tasini qarzimga, 5 tasini qarzgga beraman, 2 tasini esa o‘zimga olib qolaman, — deb javob beribdi.

Novvoy mutlaqo tushunmabdi.

— Qanday qarz? Yaxshiroq tushuntirib ber, — deb qaytadan so‘rabdi.

— Nonlarning 2 tasini meni boqib katta qilganlari uchun ota-onamga beraman, bu mening ular oldidagi qarzim. Beshtasini bolalarimga beraman. Bu esa qarz, ular ham biz qariganimizda shu qarzni qaytaradilar, — debdi Hasan.

Novvoyga bu javob juda ma'qul bo'libdi va har kuni o'tinchiga 9 tadan non olib qo'yadigan bo'libdi.

**Topshiriq.** Rivoyatni o'qing va mazmunini so'zlab bering.



**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Milliy urf-odatlarga nimalar kiradi?
2. Navro'z bilan bog'liq qanday udumlarni bilasiz?
3. Mavzu asosida nimalarni bilib olganingiz va bilmoqchi bo'lgan narsalaringizni BBB jadvali orqali ifodalang.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilishni istayman



**Uyga vazifa.** Rivoyat mazmuni asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. Nima uchun o'tinchi har kuni 9 ta non sotib olar ekan?
2. Nima uchun u 5 ta nonni olmabdi?
3. Siz ota-onangiz oldidagi qarzingizni qanday qaytarmoqchisiz?
4. Nima uchun Sharqda Navro'zni yilboshi deb ham ataydilar?
5. To'liqsiz fe'llarga misollar keltiring va ma'nolarini izohlang.

## AMIR TEMUR

(Fe'l mayllari. Buyruq-istak maylidagi fe'llarning tuslanishi va qo'llanishi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Berilgan tayanch soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

Tayanch soʻzlar: *salobatli haykal, haykaltarosh mahorati, magʻrur, oʻtkir nigoh, qatʻiyatli, haykal poyidagi gullar, bobomizga hurmat va ehtirom.*

**1- mashq.** Matnni oʻqing va topshiriqlarni bajaring.

### Amir Temur

Buyuk Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrni moʻgʻullar istilosidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzgan. U qaysi yurtni istilo qilsa, oʻsha yurtning eng yaxshi hunarmandlari va olimlarini Samarqandga olib kelib, ularning bilim va tajribasidan yurtni obodonlashtirishda foydalangan. Samarqandda Koʻksaroy, Jome masjidi, Bibixonim madrasasi, Shohizindadagi bir qator maqbaralarni, shahar atrofida Bogʻi Chinor, Bogʻi Shamol, Bogʻi Dilkusho, Bogʻi Nav, Bogʻi Behisht deb nomlangan bogʻlar va saroylarni bunyod ettirdi. U hayoti davo-

mida juda ko‘p yo‘llar, ko‘priklar, kanallar, rabotlar qurdirdi. Amir Temur Shahrizabzda o‘zi qurdirgan mashhur Oqsaroyning peshtoqidagi naqshlar orasiga „Agar bizning kuch-qudratimizga shubha qilsang, biz qurgan imoratlarga boq“ deb yozdirgan. Bobomizning bunyodkorlik ishlari uning farzandlari, temuriylar va keyingi avlodlar tomonidan davom ettirilgan.

(„Bolalar ensiklopediyasi“dan)

**kuch** — сила  
**rabot** — сады

**qudrat** — могущество  
**markazlashgan** — централизованный

**Topshiriq:** Matn mazmuni asosida Amir Temurning buyuk xizmatlarini yozing.

Amir Temurning buyuk xizmatlari

### Bilib oling!



Buyruq-istak maylidagi fe‘llar harakatning bajarilishiga qaratilgan istak, buyruq, maslahat ma‘nolarini bildiradi va quyidagicha tuslanadi:

	<b>Birlik</b>	<b>Ko‘plik</b>
I shaxs	<i>o‘qiy</i>	<i>o‘qiylik</i>
II shaxs	<i>o‘qi</i>	<i>o‘qing</i>
III shaxs	<i>o‘qisin</i>	<i>o‘qisinar</i>


I shaxsda undosh tovushdan so‘ng **-ay**, **-aylik** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan: *boray*, *boraylik* kabi.

**2- mashq.** Berilgan fe‘llarni buyruq-istak maylida tuslab yozing.

O‘rganmoq, kuylamoq, ehtiyot qilmoq, bajarmoq, qadrlamoq.

**3- mashq.** Fe'llarni ko'plik shaxs shakllariga qo'yib yozing.

Namuna:



Siz Vataningizni ... !

**4- mashq.** Qavs ichidagi fe'llarga buyruq-istak ma'nosini bildiruvchi qo'shimchalardan mosini qo'yib yozing.

1. Har bir ishni oldindan o'ylab (bajarmoq). 2. Serqatnov ko'chadan o'tishda ehtiyot (bo'lmoq). 3. Ko'p (o'qimoq) va hayot saboqlarini (o'rganmoq). 4. Keling, do'stlar, birga (kuy-lamoq). 5. Ertaga Amir Temur muzeyiga (bormoq). 6. Sen sinfdagi gullarga suv (quymoq), Anvar hovlidagi daraxtlarni (sug'ormoq). 7. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda (bo'lmoq).

**2- topshiriq.** Berilgan gaplarni izchillikda joylashtirib, bog'lanishli matnga aylantiring.

1. U yoshligidan otda yurishni, qilichbozlik san'atini mukammal egallagan.
2. Amir Temur 1370- yilda taxtga o'tirgan.
3. Amir Temur Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan.
4. Amir Temur katta markazlashgan davlat tuzgan.
5. U o'z hayotiy tajribalarini „Temur tuzuklari“da yozib qoldirgan.
6. 1380- yilda Shahrisabzda Oqsaroy qasrini bunyod ettirgan.



**Adabiy o'qish**

### Istiqlol farzandi bo'l

Bilim ol, quvvatga to'l,  
Kasb-hunarga uzat qo'l.

Mana senga yangi yo'l,  
Istiqlol farzandi bo'l.

Alpomishning o‘rnin bos,  
Ot o‘ynat mardlarga xos.  
Saxiy Hotamtoyga mos  
Istiqlol farzandi bo‘l.

Haromdan ayla hazar,  
Oldinga tashla nazar.  
Oppoq sadaf ichra zar  
Istiqlol farzandi bo‘l.

Odob-axloq gulin ter,  
Dilga ezgu nurin ber.  
Bo‘lay desang botir er,  
Istiqlol farzandi bo‘l.

(*Hasan Ota*)



**Uyga vazifa.** She‘rni yod oling. Buyruq-istak maylidagi fe‘llar qatnashgan gaplarni daftaringizga ko‘chirib yozing.

## 2- DARS

**3- topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.



**O‘qituvchi:** Bobomiz Amir Temur haqida so‘zlab bering.

**Azizbek:** Amir Temur 1336- yilda Shahrisabz yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi — Muhammad Tarag‘ay, onasining ismi — Takina Moh begim bo‘lgan. Temurbek yetti yoshida maktabga borgan. Zehni o‘tkir, odobli bola bo‘lgan. Bir o‘qigan narsasini darhol yodlab olgan.

**G‘ayrat:** Amir Temur harbiy san‘atni ham yaxshi bilgan va yagona markazlashgan davlat tuzgan.

**Bahrom:** Amir Temur hukmronlik yillarida Samarqandda juda ko‘p inshootlarni, Shahrisabzda Oqsaroy qasrini qurdirgan.

**Komila:** Bobomiz Bog‘i Baland, Bog‘i Behisht, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Jahonnamo, Bog‘i Maydon, Bog‘i Nav, Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol deb nomlangan bog‘lar yaratgan.



## Bilib oling!



Buyruq-istak maylidagi fe'llarning bo'lishsiz shakli barcha fe'llarga **-ma** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: *ketmay* — *ketmaylik*, *bormay* — *bormaylik*.

	<b>Birlik</b>	<b>Ko'plik</b>
I shaxs	<i>aytmay</i>	<i>aytmaylik</i>
II shaxs	<i>aytma</i>	<i>aytmang</i>
III shaxs	<i>aytmasin</i>	<i>aytmasinlar</i>

**5-mashq.** Berilgan fe'llarni I shaxs buyruq-istak maylining bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini yozing.

N a m u n a : Bajarmoq: *bajaray*, *bajarmay*.

Javob bermoq, qatnashmoq, bo'yamoq, o'rganmoq, tayyorlamoq.

**6-mashq.** Berilgan gaplardagi fe'llarni bo'lishli shaklga aylantirib yozing.

1. Men Navro'z bellashuvlarida ishtirok etmay. 2. Biz lola sayliga bormaylik. 3. Ko'chat ekishda qatnashmay. 4. Qo'ni-qo'shnilarga sumalakni men tarqatmay. 5. Bu daraxtlarni oqlamaylik. 6. Bayram tadbiriga bu qo'shiqni kiritmaylik. 7. Bahrom bu ishni bajarmasin.

**7-mashq.** Matnni o'qing. Buyruq-istak maylidagi fe'llarni aniqlab, ifodalanishi va ma'nolarini tushuntiring.

Olim, fozil, dono kishilar bilan kengashib ish ko'ring. Nodon odamlar bilan do'st tutinmang. Bilmagan narsangizni „bilmayman“ deyishdan uyalmang. Kerak bo'lgan ilm yoki hunarni tortinmasdan o'rganing. O'zingizga istagan yaxshilikni boshqalarga ham tilang. O'zgalarning aybini ko'rgan vaqtingizda o'z aybingizni ham tushuning. Hech kimni beobro' etmang.

(„Qobusnoma“dan)

**4- topshiriq.** Amir Temur o'g'itlarini o'qing. Buyruq-istak maylidagi fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini aniqlang.

1. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'y.

2. Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.

3. Bugungi ishni ertaga qoldirma.

4. Mamlakat hukmdori el manfaatini ko'zlab ish tutsin.

5. Chorasi bo'lmagan ishga kirishma, chunki undan qutulib bo'lmaydi.

**5- topshiriq.** Rivoyatni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

### Oqsaroy

(Rivoyat)

Ulug' Amir o'z ona shahri bo'lmish Shahrisabzda ulug'vor bino bunyod etmoqlikni niyat qilibdi. Mamlakatning bosh me'morini huzuriga chaqirib, fikrini bayon etibdi. Bosh me'mor davlat xazinasiga kirishga ijozat so'rabdi. Uning bu gapiga qiziqqan Ulug' Amir „Bu qanday karomat ko'rsatarkin“, deb xazinaga kirishga ruxsat beribdi. Bosh me'mor Sohibqiron hazratlarining oldida loy va tillalarni aralashtirib, g'isht yasabdi. Ularni bo'lajak bino poydevori uchun ishlatishini aytib, Ulug' Amirni kuzatibdi.

— Nega bunday qilding? — deb so'raganlarida me'mor:

— Ulug' Amirimizning go'zal va betakror imorat barpo etish istagi qanchalik kuchli ekanligini bilishim kerak edi, — deya javob qilibdi. Shundan so'ng bosh me'mor Oqsaroy qurilishini boshlagan ekan.

**niyat** — намерение  
**me'mor** — архитектор  
**poydevor** — фундамент



**Uyga vazifa.** Temuriylar avlodiga mansub taniqli shaxslar haqida ma'lumot yozing.

### 3- DARS



**6- topshiriq.** Matnni o‘qing va matn mazmuni asosida savollar tuzing.

#### Temuriylar tarixi davlat muzeyi

Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996- yil 18- oktabrda buyuk Sohibqiron Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosabati bilan ishga tushirildi. Muzey Amir Temur maydonidagi Sohibqiron haykali ro‘parasida joylashgan. Muzeyning ochilishida O‘zbekiston Respublikasi rahbarlari, xorijiy mehmonlar ham ishtirok etdilar. Respublikamizda Amir Temur nomi bilan bog‘liq juda ko‘p yangi me‘morchilik obidalari barpo qilindi. Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarda Amir Temur qurdirgan madrasalar ham qaytadan ta‘mirlandi. 1996- yil 26- aprelda Amir Temur ordeni ta‘sis etildi. Orden tilla qoplangan kumushdan iborat bo‘lib, sakkiz qirrali bo‘rtma yulduz ko‘rinishida. Amir Temurning ulug‘vor qiyofasi kumush rangda tasvirlangan.

**qoplangan** — pokryta, pokryтый  
**ta‘mirlamoq** — реставрировать  
**ulug‘vor qiyofa** — великолепный образ

**bo‘rtma** — дутовый  
**qirrali** — гранённый,  
 имеющий грани

#### *Bilib oling!*



II shaxs birlikda **-gin** qo‘shimchasining qo‘shilib kelishi ma‘noni kuchaytirishga xizmat qiladi. Qiyoslang:

*Sen o‘qi — Siz o‘qing.* Ushbu shaxsda buyruq-istak maylining ko‘plik shakli birlik son o‘rniga qo‘llanganda hurmat ma’nosini ifodalaydi. Masalan: *Anvar, endi, o‘qishni siz davom ettiring.*

**8- mashq.** Berilgan fe’llarni o‘qing, ma’nolaridagi farqlarni aniqlang.

kel	keling	kelinglar
yoʻz	yoʻzing	yoʻzinglar
ye	yeng	yenglar
tuz	tuzing	tuzinglar

**9- mashq.** Qavs ichida berilgan fe’llarni birlik va ko‘plik shaklidagi II shaxs buyruq-istak maylida yozing.

1. Do‘stlaringga, yaqinlaringga hamisha (e’tiborli bo‘lmoq).  
 2. Hech kimning ko‘ngliga (ozor bermoq). 3. O‘zingni, kiyimlaringni, uy-joyingni orasta (saqlamoq). 4. Ekilgan ko‘chatlarga o‘z vaqtida suv (quymoq), yaxshilab (parvarish qilmoq). 5. Yo‘lda yurganingda, bekatda turganingda keraksiz qog‘ozlarni atrofga (tashlamoq). 6. Ko‘cha harakati qoidalariga doimo (rioya qilmoq).

**10- mashq.** Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib o‘qing.

### Amir Temurning yoshlik yillari

Amir Temur bolalikdan ... bo‘lib o‘sgan. Otda yurishni, shahmat o‘ynashni yaxshi ko‘rgan. Maxsus murabbiylar nazorati ostida yoshlikdan ... singari harbiy mashq va o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lgan. Temur tabiatan ... bo‘lgan. U kishilardagi alohida qobiliyat, fazilatlarni tezda fahmlab oladigan inson bo‘lgan. O‘z atrofiga sadoqatli odamlarni to‘plab, ularni ... qobiliyatiga ega bo‘lgan. U hatto yoshlik yillaridayoq barlos qabilasi yigitlariga boshchilik qilgan.

Foydalanish uchun so‘zlar: *chavandozlik, ovchilik, kamondan o‘q otish, qilichbozlik; sog‘lom, baquvvat, dovyurak; og‘ir, bosiq, idrokli va nihoyatda ziyrak; boshqara olish.*



## Adabiy o‘qish

### Temur bobomga ta’zim

Sohibqiron Temur bobom,  
Bosh egamiz — sizga ta’zim.  
Jahongirsiz — bu haqiqat,  
Taxt-tojingiz buyuk, azim.

Dedingiz: „Kuch — adolatda“,  
Bu hikmatga egdingiz bosh.  
Millat madhin tig‘da chalib,  
Kezdingiz sahro, tog‘- u tosh.

Til qilichdan o‘tkir deb, Siz  
Ayadingiz g‘animni goh,  
Turon elin tuprog‘ida  
Bo‘lmasin deb hech bir oh-voh.

Shavkatingiz sharaflaydi,  
Ming yilliklar, asrlar ham.  
Ruhingizga ta’zim aylar  
Siz qurdirgan qasrlar ham.

Shahrisabzning shavkati Oy  
Bo‘lib balqdi Sizni deb.  
Samarqand sayqali Quyosh —  
Nuri ellarga bermish zeb.

O‘zbekning o‘zligin kimki  
Bilishni istasa, bilsin:  
Shahrisabz- u Samarqandda  
Poyingizga ta’zim qilsin.

*(Ergash Shodmonov)*



### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Amir Temur qanday buyuk ishlarni amalga oshirgan?
2. Qaysi tarixiy obidalar Amir Temur nomi bilan bog‘liq?
3. Qaysi shaharlarda Amir Temurga haykallar o‘rnatilgan?



**Uyga vazifa.** She’rni ifodali o‘qing.

## SUV — HAYOT MANBAYI

(Shart maylidagi fe'llar va ularning qo'llanishi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Berilgan tayanch so'zlar ishtirokida gaplar tuzib suhbatlashing.

Zilol suv, suv zarralari, muzdek, ichmoq, tabiat ne'mati.

**1- mashq.** Matnni o'qing, ona tilingizga tarjima qiling.

### Suv — hayot manbayi

Suvsiz hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Suv inson hayoti, tirikligimiz manbayidir. Odam och qolib bir necha kun yashashi mumkin, lekin suvsiz uzoq yashay olmaydi. Kundalik hayotimizda ham suvning ahamiyati va xizmati nihoyatda katta. Atrof-muhitning tozaligi, havoning mo'tadilligi, o'zimizning orastaligimiz ham suv tufayli. Shuning uchun ota-bobolarimiz suvni muqaddas bilib, uni tejashga katta e'tibor berganlar. Biz ham bu an'analarni davom ettirib, bir tomchi suvni ham ehtiyot qilib ishlatishimiz kerak. Ba'zan ko'chalarda suv oqib yotganiga ko'zimiz tushadi. Ichimlik suvini bunday isrof qilish mumkin emas. Yer yuzida ichimlik suvi kamayib borayotganligini hech kim esdan chiqarmasin. Suvni hamma tejab ishlatsin. Ariq va

anhorlarga chiqindilar tashlanmasin. Bebaho xazinamizni hamma avaylab asrasin. Shunda hayotimiz farovon, turmushimiz obod bo‘ladi.

**manba** — источник  
**tejash** — экономить  
**ichimlik** — питьевой  
**chiqindi** — отбросы  
**jo‘mrak** — кран

**tasavvur qilmoq** — воображать  
**ehtiyot qilmoq** — оберегать  
**isrof qilmoq** — растрачивать  
**esdan chiqarmaslik** — не забывать  
**jazirama** — жара

### Bilib oling!



Boshqa harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo‘lgan harakatni ifodalashda **-sa** shart mayli qo‘shimchasi qo‘llanadi. Masalan: *Atrofga e‘tiborli bo‘lsak, boyliklarimiz, sog‘lig‘imizni saqlab qolamiz. Tabiatni asramasak, juda ko‘p narsalarni yo‘qotamiz.* Shart maylidagi fe‘llar bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklda quyidagicha tuslanadi:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I	<i>asrasam, asramasam</i>	<i>asrasak, asramasak</i>
II	<i>asrasang, asramasang</i>	<i>asrasangiz, asramasangiz</i>
III	<i>asrasa, asramasa</i>	<i>asrasalar, asramasalar</i>

**2- mashq.** Birinchi qatorda berilgan fe‘llarni shart maylining bo‘lishli shaklida, ikkinchi qatordagi fe‘llarni bo‘lishsiz shaklda tuslab yozing.

1. O‘qimoq, yozmoq, yod olmoq, shug‘ullanmoq.
2. Ketib qolmoq, tayyorlamoq, javob bermoq, ishlamoq.

**3- mashq.** 2- mashqda berilgan fe‘llarning I shaxs shart mayli shakli ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: *Men yaxshi o‘qisam, ... . Darslardan ketib qolmasam, ... .*

**4- mashq.** Qavs ichida berilgan fe‘llarni shart maylida yozib, gaplarni ko‘chiring.

1. Ahil (bo‘lmoq), hech kim bizni yengolmaydi. 2. Daraxt bargi yoz faslida (sarg‘aymoq), kuz erta keladi. 3. Kuzda daraxt barglari birdan to‘kilib (ketmoq), qish qattiq keladi. 4. Osmonda qushlar pastlab (uchmoq), yomg‘ir yog‘adi. 5. Ko‘k rang bilan qizil rangni (aralastirmoq), binafsha rang hosil bo‘ladi. 6. Barchamiz atrof-muhitga e‘tiborli (bo‘lmoq), tabiatni asrab qo‘lamiz.

**2- topshiriq.** Berilgan jadvalni davom ettiring va bir kunda qancha suv ishlatishingizni aniqlang.

<b>Ish turi</b>	<b>Qancha suv ishlataman?</b>	<b>1 kunda bu ishni necha marta bajaraman?</b>	<b>1 haftada qancha suv sarflanadi?</b>
Tishimni yuvaman	2 litr	2 marta	$2 \times 2 \times 7 = 28$ litr

**3- topshiriq.** Vaziyatli test topshiriqlarini o‘qing va ularga javob bering.

1. Suv hayot demakdir. Biroq ariqlarga turli chiqindilarni tashlaymiz. Ko‘pchilik ko‘rib turib, indamay ketadi, shuning uchun bo‘lsa kerak shahrimizda ariq suvlari borgan sari kamayib ketmoqda. Bu muammoni qanday hal qilish mumkin?

- A) Ariqlarni butunlay ko‘mib tashlash kerak.
- B) Ariqqa chiqindi tashlaganlarga jarima solish kerak.
- D) Ariqdan baribir suv ichilmaydi.

2. Ba‘zilar jo‘mrakdan suv oqizib qo‘yadilar yoki jo‘mrakni burab qo‘yishni unutadilar. Shunda siz qanday yo‘l tutasiz?

- A) Jo‘mrakni kim ochgan bo‘lsa, o‘sha yopsin.
- B) Darrov jo‘mrakni yopaman.
- D) Men javobgar emasman.

**4- topshiriq.** Maqollarning mazmunini tushuntiring.

Namuna: *Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi. — Bu maqolda ariq qazish va suv keltirish xayrli ish ekanligi aytilgan.*



1. Suv bor yerda hayot bor.
2. O‘zing suv ichadigan quduqqa tupurma.
3. Suv — yorug‘lik.
4. Suv — zar, suvchi — zargar.



### Adabiy o‘qish

## Suv — bebaho xazina

Rivoyat qilishlaricha, Jaloliddin Manguberding ukasi suvga kesak otibdi. Shunda akasi undan qattiq ranjib: „Sen gunoh ish qilding. Jayxunni ona o‘rnida ko‘r. Axir shu daryo seni yediradi, kiyintiradi“, debdi. Ukasi aka nasihatidan so‘ng o‘zini o‘nglab suvga munosabati o‘zgaribdi.

Suvga tupurish, unga xas-xashak tashlash hamda isrof qilish qadimdan qoralangan. Biz ham suvni tejab ishlatish, ariq va anhorlarga chiqindi tashlamaslik haqida uka-singillarimizga gapirib bersak, o‘zimiz ularga ibrat bo‘lamiz. Odam och-nahor bir necha kun yashashi mumkin, lekin suvsiz yashay olmasligini hamma biladi.

Suv nafaqat hayot manbayi, balki hayotimizning ko‘rki hamdir. Bizning issiq mintaqamizda suvning o‘rni nihoyatda katta. Zilol suv oqib turgan ariqcha oldida bir zungina o‘tiring, bahri dilingiz ochiladi. Sharsharani kuzating, ko‘zingiz dam oladi. Favvoradan xuddi durdek sachragan suv tomchilari sizga orom bag‘ishlaydi.

Shuning uchun suvdek noyob xazinamizni asraylik. Shunda ona tabiat bizga o‘zining barcha boyliklarini in‘om etib, el-yurt boy-badavlat, xalqimiz farovon yashaydi.

**kesak** — комок сухой глины  
**ranjimoq** — обижаться  
**tupurmoq** — плюнуть

**mintaqa** — регион  
**in‘om etmoq** — дарить

**Topshiriq:** Matnni o‘qing va unga munosabat bildiring.



**Uyga vazifa.** Nima uchun suvsiz yashab bo‘lmaydi? Fikrlaringizni yozing.

## 2- DARS



**5- topshiriq.** Matnni o‘qing, ona tilingizga tarjima qiling va mazmunini so‘zlab bering.

### Favvoralar

Favvoralar yozning issiq kunlarida havodagi changlarni tozalab, atrofni salqinlantiradi. Ular charchoqni yozib, insonlarga xush kayfiyat bag‘ishlaydi. Qadim zamonlarda favvoralar podshoh saroylarida qurilgan. Ularni toza saqlash uchun qoidalar belgilangan. Qoidaga amal qilmaganlar qattiq jazolangan. Keyinchalik favvoralar shahar markazlarida ham bunyod etilgan. Bunday san‘at namunalari barcha shaharlarda bor. Toshkentda birinchi favvora 1890- yilda qurilgan. 1947- yilda Alisher Navoiy nomidagi teatr maydonida, 1953- yilda Xadra maydonida, 1974- yilda Mustaqillik maydonida, 1997- yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyi xiyobonida ajoyib ko‘rinishga ega bo‘lgan favvoralar qurildi.

Hozirgi kunda rangli, musiqali favvoralar barpo etilib, ular respublikamizning barcha shaharlari husniga husn qo‘shmoqda.

**favvora** — фонтан  
**kayfiyat** — настроение  
**ajoyib** — интересный

**charchoq** — усталость  
**bahra olmoq** — наслаждаться  
**ko‘rinish** — вид

### *Bilib oling!*



**Agar** so‘zi shart mayli qo‘shimchasi bilan birga qo‘llansa, shart ma‘nosi kuchayadi. Masalan: *Agar ahil bo‘lsak, bizni hech kim yengolmaydi.*

**5- mashq.** Berilgan fe‘llarni shart maylida tuslab, *bo‘lmoq* fe‘li bilan bog‘lab gap tuzing. Ma‘nolarini tushuntiring.

Aytmoq, tushuntirmoq, o‘rganmoq, ergashmoq, o‘rnak olmoq, e‘lon qilmoq.

**6- mashq.** Matnda berilgan ma‘lumotlardan foydalanib, gaplarni to‘ldiring.

1. Qadim zamonlarda favvoralar ... bo‘lgan. 2. Favvoralarni ozoda saqlash uchun .... belgilangan. 3. Favvoralar havodagi ... tozalab, atrofni salqinlantiradi. 4. Toshkentda birinchi favvora ... qurilgan. 5. Hozirgi kunda ... favvoralar barpo etilmoqda. 6. 1997-yilda ... ajoyib ko‘rinishga ega bo‘lgan favvoralar qurildi.

**7- mashq.** Gaplarni o‘qing. Shart mayli ma‘nosini ifodalovchi gaplarni aniqlang.

1. Yozgi ta’tilda dam olishga ketsam kerak. 2. Agar yoz kelsa, kunlar isib ketsa, tog‘lar bag‘riga ketamiz. 3. Bu she’rni daftarimga ko‘chirib yozsam maylimi? 4. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroyli. 5. Agar katta bo‘lsam, universitetda o‘qiyman. 6. Iloji bo‘lsa, o‘zing biznikiga kel. 7. Men kelsam, ketib qolgan ekansan. 8. Agar uchrashmasak, ko‘rishguncha xayr.

**6- topshiriq.** Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Atrofimizdagi barcha narsa: quyosh, oy, yulduzlar, havo, tog‘lar, tekisliklarning hammasi tabiatdir. O‘simliklar, hayvonlar va odamlar ham shu tabiatda yashaydi hamda o‘ziga kerakli

barcha narsani undan oladi. Shuning uchun tabiatni zararli narsalardan asrash, unga zarar keltirmaslik kerak. Tabiatni asramaslik yomon oqibatlariga olib keladi. Zavod, fabrika, avtouloulardan chiqayotgan tutun va gazlar havoni ifloslantiradi. Havo buzilsa, odamlarning nafas olishi qiyinlashadi, har xil kasalliklar ko'payadi. Daryo, ko'llarning suvi ifloslansa, jonivorlar ham zaharlanadi va nobud bo'ladi. Atrof-muhitning ifloslanishi o'simliklarga ham zarar keltiradi, ularning hosildorligi kamayadi. Shuning uchun tabiatni qo'riqlash va asrash har bir insonning muqaddas burchidir.



### Savollar:

1. Isrof nimaga olib keladi?
2. Moddiy boyliklar qachon barakali bo'ladi?
3. Tejamkorlik tufayli biz nimaga erishamiz?
4. Isrofgarchilikka yo'l qo'ysak nima bo'ladi?



### Adabiy o'qish

#### Buloq

(Rivoyat)

Balandda, tog'-u toshlar orasidan buloq ko'z ochdi. Suvi tip-tiniq, muzdek, bahorda atirgul yaprog'iga qo'ngan shabnamdek toza. U bu yorug' dunyoga chiqish uchun qanchalar kurashdi, metindek tog'lar bag'rini yorib o'tib, niyatiga yetdi. Quyoshni ko'rdi.

Buloq suvining niyati — ona-Yerni quchish, odamlar mehriga to'yish, o'ziday musaffo qalbli bolalarning sho'xligiga sherik bo'lish, buvi va bobolarning ne-ne qiyinchiliklarga shohid bo'lgan ko'zlariga nur bag'ishlash, ularning yuzlarini siypalash edi. Ammo ...

Yo'lda to'siqqa duch keldi. Jilg'a bo'ldi, so'ngra shalolaga aylandi. Bundan-da xursand edi. Izlagan yaxshi odamlarini topdi. Ular buloq suvini avaylashdi, miriqib ichishdi, bog'lariga tarashdi, ko'zalariga to'ldirib e'zozlashdi.

Afsus, uning bu quvonchi uzoqqa cho‘zilmadi. Dunyoda turfa odamlar bor ekan. Biri uning suviga e’tibor bersa, biri qadriga yetmadi — har tomonga bo‘lib yubordi. Yo‘lda nimalar qo‘shilmadi unga, bilolmadi. Rangi o‘zgardi. Ustiga-ustak tikanaklar, xas-cho‘plar qalbini pora-pora qildi. Bunga ham chidadi. Yana kimlardir mashinasini ham yuvdi. Buloq suvi bulg‘andi, ko‘lmakka aylandi, oxiri kerak bo‘lmay qoldi. U odamlarning bunchalik befarqligidan achindi va rangi sarg‘aydi...

**Topshiriq:** Rivoyatni o‘qing va munosabat bildiring.

**quchmoq** — обнимать

**musaffo** — чистый

**chidamoq** — терпеть

**bulg‘anmoq** — загрязнять

**befarq** — безразличный

**quvonch** — радость

**shohid bo‘lmoq** — быть свидетелем

**pora-pora qilmoq** — разрывать


**ko‘lmak** — лужа

**achinmoq** — сожалеть



**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Nima uchun „Suv — hayot manbai“ deyiladi?
2. Suvning o‘zingiz bilgan ta’riflarini keltiring va mazmunini tushuntirib bering.



3. „Buloq“ rivoyatidan olgan xulosangizni ayting.



**Uyga vazifa.** Shahringizdagi favvoralar haqida yozing.

## O‘ZBEKISTONNING SUV HAVZALARI

(*Kerak, zarur, shart* modal so‘zlarining qo‘llanishi)

### 1-DARS



**1- topshiriq.** Berilgan savollar va rasm asosida o‘zaro suhbatlashing.

- Chorvoq suv ombori haqida nimalarni bilasiz?
- Sizing viloyatingizda qanday suv havzalari bor?
- Suv havzalari tabiat va hayot uchun nima beradi?

**1- mashq.** Matnni o‘qing va so‘zlab bering.

### O‘zbekistonning yerusti suvlari

Respublikamiz hududidagi tog‘li joylarda juda ko‘p soylar va kichik daryo o‘zanlari bor. Baland tog‘ tepalari va cho‘qqilaridagi qor va muzliklardan boshlanuvchi ushbu irmoqlar yirikroq daryolarga kelib quyiladi. Yerusti suvlarining bunday taqsimlanishi iqlim va geografik xususiyatlar bilan bog‘liq. O‘zbekiston hududidan kesib o‘tuvchi eng yirik daryolar Amudaryo va Sirdaryo bo‘lib, ular respublika tashqarisidan boshlanadi. Amudaryo eng katta daryo bo‘lib, uning irmoqlari Surxondaryo, Sherobod, Qashqadaryo va Zarafshon daryolari hisoblanadi. Sirdaryo ser-suvligi jihatidan O‘rta Osiyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Uning O‘zbekistondagi eng yirik irmog‘i Chirchiq daryosidir. Shuning-

110

dek, Norin daryosi, Qoradaryo va So‘x daryolari ham unga quyiladi. Ushbu suv zaxiralari respublikamiz qishloq xo‘jaligini to‘liq ta‘minlaydi.

**2- topshiriq.** Matnda berilgan daryolarning nomini daftaringizga ko‘chiring. Ayting-chi, qaysi viloyatlar va shaharlarning nomi daryo bilan bog‘liq?

### **Bilib oling!**



Shart maylidagi fe‘llar **kerak** so‘zlari bilan birga qo‘llanganda faraz, gumon, noaniqlik ma‘nolarini bildiradi. Masalan: *Ertaga yomg‘ir yog‘sa kerak. Sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lish uchun atrof-muhitni, tabiatni asrab-avaylashimiz kerak.*

**2- mashq.** Qavs ichida berilgan fe‘llarga *kerak*, *bo‘lmoq* so‘zlaridan mosini qo‘shib yozing. Ma‘nolaridagi farqlarni tushuntiring.

1. Ertaga havo ochiq (bo‘lmoq). 2. To‘garakka barcha o‘quvchilar (qatnashmoq). 3. Kompyuterda bu dasturni (tuzmoq). 4. Tadbirda bu qo‘shiqni (aytmoq). 5. Bu yil sayohatga (bormoq). 6. Insholar tanlovida sinfdoshimiz Ziyoda (qatnashmoq). 7. Bu maqolni epigraf sifatida (ishlatmoq).

**3- mashq.** Berilgan fe‘llarni *kerak* so‘zi bilan bog‘lab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: g‘olib chiqmoq: *Bilimlar bellashuvida Akmal g‘olib chiqsa kerak.*

Topshiriqni bajarmoq, g‘olib chiqmoq, ishtirok etmoq, uddalamoq, yod olmoq, gapirib bermoq, qoyil qilmoq.

**3- topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

## **Ko‘llar**

O‘zbekiston Respublikasi hududida 50 ga yaqin ko‘llar bor. O‘zbekistondagi eng katta ko‘l Orol dengizi hisoblanadi. Ko‘l-

larning aksariyat qismi tog‘ oralig‘ida, dengiz sathidan 2 — 3 ming m balandlikda joylashgan. Bunday joylarda sel kelganda ko‘l toshib, qishloqlarni yuvib ketish xavfi bor. Tekislikdagi ko‘llar, asosan, daryo bilan bog‘liq bo‘lib, daryodagi suv oqimini mavsumiy tartibga solib turuvchi sun‘iy ko‘llar — suv omborlari deyiladi. Eng yirik suv omborlari Qayroqqum, Kattaqo‘rg‘on, Tuyabo‘g‘iz, Chordara, Janubiy Surxon suv omborlaridir. Respublikada, shuningdek, sug‘orish tizimini yaxshilash maqsadida kanallar barpo etilgan. Ularga Amu-Buxoro kanali, Katta Namangan, Katta Farg‘ona, Shimoliy Farg‘ona, Eskiangor, Janubiy Farg‘ona kanallarini kiritish mumkin.



**Uyga vazifa:** Matnda ko‘rsatilgan ko‘llarni daftaringizga ko‘chiring.

## 2- DARS

**4- topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.



**O‘qituvchi:** Ayting-chi, qadimda shaharlar suv havzalari mavjud bo‘lgan joylarda yuzaga kelishining sababi nimada?

**Jasur:** Suvsiz hayot bo‘lmaydi. Suv insonlar, barcha jonivor va o‘simliklarning yashash manbayi.

**Nozima:** Oqar suvlar bo‘lmasa, bog‘-rog‘lar barpo etilmaydi. Xonadonlarda qulayliklar ham bo‘lmaydi.

**O‘qituvchi:** Ayting-chi, shahrimiz yaqinida qanday suv havzalari bor?

**Bobur:** Chirchiq daryosi shahrimizning eng asosiy suv havzasi hisoblanadi. Shahrimizdagi barcha kanallar, anhorlar shu daryodan hosil bo‘lgan.

**Ali:** Chirchiqdan ajralib chiqqan kanallar Bo‘zsuv, Kaykovusdir. Kaykovus Anhor va Bo‘rijar kanallariga bo‘linadi.

**Nozima:** Bulardan tashqari Qorasuv, Salor kanallari ham bor. Ular shaharning 4 ta tumanidan oqib o‘tadi.



**O‘qituvchi:** Ushbu suv havzalarini asrash, shahardagi katta-kichik ariqlarni ozoda saqlash hammaning burchi hisoblanadi.

— ...

**4- mashq.** Berilgan gaplardagi fe’llarni faraz, gumon, orzu-istak ma’nolarini ifodalovchi shart mayli shakliga aylantirib ko‘chiring.

1. Suv inson uchun durdek noyob ekanligini hamma biladi.
2. Nasiba ham „Yosh tabiatshunoslar“ to‘garagiga qatnashyapti.
3. Toza havoda sayr qilish hammaga birdek yoqadi.
4. Men ham „Tomchi suvda hayot nafasi“ tanlovida qatnashaman.
5. Muzdek suvdan qonib-qonib ichaman.

**5- mashq.** Maqollarni o‘qing. Shart maylidagi fe’llar qanday ma’no ifodalayotganligini aniqlang.

Yerni boqsang, yer seni boqadi.

Mehnat qilsang, rohat ko‘rasan.

Yolg‘on aytib foyda ko‘rsang, oxirida zarar topasan.

Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan.



## Adabiy o‘qish

### Soy suvi haqida rivoyat

Bir dehqon bola-chaqasi bilan tog‘ etagida yashar ekan. Tog‘ etagi daraxtzor bo‘lib, yonida katta soy ham oqar ekan. Dehqon va uning oila a‘zolari shu soydan oqqan suvdan kundalik yumushlari uchun foydalanishar ekanlar. Dehqon o‘z ekinlarini ham shu soy suvi bilan sug‘orar ekan. U soy bo‘yidagi katta daraxtlarni kesib, o‘ziga uy quribdi. Shoxlarini arralab, o‘tin qilibdi.

Oradan bir yil o‘tibdi. Bahor kelibdi. Dehqon yerini haydab sug‘ormoqchi bo‘libdi. Qarasa, soyda suv yo‘q emish. U suv kelishi uchun soy bo‘ylarini tozalab, suvni rosa kutibdi. Biroq, qancha harakat qilmasin, foydasi bo‘lmabdi. Oxiri tog‘ga chiqib,

tog‘ cho‘qqilaridagi qorlardan suv berishlarini so‘rabdi. Qor dehqonga:

— Kim senga daraxtlarni kessin dedi? O‘sha daraxtlar soyning namligini saqlab turar edi, — debdi.

Soy daraxtga, daraxt esa soyga yordam berib turgan ekan. Dehqon bilmay qilgan ishidan afsuslanibdi. So‘ng bir talay ko‘chatlar olib kelib soy bo‘yiga o‘tqazibdi. Ko‘p o‘tmay, soydan yana suv oqadigan bo‘libdi. Dehqon yana ekinlarini sug‘orib, bola-chaqasi bilan yaxshi hayot kechira boshlabdi.

**Qissadan hissa.** Tabiatga yetkazilgan har qanday zarar o‘zimizga ziyon keltiradi.

**Topshiriq.** Rivoyatni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Rivoyat matnidan buyruq-istak maylidagi fe‘llarini toping va qo‘llanishini tushuntiring.

**bola-chaqa** — дитя  
**yumush** — работа  
**namlik** — сырость  
**arralamoq** — пилить  
**o‘tin** — дрова

**sug‘ormoq** — поливать  
**afsuslanmoq** — сожалеть  
**hissa** — заключение  
**cho‘qqi** — вершина  
**ko‘chat** — саженец



**Uyga vazifa.** Soy suvi haqidagi rivoyatdan qanday xulosaga keldingiz? Fikringizni yozing.

### 3- DARS



**5- topshiriq.** Rasm va berilgan savollar asosida o‘zaro suhbatlashing.

- Ayting-chi, rasmda nimalar tasvirlangan?
- „Orol fojiasi“ deganda nimani tushunasiz?
- Orolning shunday holatga kelib qolishining sababi nimada?

**6- mashq.** O‘qing. Matndagi fikrga o‘z munosabatingizni bildirgan holda matnni davom ettiring.

### Orol

Biz Amudaryo va Sirdaryo suvini keragidan ortiq sarfladik, natijada ularning suvi Orol dengizigacha yetib bormay qoldi. Buning oqibatida shunday katta dengiz quriy boshladi. Orolning qurishi iqlimning o‘zgarishiga, juda ko‘p kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Bu bizga katta saboq bo‘lishi kerakligini va boshqa tabiiy boyliklarimizni ham tejab sarflashimiz zarurligini anglashimiz shart. Faqat suvnigina emas, bizgacha yetib kelgan barcha boyliklarni keyingi avlodlargacha yetib borishini ta’minlashimiz kerak. O‘ylab ko‘ring, agar biz ...

**7- mashq.** Mustaqil ish. Quyidagi so‘zlarni to‘g‘ri joylashtira olsangiz, bir nechta maqol bilan tanishasiz.

- yaxshi, hechdan, kech, ko‘ra.
- Ko‘p, yaxshiroq, indamay, ko‘ra, o‘tirganing, gapirgandan.
- kuchli, o‘limdan, nomus.

**6- topshiriq.** She’rni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

### Ketib qolma, Orolim!

Xasta holing, xasta o‘yga botursan,  
Bemajol, bemador, behol yotursan.  
Doding bilan dunyoni uyg‘otursan,  
Ketib qolma, Orolim!

Oq-u qarosisan qaro ko‘zimning,  
Yuzlaringga bosib yashay yuzimni,  
Suving qurib, quritmagin izimni,  
Ketib qolma, Orolim!

Daryolaring kelolmasdan yig‘lar zor,  
 Senga mador bo‘lolmasdan yig‘lar zor,  
 Baliqlaring ko‘zlarida xitob bor,  
 Ketib qolma, Orolim!  
 Qirg‘og‘ingda qovjiragan dalangman,  
 To‘lqinlaring titrog‘iman, nolangman,  
 Men ham bitta qaqshab qolgan bolangman,  
 Ketib qolma, Orolim!

(Muhammad Yusuf)



### *Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:*

1. Suvning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Oilada, mahallada, maktabda suvni tejab ishlatish uchun nimalar qilish kerak?
3. Shart maylidagi fe‘llarning qo‘llanilishi va ma‘nolari haqida gapirib bering.
4. O‘zbekistonning daryo va ko‘llari haqida nimalarni bilib olganingiz va yana bilmoqchi bo‘lgan ma‘lumotlaringizni BBB jadvali orqali ifodalang.

<b>Bilar edim</b>	<b>Bilib oldim</b>	<b>Bilishni istayman</b>



**Uyga vazifa.** Sizing shahringizda (tumaningizda) qanday suv havzalari bor? Ma‘lumot bering.

## SPORT — SALOMATLIK GAROVI

(Ko‘makchilar, ularning qo‘llanishi)

### 1- DARS



Bunyodkor sport  
majmuasi



Suv sporti  
saroyi

**1- topshiriq.** Berilgan rasmlarni tavsiflang va savollarga javob bering.

1. Respublikamizda sportning qaysi turlari rivojlangan?
2. Bolalar sporti bo‘yicha qanday musobaqalar o‘tkaziladi?
3. Siz qaysi sport turi bilan shug‘ullanasiz?

**1- mashq.** Matnni o‘qing. Sport qachon, qayerda, qanday rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlar bilan matnni davom ettiring.

### Sport

Sport qadimdan inson hayotida muhim o‘rin tutgan. Qadimgi Misrda sportning ayrim turlari 4 ming yil avval mavjud bo‘lganligi haqida ma‘lumot bor. Qadimgi Sharqda hatto ayollarning har tomonlama bilimli, kuchli bo‘lib yetishishlariga jiddiy e‘tibor qaratilgan. Har bir davlat boshlig‘i, albatta, yetakchi sarkarda bo‘lishi ham shart hisoblangan. Tarixda o‘chmas iz qoldirgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Boburlar shunday hukmdorlar edilar.

## *Bilib oling!*



**Bilan, uchun, kabi, singari, orqali** soʻzlari mustaqil maʼno bildirmaydi va ular koʻmakchilar deb ataladi. Koʻmakchilar mustaqil soʻzlar bilan birga bitta soʻroqqa javob beradi va quyidagi maʼnolarni ifodalab keladi:

<b>Soʻrogʻi</b>	<b>Qoʻllanilishi</b>	<b>Maʼnosi</b>
Kim bilan?	ukam bilan	birgalik, vosita
Nima uchun?	musobaqa uchun	sabab, maqsad, atalganlik
Kim singari (kabi)?	ustozim kabi	oʻxshashlik
Nima orqali?	pochta orqali	vosita

**2- mashq.** Berilgan gaplar tarkibidagi koʻmakchi soʻzlarni koʻrsating va oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birga koʻchiring.

1. Musobaqa uchun sport anjomlari sotib olindi. 2. Gʻoliblarni gullar bilan qarshi oldik. 3. Yaxshi oʻqish uchun qunt bilan tayyorlanish kerak. 4. Qopcha, qopchanning ichida noncha, nonchanning ichida ustuncha (*topishmoq: jiyda*). 5. Bulutlar borgan sari quyushdi. 6. Tabiatda inson koʻzi bilan koʻrib boʻlmaydigan mayda jismlar ham bor. 7. Barno tabassum bilan javob berdi.

**3- mashq.** Berilgan savollar oʻrniga foydalanish uchun berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. (Nima uchun?) sport bilan shugʻullanish kerak. 2. (Kim bilan?) sport toʻgaragiga bordik. 3. Har kuni ertalab (nima bilan?) shugʻullanish insonni sogʻlom qiladi. 4. (Kim singari?) Vatanimiz bayrogʻini baland koʻtarish niyatim bor. 5. Vatan dovrugʻini (nima orqali?) dunyoga tanitish mumkin. 6. Onam (kim uchun?) sport kiyimi sotib oldilar.

Foydalanish uchun soʻzlar: *ukam uchun, badantarbiya bilan, sport orqali, chempionlar singari, sinfdoshlarim bilan, sogʻlom boʻlish uchun.*

**2- topshiriq.** Sheʼriy parchani ifodali oʻqing va koʻmakchilarni aniqlang.

Gulchilar guli bilan,  
Olim usuli bilan,  
Ishchi mahsuli bilan,  
Shoirlar sheʼri bilan,  
Poytaxtning raislari  
Tuzagan shahri bilan,  
Oshpazlar taom bilan,  
Bogʻbonlar uzum bilan,  
Konchi qora gavhar-la,  
Paxtakorlar oq zar-la,  
Labbay deydi ona-Vatan daʼvatlariga,  
Savlat qoʻshib el-u yurtning savlatlariga.

(Maqsud Shayxzoda)



**Uyga vazifa.** Sogʻlom boʻlish uchun nimalarga eʼtibor berish kerak? Soʻzlab bering.

## 2- DARS



**3- topshiriq.** Berilgan rasmlar va tayanch soʻz, soʻz birikmalari asosida oʻzaro suhbatlashing.

Tayanch soʻz va soʻz birikmalari: *kuchlilar sporti, charm qoʻlqop ustasi, ringga chiqmoq, chaqqonlik, qiziqarli oʻyin, ommaviy sport turi, hayajonli damlar, gʻoliblik nashidasi, havas qilaman, Oʻzbekiston chempioni.*

**4- mashq.** Matnni oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.

### Goʻzallik, salomatlik va sport

Har bir inson goʻzal boʻlishni xohlaydi. Buning uchun, avvalo, sogʻlom boʻlish kerak. Kelishgan qad-qomatli boʻlish, yengil va ravon qadam tashlash goʻzallikning muhim belgilaridir. Yengil va chiroyli qadam tashlashga oʻrganish uchun xoda ustida yurishni, boshda yuk koʻtarib gavnani tik tutishni mashq qilish kerak. Sportning yengil atletika, suzish turlari, raqs mashqlari ham qomatni chiroyli qilishga yordam beradi. Sportning boks, kurash turlari esa kuchli boʻlishga; futbol, voleybol, karate kabi turlari epchil, chaqqon boʻlishga yordam beradi.

Piyoda koʻp yuring, yuguring, suzing, jismoniy tarbiya bilan muntazam shugʻullaning, shunda siz sogʻlom va goʻzal boʻlasiz.

### Bilib oling!



**Haqida, toʻgʻrisida, ustida, yonida, tomon, keyin, orqali, uchun, soʻng, avval, ilgari, burun** kabi soʻzlar ham koʻmakchi vazifasida keladi.

Koʻmakchilar kelishiklarga oʻxshash vazifalarni bajaradi. Ayrim hollarda koʻmakchilar kelishik qoʻshimchalari bilan birga yoki ularning oʻrniga qoʻllanishi mumkin. Masalan:

*Kitoblarni **ukamga** oldim. — Kitoblarni **ukam uchun** oldim.*

*Darsdan keyin sinf yigʻilishi boʻladi.*

**5- mashq.** Birinchi qatorda berilgan soʻzlarni ikkinchi qatordagi koʻmakchilar bilan bogʻlab yozing.

Namuna: *Dars boshlanishi bilan, ...*



Kitob, kelgusi orzularim, javon, maktabimiz, mashgʻulotdan, kun, har yildagi, tinchlik.

*Haqida, toʻgʻrisida, kabi, yonida, ichida, tomon, keyin, avval, uchun, sayin.*

**6- mashq.** Ajratib koʻrsatilgan soʻzlardagi kelishik qoʻshimchalarini *uchun, orqali* koʻmakchilari bilan almashtirib gaplarni koʻchiring.

1. Stadionga shu **yoʻldan** boriladi. 2. **Maktabimizga** yangi sport anjomlari olindi. 3. U murabbiyi bilan **telefonda** gaplashdi. 4. Tennis **musobaqasiga** hakamlar tanlandi. 5. Bu xushxabarni **televizordan** eshitdik. 6. Suv sporti **insonga** juda foydali. 7. **Sportchiga** temir iroda suv va havodek zarur.



### Adabiy oʻqish

### Sport, sport, sport!

Sen bor joyda sogʻlik bor,  
Olam-jahon shodlik bor,  
Jaranglagan yoshlik bor,  
Sport, sport, sport!

Sen bor joyda doʻstlik bor,  
Ezgulik bor, qoʻshiq bor,  
Doim vaqtichogʻlik bor,  
Sport, sport, sport!

Keragisan barchaning,  
Yuragisan barchaning,  
Tilagisan barchaning,  
Sport, sport, sport!

*(Olqor Damin)*

**Topshiriq.** Sheʼrni ifodali oʻqing va unga munosabat bildiring.



**Uyga vazifa.** „Men yoqtirgan sport turi“ mavzusida matn yozing.

### 3- DARS

**4- topshiriq.** Sportning inson salomatligiga foydasi haqidagi ma'lumotlarni bilib oling.

1. Piyoda yurish tanani chiniqtirishning hamma uchun qulay, oson vositasidir. Piyoda yurish yurak, o'pka qon tomirlari faoliyatini yaxshilab, modda almashinuvining bir maromda ishlashini ta'minlaydi. Olimlarning fikricha, yayov yurgan kishining aqliy faoliyati ham oshadi, chunki yurish jarayonida miyaning qon bilan ta'minlanishi yaxshilanadi. Sevimli yozuvchimiz Abdulla Qodiriy o'z asarlari ustida ishlayotganida Toshkentning odam kam yuradigan sokin bog' ko'chalarida kezib yurar ekan. Yozuvchi ana shu „ijodiy kezish“ paytlarida ko'nglidagilarni obdan pishitib, so'ng qog'ozga tushirar ekan.

2. Keyingi paytlarda olimlar ish stolida uzoq o'tirib ishlamaslikni taklif etishmoqda. Ular o'tirib ishlagandan ko'ra, turib ishlagan ma'qul, deyishyapti. Stulda esa qisqa muddat o'tirib dam olishni tavsiya etishmoqda. Bu taklif tarixda yangilik emas. Eynshteyn, Mendeleyev, Xeminguey kabi yirik olimlar hamisha tik turib ishlaganlar.

3. Velosiped minish — kishi salomatligini mustahkamlovchi eng yaxshi vositalardan. Sportning bu turiga butun vujudi bilan berilganlardan biri — yirik o'zbek geolog olimi G'ani Mavlonovdir. G'ani Orifjonovich akademik bo'lganida ham velosiped minib yurganini ko'rganmiz.

*Siz inson salomatligi uchun foydali bo'lgan yana qaysi sport turlarini bilasiz?*

**chiniqtirish** — закалять

**yetakchi** — предшествующий

**mustahkamlovchi** — укрепляющий

**tavsiya etmoq** — рекомендовать

**kezib yurmoq** — прогуливаться

**tomir** — здесь: сосуд

**jarayon** — процесс

**piyoda yurish** — идти  
пешком

**sokin** — тихий

**7- mashq.** Salomatlikni asrash haqidagi donolarning fikrlarini o'qing va daftaringizga ko'chiring.

1. Inson uchun birinchi baxt — uning sog‘lig‘i, ikkinchisi go‘zalligidir. (*Aflotun*)

2. Izzat tilasang, kam de, sihat tilasang, kam ye. (*Alisher Navoiy*)

3. Sog‘lig‘ing qadrini bilgin, xasta bo‘lmasdan burun. (*Maxtumquli*)

4. Salomatligini ehtiyot qilib yurgan odam sog‘liq o‘zi uchun foydali ekanligini har qanday shifokordan ko‘ra yaxshirioq biladi. (*Suqrot*)

**5- topshiriq.** Yoqtirgan sport turlaringiz bo‘yicha guruhlarga bo‘lining va shu sport turining salomatlikka foydasi haqida kichik taqdimot tayyorlang.



## Adabiy o‘qish



### Futbolchilar musobaqasi

O‘yin boshlanishi bilan mehmonlar darrov hujumga o‘tishdi-da, guruhimizni dog‘da qoldirib, darvozamizga boplab to‘p urib qo‘yishdi. Shundan keyin o‘yin shunaqangi qizib ketdiki, ko‘rsangiz, hayratdan og‘zingiz ochilib qolgan bo‘lar edi.

Mehmonlarning himoyasi juda zo‘r ekan, hujumchilari-mizning qilgan harakatlari befoyda ketaverdi. O‘n daqiqa chamasi

to‘p qo‘ldan qo‘lga o‘tib turdi-da, nihoyat mehmonlar uni ustalik bilan olg‘a surib ketishdi. Chap qanot himoyachisi olisdan turib to‘pni o‘ng qanot himoyachisiga uzatdi. U bo‘lsa to‘pni havolatib, markaziy hujumchiga oshirdi. Markaziy hujumchi bizning yigitlarga qaraganda chaqqonroq ekan, kuchli bir zarb bilan bu to‘pni ham eson-omon darvozaga joylab qo‘ydi. Ishqibozlar betoqat bo‘lib, hushtak chala boshlashdi. Mehmonlarning to‘pni uzatish san‘ati biznikiga qaraganda yuqori ekan. Buni men darvozamizga uchinchi to‘pni kiritganlarida payqab qoldim.

Tomoshabinlarning hafsalasi pir bo‘ldi, ko‘plar o‘rinlaridan turib qo‘llarini umidsiz siltaganlaricha, asta-sekin jo‘nab qolishdi. „Sholikor“ning yutqazishi aniq bo‘lib qolgan edi.

(*Xudoyberdi To‘xtaboyev*)

**hujum** — нападение

**shunaqangi** — до того

**befoyda** — бесполезно

**ishqiboz** — болельщик

**dog‘da qoldirmoq** — досаждать

**himoya** — защита

**ustalik bilan** — артистично

**tomoshabin** — зритель

**Topshiriq:** Qissadan berilgan parchani o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.



### *Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar*

1. Nima uchun sport salomatlik garovi deyiladi?
2. Mamlakatimizda bolalar sportiga qanday e‘tibor berilyapti?
3. Respublikamizda qanday ommaviy sport musobaqalari o‘tkaziladi?



**Uyga vazifa.** Salomatlikka zararli bo‘lgan odatlar haqida kichik taqdimot tayyorlang.

## MENING ORZULARIM

(Yuklamalarning qoʻllanishi va imlosi)

### 1- DARS



**1- topshiriq.** Berilgan rasm asosida matn tuzing.

**1- mashq.** Matnni oʻqing va davom ettiring.

### Mening rejalarim

Bolalar, mana oʻquv yili ham yakunlandi. Siz yana bir sinfni tamomladingiz. Eng quvnoq yozgi taʼtil boshlanmoqda. Sizni turli sayohatlar, zilol suvlar, viqorli togʻlar, bepoyon qirlar va goʻzal bogʻlar oʻz quchogʻiga chorlamoqda. Bu oʻquv yili davomidagi aqliy mehnatdan soʻng siz uchun eng yaxshi dam olish hisoblanadi. Siz taʼtil kunlarida yaxshi dam olib, keyingi oʻquv yili uchun kuch-quvvat yigʻib qayting. „Yaxshi dam — mehnatga hamdam“ deydilar. Ayting-chi, yozda kim qayerda dam olmoqchi? Masalan, biz yozgi taʼtilda oilamiz bilan avval Samarqand shahriga sayohatga, soʻng dam olishga bormoqchimiz. Shu bilan birga ota-onamning uy va dala hovlidagi ishlarni bajarishlariga yordam bermoqchiman.

*Sizning yozgi rejalariniz qanday?*

**2- topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing va sinfdoshlaringiz bilan davom ettiring.



**Oleg:** Men dam olish oromgohida dam olaman.

**Bunyod:** Men ukam bilan qishloqqa — buvamlarnikiga ketaman.

**Zuhra:** Men musobaqalarga tayyorlanish uchun Olimpiya sport majmuasiga boraman.

— Men esa ...

### **Bilib oling!**



**Faqat, ham, -gina (-kina, -qina)** yuklamalari ayirish, ajratib ko‘rsatish, chegaralash ma’nolarini bildiruvchi yuklamalardir.

**-gina (-kina, -qina)** yuklamalari o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shilib, *faqat, ham* yuklamalari esa ajratib yoziladi. Masalan: *Yig‘ilishga faqat Murod kelmadi. Bu gap sengagina tegishli emas.*

**2- mashq.** Gaplarni o‘qing. Yuklamalarni aniqlang va ma’nolarini tushuntiring.

A‘zamjon juda ham band. U ertalab badantarbiya mashqlari bilan shug‘ullanadi. Har kuni o‘qishga boradi, darsdan keyin to‘garak mashg‘ulotlariga ketadi. Ukasini bog‘chadan olib keladi. Uy-ro‘zg‘or ishlariga qarashadi, buvisi va bobosidan ham xabar oladi. Televizorni faqat kechqurunlari ko‘radi.

**3- mashq.** Nuqtalar o‘rniga **ham, faqat, -gina, -kina, -qina** yuklamalaridan mosini qo‘yib matnni ko‘chiring.

Orzuga ayb yo‘q, deyishadi. Men ... bobom singari geolog bo‘lmoqchiman. Bobom ... bilimdon geolog... emas, balki dorishunos va rassom ... bo‘lganlar. Ular bolaligidan tog‘- u toshlarga havas bilan qaraganlar. Tog‘larning bag‘rida yashirinib yotgan ma‘danlar to‘g‘risida uzoq o‘ylaganlar. Bobomning ma’-

danlarni kashf etish haqidagi orzulari ... qiziqish bo‘lib qolmagan. Ular bu sohani egallash uchun bilim yurtida ..., institutda ... tahsil olganlar. „Orzuga erishish uchun ... o‘qishning o‘zi yetarli emas, balki maqsad yo‘lida tinimsiz izlanish ... kerak“, derdilar bobom.

**3- topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

### Hikmatli savol-javoblar

Qadimda ikki donishmand axloq-odob borasida suhbatlashibdi:

— Qaysi xislat odamni past martabadan a‘lo darajaga ko‘taradi?

— Aql va farosat bo‘lsa kerak.

— Odam qaysi xususiyati bilan boshqa jonzotlardan farq qiladi?

— Menimcha, odamgarchiligi bilan.

— Dunyoda eng achchiq narsa nima?

— Dunyoda eng achchiq narsa bema‘ni so‘zlar eshitish bo‘lsa kerak.

— Qanday odamlar aqlli, ziyrak hisoblanadi?

— Bir ishga kirishmasdan avval uning oqibatini yaxshilab o‘ylab, so‘ng shu ishga kirishgan odam aqlli hisoblanadi. Keyin bo‘ladigan voqeani ilgariroq sezib, uning chora va tadbirini ko‘rib qo‘ygan odam ziyrak sanaladi.

— Qaysi odatlar insonni odamgarchilikdan chiqaradi?

— Baxillik, yolg‘onchilik, chaqimchilik, o‘z aybini ko‘rmay, boshqalarning aybini oshkor qilish insonni odamgarchilikdan chiqarsa kerak. Do‘stlarning ozgina kamchiliklari uchun ulardan yuz o‘g‘irgan insonlar ham obro‘-e‘tibor qozonolmasa kerak.

**daraja** — степень

**bema‘ni** — нелепый, глупый

**qozonmoq** — завоевать

**oshkor qilish** — гласить

**chaqimchilik** — ябедничать

**odamgarchilik** — человечность



## Adabiy o‘qish

### Bahs

Oqsoy qishlog‘ida Halim, Salim, Karim degan bolalar bor. Ular bir sinfda o‘qishadi. Sinfda ham yonma-yon o‘tirishadi. Darsni ham birga tayyorlashadi.

Yozgi ta‘til yaqinlashgan sari uch o‘rtoq soy bo‘yidagi ko‘rpaday qalin chimga cho‘zilib, yozda qiladigan ishlari to‘g‘risida uzoq-uzoq suhbatlashadigan bo‘lib qolishdi.

— O‘qish tugagan kunning ertasigayoq yaylovga ketaman, — dedi Karim. — Tog‘da maza ...

Karim „tog‘da maza“ deganda, Halim bilan Salim uzoqda osmonga nayzaday qadalib turgan Abulqashqa tog‘iga beixtiyor qarab qo‘yishdi.

Karim o‘rtoqlarining havasi kelganini sezib, yanada qizishib:

— Tog‘ning baland cho‘qqisiga chiqib o‘tiramani, — dedi ko‘zini o‘ynatib. — Bo‘ribosar oyog‘imning tagiga kelib yotadi. Pastda qo‘y-qo‘zilar yoyilib yuradi. Hamma yoq menga kaftday ko‘rinib turadi... Katta bo‘lsam-chi, otam kabi cho‘pon bo‘laman. Cho‘ponlikdan yaxshi kasb yo‘q olamda!

Karimning keyingi gapi Halim bilan Salimning yayrab turgan ko‘ngliga muzday tegib, sapchitib yubordi.

— Nega endi? — deyishdi ikkovlari birdaniga.

— Mana, masalan, mening otamday hisobchi bo‘lish yomon ekanmi? — dedi achchiqlanib Halim. — Ha, bundan o‘tadigan kasb yo‘q! — dedi u takrorlab. — Katta bo‘lsam, albatta, otamday hisobchi bo‘laman.

*(Sunnatilla Anorboyev)*

**Topshiriq.** Matnni o‘qing. Bolalar nimalar haqida bahslashganini ayting. Sizning kelajak orzularingiz qanday?



**Uyga vazifa.** Yozgi ta‘tilda bajaradigan ishlaringiz rejasini tuzing.



## 2- DARS



**4- topshiriq.** Rasmlarni tavsiflang va ular asosida o‘zaro suhbatlashing.

**4- mashq.** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Siz O‘zbekiston havo yo‘llari avialaynerlarida uchganmisiz? Hozirgi kunda O‘zbekiston havo yo‘llarining avialaynerlari jahondagi rivojlangan mamlakatlar samolyotlaridan qolishmaydi. Ularda xizmat ko‘rsatish sifati ham, ayniqsa, yuqori darajada ekanligi bilan maqtovga loyiq. Samolyotlarimiz ulkan, ko‘rkam va qulay. Ana, bitta samolyotimiz ko‘kka ko‘tarilyapti. Lekin u birdan uchmaydi, avval ancha joygacha tezligini oshirib yurib boradi, keyin esa osmonga parvoz qiladi. Men samolyotlarning uchishini tomosha qilishni yaxshi ko‘raman. Katta bo‘lsam, uchuvchi bo‘lmoqchiman, shuning uchun hozir „Aviakonstruktor“ to‘garagiga qatnashyapman.

**5- topshiriq.** Savollarga javob bering.

1. Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lmoqchisiz?
2. Tanlagan kasbingiz haqida nimalarni bilasiz?
3. Siz qaysi to‘garakka qatnashasiz?
4. Yozgi ta’tilda nimalar qilishni rejalashtirdingiz?

**5- mashq.** Berilgan gaplarga yuklamalarni qo‘shib, namunadagi kabi bir necha variantlarda yozing. Ma’nolaridagi farqlarni ko‘rsating.

**N a m u n a:** 1. *Yig‘ilishga sen kechikib kelding. — Yig‘ilishga faqat sen kechikib kelding. — Yig‘ilishga yolg‘iz sen kechikding. — Yig‘ilishga faqat seninga kechikding.*

1. Yig‘ilishga sen kechikib kelding. 2. Sen o‘rtoqlaringni, meni, ustozlaringni hurmat qilmay qo‘yding. 3. Bolaginam juda odobli, — deb erkaladi onasi. 4. Yugurish musobaqasiga Ahmad qatnashmadi.

**6- mashq.** Nuqtalar o‘rniga **-gina, -kina, -qina** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. „Kim eng chaqqon?“ musobaqasiga do‘stim Anvar... qatnashmadi. 2. Dengizda sodir bo‘lgan falokatdan irmoq bo‘ylab suzib borayotgan mitti baliq... xabarsiz edi. 3. Qahramonlar haqidagi ertaklarda... bunday voqealar sodir bo‘ladi. 4. Yolg‘iz osmon... uning arz-dodiga quloq solayotgandek edi. 5. Orzular qanotida uchib borayotgan shahzodaning boshiga... bu baxt qushi qo‘nadi.

**7- mashq.** Tengdoshingiz yozgan insho mazmuni bilan tanishing va o‘zingiz yoqtirgan kasb haqida o‘zaro suhbatlashing.

Qo‘shnim Muxlisa o‘tgan yili 9-sinfni bitirdi. U hozir tibbiyot kasb-hunar kollejida o‘qiydi. U tanlagan kasbi haqida shunday dedi: „Tibbiyot kollejiga kirganimdan juda xursandman. 5 — 6 yoshimda „doktor-doktor“ o‘yinini yaxshi ko‘rardim. Bu o‘yinda men har doim „doktor opa“ bo‘lar edim. O‘sha vaqtdayoq shifokor bo‘laman deb orzu qilganman.

Shifokorning „Oppoq qizim, dorini ichsang tuzalib ketasan“, degan muloyim gapini eshitganimda sevinib ketar edim. Keyinroq bu kasbni nima uchun yoqtirganligim haqida o‘ylay boshladim. Shifokorlik qiyin, biroq juda sharafli kasb. Shifokorlar insonlarni davolaydilar, ularning sog‘lig‘i haqida qayg‘uradilar, umrlarini uzaytirishga yordam beradilar“.

O‘z maqsadi sari astoydil intilayotgan Muxlisaga havasim keldi. Unga o‘xshab men ham o‘z orzumga erishish uchun astoydil harakat qilmoqchiman. Kelajakda yaxshi arxitektor bo‘lib,

chiroyli binolarning loyihasini chizmoqchiman. Shuning uchun dizaynerlik kollejida o‘qishni davom ettirmoqchiman.

*Ayting-chi? Siz kelajakda kim bo‘lmoqchisiz? O‘qishni qayerda davom ettirmoqchisiz?*

**6- topshiriq.** Gapnlarni davom ettiring.

Men shifokor bo‘lmoqchiman, chunki

...

O‘zbekiston havo yo‘llari jahonga mashhur, chunki

...

Biz yozgi ta’tilda tog‘ bag‘riga jo‘nab ketamiz, chunki

...

Buloq suvi juda toza bo‘ladi, chunki

...

**7- topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing va kim haqida yozilganini ayting.

### Qush tili

Qushlar, dedim, ketmang uzoq,  
Men qo‘ymayman sizga tuzoq.  
Kaklik, to‘ti, bedana,  
Sepay tariq, sedana.  
Totuv, inoq bo‘lgim kelar,  
Tilingizni bilgim kelar.  
Bu bola tantiq demang,  
Ya’ni bemantiq demang.

Ko‘nglingizni tuting to‘q,  
Qafasga solmayman, yo‘q.  
Tantiqligim emas bu,  
Munaqa o‘ylamang xom.  
Tilingiz bilarkan-ku,  
Axir Alisher bobom.  
Bobomday bo‘lsam deyman,  
Qush tilin bilsam deyman.

(Mirtemir)



**Uyga vazifa.** „... bo‘lishni istayman?“ mavzusida matn tuzing.

### 3- DARS



**8- topshiriq.** Rasmdan foydalanib, berilgan tayanch soʻzlar asosida matn tuzing.

Soʻnggi qoʻngʻiroq, yozgi taʼtil, aʼlo kayfiyat, musobaqada qatnashmoq, birinchi boʻlmoq.

**8- mashq.** Qavs ichidagi soʻroqlar oʻrniga mos soʻzlarni qoʻyib yozing.

Men (qaysi?) viloyatda yashayman. Viloyatimizda (qanday?) oromgohlar bor. Oʻtgan yili yozgi taʼtilda (qaysi?) oromgohda dam olgan edim. Bu oromgoh (qaysi?) togʻ etagida joylashgan. Murabbiyimiz bilan har kuni sayohatlarga chiqar edik. Men oromgohda koʻp yangi (kimlar bilan?) tanishdim. Bu yil ham (qaysi?) oromgohga bormoqchiman.

**9- topshiriq.** Suhbat matnini oʻqing va davom ettiring.



**Oʻqituvchi:** Bolalar, ertadan yozgi taʼtil boshlanadi. Kim qayerda dam olmoqchi?

**Karim:** Men qishloqqa, togʻamlarnikiga ketaman. U yerda togʻam bilan yaylovda qoʻy-qoʻzilarga qaraymiz. Keng yaylovda dam olish menga juda yoqadi.

**Bahodir:** Biz keyingi haftadan togʻga dam olishga ketaypmiz. U yerda katta soy bor, mazza qilib choʻmilaman.

**Lobar:** Biznikida qurilish ketyapti. Men ta’tilning birinchi oyida uy ishlariga yordam beraman. Ishlar tugagandan so’ng dala hovlimizga ketamiz.

— Men esa ...

**9- mashq.** Matnni o’qing va so’zlab bering.



### Oq yo’l!

Erta tong. Maktab hovlisiga o’qituvchilar, o’quvchilar va ota-onalar yig’ilishgan. Yelkalariga safar xaltalarini osib olgan bolalarning chehralaridan ularning qanchalik xursandliklarini sezib olish qiyin emas. Ota-onalari ularga yo’l qoidalarini, dam olish oromgohida o’zlarini to’g’ri tutishga oid axloq-odob qoidalarini tushuntirish bilan band.

Maktab oldiga katta avtobus kelib to’xtadi. Bolalar birin-ketin avtobusga chiqib o’tirdilar. Safar xaltalarini joyladilar. Avtobus qo’zg’aldi. Sershovqin shahar ortda qoldi. Oldinda ularni viqorli tog’lar, sho’x soylar, quvnoq sarguzashtlar kutmoqda. Ham-mangizga oq yo’l tilaymiz!

Gul bog’larga boraylik,  
Keling, do’stlar, kuylaylik.



## Adabiy o'qish

### Yozgi ta'til

Ko'kda kulgan oftobingni,  
Olib tinmas koptogingni,  
Yuraklarga solib g'ayrat,  
Tabiatga qo'shib hayrat,  
Yaxshi kelding, yozgi ta'til!

Bolalar sho'x yayrasin deb,  
Kuchlar toshib qaynasin deb,  
Qushlar kabi sayrasin deb,  
Qo'shiq kuylab o'ynasin deb,  
Yaxshi kelding, yozgi ta'til!

Bo'lish uchun quvnoq, sog'lom,  
Zo'r chiniqib olamiz dam.  
Ona yurtda bizga har dam  
Baxtiyorlik sodiq hamdam.  
Yaxshi kelding, yozgi ta'til!

*(Qambar Ota)*

**chehra** — лицо  
**safar xaltasi** — рюкзак  
**yaylov** — летовка

**oromgoh** — лагерь  
**viqorli** — величественный  
**qo'zg'almoq** — сдвинуться



*Uyga vazifa.* She'rni yod oling.

## О‘ЗБЕКЧА-ТОЈИКЧА

### LUG‘AT

#### A

**abadiy** — абадан, абадулабад  
**abjirlik** — чолоки, чаққони, кордон  
**adolat** — адолат, ҳаққоният; инсоф  
**adolatli** — одилона, боадолат  
**adolatsiz** — беинсофона, беадолатона  
**afsona** — афсона, қисса, матал  
**afsonaviy** — афсонави, ғайривоқеи  
**afsus** — афсўс, дарег  
**afsus-nadomat** — афсўс, ғам, алам  
**afsuslanmoq** — афсўс хўрдан  
**afsuslanish** — ба таассуф омадан  
**afv** — узр, афв, маъзарат  
**ahamiyat** — муҳимми, аҳамият  
**ahvol** — ҳол, ҳолат, аҳвол  
**ajoyib** — ҳавасовар, завқовар, ҳавасангез  
**amalga oshirmoq** — ба амал баровардан  
**andaza** — андоза (нусха)  
**anjuman** — анҷуман, конфронс  
**arazlagan** — қаҳри шудан  
**ardoqlamoq** — бақадр шумурдан  
**astoydil** — аз таҳти дил  
**attang** — дарег, афсўс  
**avliyo** — авлиё, вали  
**axborot** — ахборот, маълумот  
**azza-bazza** — махусан, маҳз, алоҳида  
**azim** — азим, бузург, бисёр калон  
**a‘zo bo‘lmoq** — аъзо шудан

#### B

**bahona** — баҳона, сабаб, вачҳ, боис  
**bahonachi** — баҳоначи  
**bahs-munozara** — баҳсу мунозира  
**balqimoq** — инкишоф, гул-гул шукуфи  
**baraka** — фаровони, бисёри, зиёди  
**barakali** — серию пури, файзу баракат  
**barakalla** — офарин, аҳсан

**bartaraf qilmoq** — бартараф кардан, аз миён бардоштан  
**bastakor** — навозанда, оҳангсоз  
**baxil** — хасис, нодида, зихна  
**baxillik** — хасиси, бахили, мумсикӣ  
**baxsh etmoq** — бахшидан, ҳадя додан  
**bashar** — башар, олам  
**bedana** — бедона  
**behuda** — беҳуда, бефоида, бечо  
**bejiz** — бечиз  
**bellashuv** — мусобиқа  
**bemantiq** — бемантиқ  
**bema‘ni** — бемазмун, бемаъни  
**bepoyon** — беҳад, беканор, бепоён  
**betakror** — бемисл, бемонанд, беҳамто  
**bezash** — зеб додан  
**bilaguzuk** — дастпона, бозубанд  
**bilimdon** — донишманд, донишвар  
**bilimdonlik** — доноғи, фазл, пурдон  
**bilimli** — донишманд, олим  
**bilim olmoq** — дониш омўхтан  
**bilmoq** — доништан, бохабар будан  
**bilimsiz** — бедониш  
**binafsha** — бунафша  
**bir lahza** — як лаҳза  
**birodarlik** — бародари, дўсти  
**bir talay** — бисёр, хеле, зиёд  
**bisot** — бисот, сомони рўзгор  
**bichiq** — андозаи (нусхаи) либос  
**bichiqchi** — андозагир (нусхагир)  
**bichish-tikish** — андозаи (нусхаи) либосро гирифтан  
**bodom** — бодом  
**bola-chaqa** — бачу кач, фарзанд  
**boqmoq** — нигоҳубин кардан  
**burro** — бурро  
**bo‘rtma** — лўндача, донача, дўнги  
**bo‘y** — қад, қомат

## D

**dalolat** — далолат  
**daraja** — даража, андоза  
**dargoh** — қароргоҳ, даргоҳ  
**darhol** — фавран, бетаъхир  
**darmondori** — дармондорӣ, витамин  
**darg'azab bo'lmoq** — дарғазаб шудан  
**doira** — доира  
**don** — дона, тухм, дон  
**donishmand** — ҳақим, донишманд  
**dovrug' taratmoq** — ном баровардан  
**doston** — хамоса, дoston  
**do'lana** — дўлона  
**do'st tutinish** — дўст шудан

## E

**egri** — қач, қачу қилеб  
**ehrom** — аҳром  
**ehtiyot qilmoq** — нигоҳдорӣ қардан  
**erinmoq** — танбали (беҳавсалағӣ)  
 қардан  
**esdan chiqarmaslik** — аз ёд набаро-  
 вардан

## F

**fahm-farosatli** — бофаросат будан  
**farmon** — фармон  
**farosat** — фаросот  
**farosatli** — бофаросат  
**farosatsizlik** — бефаросатӣ  
**farovonlik** — фаровонӣ, бисёри, зиёди  
**farq qilmoq** — фарқ қардан  
**farq-tafovut** — фарқ, тафриқа, тафовут  
**favvora** — фаввора, фонтан  
**faxr bilan** — бо фахр  
**fazilat** — эътибор, шаън, фазилат  
**fir'avn** — фиръавн, император  
**fozil bo'lmoq** — фозил (доно) шудан

## G

**ganch** — ганҷ  
**ganchkorlik** — ганҷқорӣ

**garang** — гаранг  
**gard** — гард, ғубор, гарду ғубор  
**garmdori** — қаламфур, гармдорӣ  
**garchand, garchi** — гарчанд, гарчи  
**gavda** — тан, бадан, ҷасад, пайкар  
**gavdali** — тануманд, клончусса  
**gavhar** — гавҳар  
**gerdaymoq** — худписанд  
**gilamdo'z** — гилемдўз  
**gilamchilik, gilamdo'zlik** — гилембофӣ,  
 гилемдўзи

## H

**halqa** — доира, ҳалқа, чанбар  
**hamroh bo'lmoq** — ҳамроҳ шудан  
**haqiqatan ham** — дар ҳақиқат  
**harakat qilmoq** — ҳаракат қардан  
**harakatsiz** — беҳаракат  
**harbiy** — ҳарбӣ, низомӣ  
**harom** — ҳаром  
**hayrat** — шавқ, ҳайрат, мафтунӣ,  
 вачд  
**hayratlanmoq** — ба ҳайрат омадан  
**hayratga tushmoq** — ба ҳайрат афтодан  
**hayratda qolmoq** — дар ҳайрат мондан  
**hayratlanarli** — ҳайратовар  
**hayron bo'lmoq** — ҳайрон шудан  
**hayron qolmoq** — ҳайрон мондан  
**haydash** — ҳай қардан  
**hazar** — ҳазар  
**hid bilish** — бўйро шинохтан  
**hid olmoq** — бўи чизеро гирифтан  
**hikmat** — ҳикмат  
**himoya qilmoq** — ҳимоя қардан  
**hissa** — ҳисса, қисм  
**hodisa** — ҳодиса  
**holdan ketmoq** — аз ҳол рафтан  
**horg'in** — мондағӣ, хастағӣ  
**hujayra** — ҳуҷайра  
**hunarmand** — ҳунарманд  
**ho'plamoq** — фуруь бурдан



## I

**ibrat** — ибрат  
**ibrat olmoq** — ибрат гирифтан  
**ibratli** — ибратнок  
**ifoda** — ифода  
**iftixor** — ихтихор  
**ijodkor** — эҷодкор  
**iliqlik** — гарми, ҳарорат  
**imorat** — иморат  
**inshoot** — иншоот  
**is, hid** — бўй  
**isrof qilish** — исроф кардан  
**istilo qilmoq** — истило кардан  
**ixlos** — ихлос  
**ixtiyor etmoq** — ихтиёр кардан  
**ishtirok etmoq** — иштирок кардан  
**ishonch** — бовар, дилпури, эътимод  
**ichin-toshin** — ба дарун, намуди беруни, сурати зоҳири  
**ichimlik** — нўшоки

## J

**jarayon** — равиш, рафт, чараён  
**jasoratli** — далер, диловар  
**jasoratsiz** — беқатъияти  
**jasur** — далер, ҷасур  
**jasurlik** — диловарӣ, далери, ҷасури  
**jazirama** — гармо, ҳавои сўзон, тафсон  
**jism** — ҷисм  
**jiydazor** — санҷидзор  
**jonzot** — ҷонзот  
**jumla** — ҷумла  
**jo'mrak** — кран, ҷуммак, мил, нўл  
**jo'r ovoz** — бо овоз ҷўр шудан

## K

**kaklik** — кабк  
**kamchilik** — камбудӣ, норасоӣ  
**kamtar** — хоксор, фурутан  
**kamtarlik** — хоксори, фурутани  
**kamtarlik qilmoq** — хоксори кардан  
**kayfiyat** — рўҳия, кайфият, ҳолат  
**koshona, saroy** — қаср, дарбор, сарой

**kundalik** — ҳаррўза, рўзмарра  
**kun tartibi** — тартиби рўз  
**kurtak** — муғча  
**kuch-quvvat** — қувват, зўр, иқтидор  
**ko'mak** — ёрдам, кўмак  
**ko'mak bermoq** — ёрдам додан  
**ko'nikmoq** — розигӣ додан  
**ko'paytirmoq** — зиёд кардан  
**ko'pincha** — бештар  
**ko'p qirrali** — бисёррўя, серқирра  
**ko'rik-tanlov** — озмунҳо  
**ko'rinish** — намуд, афту андом  
**ko'chirib o'tkazmoq** — кўчонда гузарондан

## L

**lahza** — лаҳза  
**lojuvard** — кабуд, осмонӣ, обиранг  
**lola** — лола  
**lol qolmoq** — ба ҳайрат омадан  
**loyqa** — тира, хира; лойолуд, гилолуд  
**lozim** — лозим  
**lutf** — хайрхоҳӣ, илтифот, лутф  
**lo'nda** — мухтасар, мухтасаран, кўтоҳ

## M

**mahorat saboqlari** — устоди ҳунарманд  
**majmua** — маҷмўа  
**majruh** — маҷрўҳ, инвалид, маъюб  
**manba** — манбаъ, сарчашма  
**maqtamoq** — мадҳ (ситоиш) кардан  
**markazlashgan** — мутамарказ  
**maskan** — қой, макон  
**maslahat** — маслиҳат, машварат  
**matal** — масал, матал, тамсил  
**mazali** — лазиз, болаззат, бомаза  
**mashg'ul bo'lmoq** — машғул шудан  
**ma'lum** — маълум, возеҳ  
**me'da** — меъда  
**me'moriy-badiiy** — меъмори-бадеи  
**me'morchilik** — меъмори, бинокори  
**minnatdor-chilik** — арзи миннатдори  
**miskarlik** — мисгарӣ  
**me'mor** — меъмор

**mobaynida** — дар мобайнаш  
**mojaro** — ҳодиса, воқеа, воқеаи ноговор  
**momaqaymoq** — қоқу  
**moslashmoq** — мувофиқ шудан  
**muhtasham** — мўхташам  
**muloyim** — мулоим  
**munosabat** — муносибат  
**muomala** — муомила, ахлоқ, одоб  
**murabbiylik** — мураббиги, тарбиячиги  
**murosa** — муросо  
**muvozanat** — баробарвазни, мувозинат  
**mo'jiza** — мўъжиза  
**mo'ysafid** — мўйсафед, пир, куҳансол  
**mo'ljalga olmoq** — ба нишонгири

### N

**nafas olish** — нафас кашидан  
**namlik** — нами, намнокӣ  
**namoyanda** — ходим, арбоб, намоянда  
**naqshli** — сернақшунигор, нақшин  
**na'matak** — хуч, настаран  
**nishonlamoq** — бо тантана қайд кардан  
**nobud bo'lmoq** — нобуд шудан  
**nodir** — камёб, нодир, фавқулдда  
**nozik** — нозук, моҳирона  
**nur** — шуоъ, нур  
**nuroniy** — нурафкан, тобон

### O

**obod** — обод  
**obodonlashtirish** — обод кардан  
**obro'-e'tibor** — обрў-эътибор  
**odamgarchilik** — одамият, одамгарӣ  
**odat** — одат, хў, хислат  
**odatiy** — одати, одатшуда  
**odil** — одил, адолатнок, боинсоф  
**oddiy** — содда, оддӣ, осон  
**odob** — рафтор, одоб, кирдор, ахлоқ  
**ohang** — интонатсия, оҳанг, овоз  
**ohista** — ист, бо овози паст, оҳиста  
**oqibat** — натиҷа, оқибат  
**orastalik** — тозагӣ, назофат, покизагӣ  
**ozodlik timsollari** — нишонаи озоди  
**oshkor qilish** — ошкор (эълон) кардан

### P

**parrak** — парра, паҳна, паррача  
**parvona bo'lmoq** — парвона шудан  
**parvoz** — парвоз  
**payqamoq** — дида мондан, дидан  
**peshtoq** — пештоқ  
**polapon** — бачаи парранда  
**polvon** — паҳлавон, баҳодур  
**poydevor** — пойдевор  
**puxta** — сахту маҳкам, тобовар  
**pushaymon** — пушаймон

### Q

**qabila** — қабила  
**qabiladosh** — ҳамқабила  
**qadriyat** — қадрият, арзиш  
**qadrlash** — қадр кардан  
**qadim** — қадим, бостон  
**qadrlagan** — қадр карда шуда  
**qalampirmunchoq** — гармдорӣ  
**qaltiramoq** — ларзидан  
**qaror** — қарор  
**qarorgoh** — қароргоҳ  
**qarzdor** — қарздор  
**qayin** — тўс  
**qaynatmoq** — чўшондан  
**qiliq** — рафтор  
**qirrali** — гўшадор, қирранок  
**qissa** — қисса; ҳикоя, нақл  
**qit'a** — материк, қитъа  
**qiyofa** — рўй, чеҳра, рухсора, афт  
**qiyoslamoq** — муқоиса (қиёс) кардан  
**qizaloq** — духтарча, духтарак  
**qoplangan** — пўшидан, пўшондан  
**qozonmoq** — истило кардан  
**qudrat** — қудрат, иқтидор, тавоной  
**qudratli** — пуриқтидор, тавоно, пурзўр  
**qulaylik** — қулай (муносиб) будан  
**qurilma** — мошин, дастгоҳ, механизм  
**quticha** — ҳуққа, қуттича  
**quvlashmачoq** — сурсуракбозӣ  
**quvvat** — қувва, қувват, зўр, иқтидор  
**qo'riqchi** — посбон, ниғаҳбон, қаравул  
**qo'shin** — армия, қўшун

## R

**rabot** — боф  
**rad etmoq** — рад кардан  
**rahbar** — роҳбар, роҳнамо, сардор  
**rahmdil** — раҳмдил, нармдил, шафқат  
**ramziy** — рамзӣ  
**randalamoq** — ранда кардан  
**rang-barang** — рангоранг, гуногунранг  
**rangi-ro'yi** — ранги рӯй  
**ranjimoq** — ғамгин шудан, ранчидан  
**raqqosa** — раққоса  
**rasm-rusum** — расм, расму таомул  
**rasta** — раста, қатор  
**ravnaq** — инкишоф, тараққӣ, пешрафт  
**ravnaq topmoq** — инкишоф додан  
**ravon** — васеъ, кушод, паҳновар  
**ravona bo'lmoq** — равона шудан  
**reja** — нақша, план, лоиҳа, тарҳ, реча  
**rioya qilmoq** — риоя кардан  
**rivojlantirish** — ривоҷ (инкишоф) додан  
**ro'zg'or anjomlari** — анҷомҳои рӯзгор

## S

**sadaf** — садаф  
**saf tortmoq** — саф оростан  
**sahro** — биёбон, сахро, бодия, чўл  
**sahroyi** — даштӣ, чўли  
**sajdagoh** — чои муқаддас, сачдагоҳ  
**sazovor bo'lmoq** — сазовор шудан  
**saqlash** — нигоҳ доштан  
**saxovatli** — кушодадаст, саҳӣ  
**sayyora** — сайёра  
**samo** — осмон, фалак, само, фазо  
**sermahsul** — маҳсулнок, ҳосилнок  
**sirlangan** — амалғама, сири оина  
**sirli** — махфӣ, пинҳонӣ, пўшида  
**sig'dirolmay** — нағунҷондан  
**sodiq** — содиқ, вафодор, садоқатманд  
**sokin** — осуда, ором  
**sopol** — гилий, гилин; сафоли  
**soz** — асбоб, соз, асбоби мусиқӣ  
**sudxo'r** — судхўр

**susaymoq** — сустан, беқувват шудан  
**sug'ormoq** — об додан, обёри кардан

## T

**tajriba** — таҷриба, малака, маҳорат  
**taklif qilmoq** — таклиф кардан  
**takomillashtirmoq** — такмил додан  
**tantiq** — эрка, ёзида, нозпарварда  
**taom** — хўрок, таом, физо  
**tarannum qilmoq** — ситоиш кардан  
**taraqqiyyot** — инкишоф, тараққийот  
**tariq** — арзан  
**tarixiy** — таърихӣ  
**tarkib** — таркиб, ҳайъат  
**tark etmoq** — тарк кардан  
**tasalli topmoq** — тасалло додан  
**tasavvur qilmoq** — тасаввур кардан  
**tayyorgarlik** — тайёри (омода) дидан  
**ta'mirlanmoq** — таъмир кардан  
**ta'm** — маза, таъм  
**ta'minlamoq** — таъмин кардан  
**ta'rif** — тасвир, тавсиф, таъриф  
**tegirmon** — осиеъ, осиеб  
**tejash** — сарфа кардан  
**tekshirmoq** — санчидан, озмудан  
**temirchilik** — оҳангарӣ  
**teng huquqli** — баробарҳуқуқӣ  
**terak** — сафедор  
**teri** — пўст  
**teshik** — сўроҳ, шикоф, тешук  
**tillaqosh** — тоҷи тиллоӣ  
**tirilmoq** — зинда (эхё) шудан  
**tizim** — сохт, система  
**tomir** — раг  
**topgan-tutgan** — бозёфт, чизи ёфтшуда  
**tortishib qolmoq** — мунозира кардан  
**totuv** — осуда, ором, тинч, осоишта  
**tuvak** — кўза, кўзача, хурма, тубак  
**tuyg'u** — ҳис, ҳиссиёт; эҳсос  
**tuzoq** — дом, тузоқ, қапқон  
**to'lmoq** — пур шудан, зиёд шудан  
**to'yimlilik** — калорияноки  
**to'ti** — тўти

## U

**ulamolar** – олимон, донишмандон  
**ulug‘vor** – бошукўҳ, боҳашамат  
**unib chiqmoq** – сабзай навхез, майса  
**unsur** – унсур, элемент  
**urf-odat** – урфу одат, расм, таомул  
**ustun** – баландтар, болотар  
**uvoq** – реза, пора, зарра  
**uyg‘unlik** – мувофиқат, мутобиқат  
**uzluksiz** – пай дар пай, бефосила

## V

**vafo** – сидқ, вафо  
**vafodor** – содиқ, вафодор  
**vafodorlik** – садоқат, вафодорӣ  
**vafo qilmoq** – вафодор шудан  
**vafosiz** – бевафо, бесадоқат  
**vafosizlik** – бевафоги, чафокор, ғаддор  
**vafot etmoq** – мурдан, вафот кардан  
**vaqtincha** – муваққатан  
**vaqtli** – барвақт  
**vazifa** – супориш, вазифа  
**vaziyat** – ҳол, ҳолат, вазъият  
**vazmin** – вазнин  
**vazn** – вазн  
**vijdon** – вичдон, инсоф  
**vijdonan** – вичдонан, аз рўйи вичдон  
**vijdonli** – бошараф, бовичдон  
**vijdonsiz** – бевичдон, бешараф  
**viqorli** – боазамат, халил, маҳобатнок

## X

**xalos** – халос, (озод, раҳо, наҷот  
**xalqaro** – байналхалқӣ  
**xalta** – халта, линга  
**xamir** – хамир  
**xam qilmoq** – хам кардашуда  
**xarajat** – сарф, харҷ, хароҷот  
**xarob bo‘lmoq** – хароб (вайрон) шудан  
**xayol** – хаёл  
**xiralashmoq** – хира (заиф) шудан  
**xislat** – хусусият, хосият, сифат

140

**xiyonat** – хиёнат  
**xiyonat qilmoq** – хиёнат кардан  
**xulosa** – хулоса, натиҷа, мулоҳиза  
**xunuk** – безеб, баднамо, бадафт

## Y

**yanglish** – хато, саҳв, иштибоҳ, ғалат  
**yanchmoq** – мағлуб кардан  
**yarashishgan** – ошти кардан  
**yara-chaqa** – яра, рихинак, қароҳат  
**yaxlit** – комплекс  
**yaylov** – дала, дашт  
**yengmoq** – мағлуб кардан  
**yer osti** – таги замин  
**yilboshi** – аввали сол  
**yong‘oq** – чормағз  
**yoqimli** – хушнамо, дилкаш  
**yorliq** – шаҳодатнома, гувоҳнома  
**yovuz niyat** – нияти бад  
**yog‘och kosa** – косаи чўбин  
**yumush** – хизмат, кор  
**yupqa** – борик, тунук, маҳин  
**yuviqsiz** – ношуста, ифлос, чиркин  
**yo‘lka** – пайроҳа, роҳи борик  
**yo‘llamoq** – фиристодан, роҳи кардан  
**yo‘lovchi** – ҳамроҳ, ҳамсафар  
**yo‘nmoq** – тарошидан, харротӣ кардан

## Z

**zahmatkash** – заҳматкаш, меҳнаткаш  
**zakovat** – хушзеҳнӣ, фаросат  
**zakovatli, farosatli** – зирак, бофаросат  
**zamin** – хушқӣ, замин  
**zamon** – давра, замон  
**zamona** – замона  
**zamonaviy** – ҳозиразамон  
**zamondosh** – ҳамаср, ҳамзамон  
**zangori** – кабуд, осмонӣ, обираңг  
**zanjir** – занҷир  
**zar** – боигарӣ, давлат, сарват, дорой  
**zarar** – зарар, зиён, халал  
**zarar keltirmoq** – зарар расондан  
**zararkunanda** – зараркунанда

**zararkunandalik** — зараррасонӣ  
**zararlanish** — зарарёбӣ  
**zararlanmoq** — зарар ёфтан  
**zararli** — зарарнок, зараррасон  
**zararsiz** — безарар  
**zargarlik** — заргарӣ  
**zeb-u ziynat** — зебузинат  
**zich** — зич, ғафс  
**zulmat** — торикӣ, тирағӣ

### О‘

**o‘ksinmoq** — ранчондан, озор додан  
**o‘qdek otilmoq** — чун тир паридан  
**o‘rnatmoq** — барқарор кардан  
**o‘tkir zehnli** — зеҳни тез, зариф  
**o‘tmish** — гузашта, пеш, пешина  
**o‘xshatmoq** — монанд кардан  
**o‘ychan** — хаёлангез, ба фикр рафтан  
**o‘zlashtirish** — нағз хондан  
**o‘zlashtirmoq** — аз худ карда шудан

### Г‘

**g‘alla** — дона, тухм, дон  
**g‘allachilik** — ғаллакори  
**g‘altak** — ғалтак  
**g‘amgin** — маҳзун, ғамгин, ғамангез  
**g‘am-qayg‘u** — ғам, ғусса, андўҳ  
**g‘amxo‘r** — ғамхор  
**g‘amxo‘rlik qilmoq** — ғамхори кардан  
**g‘anim** — душман, хасм, адў  
**g‘aroyib** — ақоибу ғароиб  
**g‘ayrat** — ғайрат, қўшиш, саъй, ҳақд  
**g‘olib chiqmoq** — ғалаба кардан  
**g‘urur** — ғурур, такаббур

### Sh

**shakllanmoq** — ба шакли муайян даромадан, ташкил ёфтан  
**shamchiroq** — шамъ  
**sharafli** — пуршараф, машҳур, шаҳир  
**sharqiy** — шарқӣ  
**shart** — шарт  
**shaxsiy** — шахсий  
**sharshara** — шаршара, шалола, обшор  
**sha‘n-u sharaf** — ору номус, шараф  
**shovqin** — шавшув  
**shovqin-suron** — ҳаёҳуй, мағал  
**shoshqaloq** — шитобкор, саросема  
**shu‘la** — шуоъ, нур, шўъла  
**sho‘xchan** — шўх

### Ch

**changib ketmoq** — чанг бардоштан  
**chanqab qolmoq** — ташнағи кашидан  
**chaqimchilik** — хабаркаши кардан  
**charchoq** — қўфтағи, хастағи  
**chaynamoq** — хоидан, човидан  
**chekka** — сарҳад, ҳудуд  
**chek qo‘ymoq** — бартараф кардан  
**chevar** — бофанда  
**chevarlik** — бофандағи  
**chечak** — шукуфа, гул  
**chinnisozlik** — фахфурсози, чиннисози  
**chiqindi** — ахлот, пасафкандаҳо, партовҳо  
**choyshab** — чойпўш, малофа  
**chumchuq** — гунчишк, чумчуқ  
**cho‘pon** — чўпон  
**cho‘qqi** — қулла

## MUNDARIJA

1-2- mavzu. Poytaxtim — faxrim .....	3
3-4- mavzu. Mahallam .....	9
5-7- mavzu. Ustozlar .....	14
8-10- mavzu. Til bilgan — el biladi .....	22
11-13- mavzu. Insoniy fazilatlar .....	30
14-16- mavzu. O‘zbekiston tog‘lari .....	39
17-19- mavzu. Shifobaxsh o‘simliklar .....	46
20-22- mavzu. Vatanga sadoqat .....	53
23-24- mavzu. Vatan sarhadlari .....	60
25-27- mavzu. Alisher Navoiy .....	65
28-29- mavzu. Adabiyot muzeyida .....	71
30-32- mavzu. Ona — ulug‘ zot .....	75
33-35- mavzu. Milliy urf-odatlarimiz .....	83
36-38- mavzu. Amir Temur .....	93
39-40- mavzu. Suv — hayot manbayi .....	102
41-43- mavzu. O‘zbekistonning suv havzalari .....	110
44-46- mavzu. Sport — salomatlik garovi .....	117
47-49- mavzu. Mening orzularim .....	125
O‘zbekcha-tojikcha lug‘at .....	135

M 93

**X. Muxitdinova.**

O‘zbek tili [Matn]: ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7- sinfi uchun darslik/  
X. S. Muxitdinova, Y. I. Avlakulov, D. A. Nuriddinova/  
2- nashri, – T.: „O‘qituvchi“ NMIU, 2017.–144 b.

ISBN 978-9943-22-057-7

UO‘K: 81.2O‘zb

KBK 81.2O‘zb(ya72)

XADICHA SABIROVNA MUXITDINOVA,  
YASHNARBEK IBRAGIMOVICH AVLAKULOV,  
DILDOR ABRAROVNA NURIDDINOVA

## O‘ZBEK TILI

**Ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktablarning  
7- sinfi uchun darslik**

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan  
2- nashri

*„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi*  
*Toshkent — 2017*

Muharrir *M. Nishonboyeva*  
Badiiy muharrirlar: *Sh. Odilov, B. Ibragimov*  
Texnik muharrir *S. Nabiyeva*  
Musahhihlar: *Z. G‘ulomova, M. Mirsalikov*  
Kompyuterda sahifalovchi *O‘. Qurbonova*

Nashriyot litsenziyasi AI 291. 04.11.2016. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 01.06.2017. Bichimi 70×90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Kegli 11 shponli. Tayms garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Hisob-nashriyot t. 7,72.

Shartli b. t. 10,53. Adadi 6619 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1- uy.  
Shartnoma № 23-17

### Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4						
5.						
6.						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqalar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.